

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**B. BOLTAYEV, J. A. XODJAYEV**

**MAKTABGACHA TA‘LIM**  
**TASHKILOTLARIDA MUSIQA**  
**TARBIYASI**

**(DARSLIK)**

**SAMARQAND**

УДК 373.2  
ББК 4.104  
Б 83

**B. Boltayev, J. A. Xodjayev. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik.** – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.– 252 bet

Mas'ul muharrir:

**Sh.Mustafayev**

Musiqa ta'limi kafedrası mudiri. Falsafa fanlari pedagogika doktori (PhD) dotsent

Taqrizchilar:

**I.QUDRATOV**

Musiqa ta'limi kafedrası professori

**B.MADRIMOV**

BuxDU. San'atshunoslik fakulteti dekani. Professor

*O'sib kelayotgan yosh avlodni komil, barkamol qilib yetishtirish uchun musiqa mashg'ulotlarining o'rni ham beqiyos. Mazkur darslik maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa mashg'ulotlari rahbarlari, musiqa yunalishi hamda maktabgacha ta'lim fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu darslikda maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa mashg'ulotlarini tashkil qilish, bog'cha yoshidagi bolalarni jismoniy hamda ma'nan rivojlantirish yo'lidagi tavsiyalar yoritilgan.*

*Darslik SamDU Kengashining 2021yil 30 dekabrdagi 6 - sonli yig'ilishi qaroriga asosan chop etishga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9943-6647-4-6**

©Samarqand davlat universiteti, 2021

## KIRISH

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Hozirgi vaqtda respublikada 10000 dan ortiq davlat hamda xususiy ta'lim muassasasi faoliyat olib olib borayapti. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bug'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon, qaror va farmoyishlar maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi barchaning e'tiboridadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017 yil 9 sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"<sup>5</sup> hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining

Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish kabi davlat hujjatlarida bu sohaga oid masalalarini hal etish nazarda tutilgan

Ushbu qaror va farmoishlar maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruv tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish oraqli bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida qabul qilindi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarinig ahamiyati beqiyosdir. Bo'lajak musiqa mutaxassisleri yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

MTTda musiqa mashg'ulotlari bo'yicha davlat o'quv standartlari va dasturlarini, darslik va metodik, o'quv qo'llanmalarini zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir. Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Xalq pedagogikasi o'sib, rivojlanib borayotgan bir davrda xalq musiqiy namunalarini o'rganish atoqli san'atkorlar ijodidan mashg'ulot jarayonida keng foydalanish musiqa tugaragi rahbari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur tavsiyada mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda, O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqani bolalarning idrok etish qobiliyati darajasiga bosqichma-bosqich tatbiq etish nazarda tutiladi. Uslubiy qo'llanmadagi tavsiya etilayotgan ko'rsarmalar, musiqa repertuari jonajon vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm-shavqat kabi hislar musiqiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan va mashg'ulot jarayonida quyidagi ijrochilik malakalarini shakllantirish zarur. Tovushni to'g'ri ohangda ijro etish,

musiqa ostida ritmik harakatlarni ifodali bajara olish, cholgʻu asboblarning tovushiga koʻra ajrata olish va ularni aniq uslublarda, bolalar cholgʻu asboblari chalishga oʻrgatishdan iborat.

Zamonamizdagi maʼnaviy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy oʻzgarishlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalarining taʼlim jarayoniga kirib kelishi boʻlajak «Musiqa taʼlimi» yoʻnalishi boʻyicha tahsil olayotgan talabalarga nisbatan yuqori talablarni qoʻymoqda. Ushbu darslikda biz asosan, oliy oʻquv yurtlari va oʻrta maxsus kasb-hunar kollejlari musiqa yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar hamda «MTT da musiqa tarbiyasi» oʻquv fani boʻyicha maʼruza oʻqiyotgan, maktabgacha taʼlim muassasalarida musiqiy mashgʻulotlar olib borayotgan musiqiy rahbarlar uchun musiqa taʼlimining boshlangʻich bosqichlarida qoʻllashlari kerak boʻlgan nazariy-amaliy, psixologik hamda pedagogik bilimlarini oshirish hamda musiqa rahbarlari, oʻqituvchilarini kasblariga yoʻnaltirish maqsadida metodik tavsiyalar, badiiy asarlar berishga harakat qildik

## **I BOB. MA'RUZA FANLARIDA UTILADIGAN MAVZULAR**

### **1.1 Musiqa san'atining hayotdagi o'rni va roli. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsad va vazifalarining ahamiyati**

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga urgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va goyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy «Bu fan tanning sogligi uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir». Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. Bolalarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish.

2. Musiqiy faoliyatlar jarayoni badiiy ijodkorlik va his-tuygularni rivojlantirish.

3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.

4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish musiqa mashg'ulotlarini olib boruvchi mutaxassisning professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa mutaxassis o'z kasbiga

va bolalarga mehr qo‘ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan shaxs bo‘lmog‘i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o‘qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo‘lmog‘i kerak. Musiqa o‘qituvchisi musiqa san‘atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lishi lozim. Ya‘ni u ham cholg‘uchi, xonanda, xor dirijyori, jurnavozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko‘rmog‘i lozim. Musiqa o‘qituvchisining ijodkorligi shundaki, u mashg‘ulotlarni olib borish uchun senariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san‘at darsi deyiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida musiqa tugaragi rahbarining faoliyat miqyosi kengdir. Mashg‘ulotlardan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san‘atkorlar bilan uchrashuvlar, leksiya-konsertlar, shoirlar bilan uchrashuvlar, ko‘rik tanlovlari, bayramlarni) uyushtirish musiqa mashg‘ulotlari rahbarining zimmasidagi vazifadir. Shu bilan birga, muassasadan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, o‘quvchilar saroylari, bolalar teatri) bilan aloqada bo‘lib, iqtidorli bolalarni ularga jalb etish va ularning faoliyatini bog‘cha hayotida qo‘llash ham musiqa rahbarining zimmasidadir.

Bo‘lajak musiqa mutaxassisleri yosh avlod ongiga yuksak tuyg‘ularni singdirish, ularda ona-Vatanga muhabbat, go‘zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo‘lgan ishtiyoq uyg‘otuvchi kasb egalari hisoblanadilar. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu noyob kasb egalarining imkoniyatlarini chuqur his qilgan holda, yosh avlodga musiqiy ta‘lim berish zarurligiga alohida e‘tibor qaratib, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish haqida maxsus farmon chiqardi. Unda ta‘kidlanganidek, «Bolalar musiqa va san‘at maktablarini zamonaviy o‘quv va musiqa anjomlari bilan ta‘minlash» bugungi kun talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bolalar musiqa va san‘at maktablarining moddiy va texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009–2014 hamda 2016-2021-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora tadbirlari rejalashtirildi. Bu vazifalarni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti farmoyishidan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozimligi ta‘kidlab o‘tildi. Umumta‘lim hamda MTTda musiqa fani bo‘yicha davlat o‘quv standartlari va dasturlarini, darslik va metodik, o‘quv qo‘llanmalarini zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish zarurligi ta‘kidlanadi.

Musiqqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar, bu oliyanob fazilatlarni yosh avlodda bog'cha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq. Darhaqiqat, musiqqa savodini o'rganish bog'cha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar. Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar bir tizimga solinmagan bo'lsa-da, musiqqa o'qituvchisi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin. Bolalar muassasalarida musiqqa ta'limiga asos solinadi, shuning uchun musiqqa rahbari ayniqsa o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur. Musiqqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqqa o'quvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi. Musiqqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va

harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi. Bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishga o'rgatish.

2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.

3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.

4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.

5. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.

6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.

7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish. Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo‘shimcha, obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida ularning tevarak-atrofnı bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarnı musiqa bilan shug‘ullantirishning sababi bola musiqa bilan shug‘ullanmasdan, qo‘shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko‘nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog‘liq bilimlarnı o‘zlashtirishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o‘zaro uzviy bog‘langan uchta metodi bor:

1. Ko‘rgazmali metod.
2. So‘zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

#### **Ko‘rgazmali metod.**

1. Eshitishga asoslangan ko‘rgazmali metod. Bunda bolaga o‘rgatish bevosita musiqa bilan bo‘ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg‘ulot paytida yoki bola tomonidan qo‘shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi. 2. Ko‘rishga asoslangan ko‘rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo‘shib olib boriladi. Turli o‘yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko‘rsatiladi.

#### **So‘zlab berish metodi.**

Bu metod bola ongiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning faoliyatini ma‘noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so‘zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tassavvurini jonlantiradi.

So‘zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

**1. Tushuntirish** – yangi asarnı tinglash, qo‘shiq aytish, o‘yin va raqslarnı qo‘shib, mashq qilish davomida o‘ynalaniladi.

**2. Izohlash** – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo‘shiq aytishning turli yo‘llarini ko‘rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

**3. Ko‘rsatma berish** – bolalar o‘yini raqs va mashqlarnı bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o‘ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho‘zish kabi.

**Amaliy faoliyat metodi.** Bu faoliyatda bolalarga qo‘shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarnı bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta‘sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarnı o‘rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarnı asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

## **Bolalar bog‘chasida bolalarni musiqaga o‘rgatish bosqichlari**

1-bosqich: Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish; Yangi qo‘shiqni o‘rgatish jarayonida pedagog turli musiqasoboblarda chaldirib, kuyni o‘zaro taqqoslaydi va shu yo‘l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo‘shiq va musiqaritmik harakatlarini ijro eta olish ko‘nikmalari bo‘lishini shakllantirish.

3-bosqich: Ko‘nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo‘shiq, o‘yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqata‘limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Musiqaning tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san’at hisoblanadi. Kishida musiqatinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. Bog‘chada amalga oshiriladigan musiqatinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqamashg‘ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqatinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg‘ulotning musiqatinglash qismi oldida o‘ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko‘ra tinglash imkoniyati ancha keng bo‘ladi. Masalan: orkestr, xor, yakka cholg‘u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqatinglashga alohida e‘tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqamadaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqatinglash, malaka, ko‘nikmalari katta rol o‘ynaydi. Musiqatinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg‘ulotning musiqatinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

1) bolalarni o‘z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqanamunalari bilan tanishtirib borish; 2) bolalarning musiqaning idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish; Musiqahaqida boshlang‘ich ma‘lumotlar berishni o‘rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma‘lum miqdorda badiiy baho bera olishga o‘rgatish. Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo‘lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqasarlarini idrok etishga qobil bo‘ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo‘shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so‘z va ohang birligi musiqamazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtda bolalarda hosil bo‘ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzatish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg‘onib,

tez soʻnadi. 4–5 yoshli bolalarda diqqat eʼtiborning bir muncha emotsional turgʻunligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli, baʼzan joʻshqin holatda idrok etadilar. Yengil, kuychan musiqalarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa, unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo boʻladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana borib, tinglagan musiqa haqida oʻz taassurotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo boʻladi.

5–6 yoshli bolalarda esa erkin, ixtiyoriy tarzda diqqat eʼtibor shakllanib, musiqani diqqatni yigʻib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobiliyati rivojlangan boʻladi. Ularda musiqaga qiziqish koʻproq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni oʻrganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv soʻzi katta rol oʻynaydi. Cholgʻu kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2 – 3 mashgʻulot davomida takroran tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi-yangi qirralari namoyon boʻladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. Bogʻchaning tayyorlov guruhlarida bola oʻz yoshiga muvofiq musiqa asarini toʻla idrok etishga qodir boʻladi. Bogʻchada olingan bilim zaxirasida malaka va koʻnikmasi, musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga yordam beradi. Shunday qilib, dasturda koʻzda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol oʻynaydigan uch faktor amalga oshadi.

1. Musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni oʻylash. 2. Musiqa tinglashga turgʻun diqqat-eʼtiborni va tinglash madaniyati boshlangʻich elemental-rining shakllanishi. 3. Musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish. Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiy vazifalari:

1. Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuygʻularini rivojlantirish.
2. Boshlangʻich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.

Musiqa darsida qoʻllaniladigan bolalar cholgʻu asboblari ikki turga boʻlinadi: kuychan va kuychan boʻlmagan cholgʻu asboblari. Kuychan cholgʻu asboblarga: metallafon va ksilafon; kuychan boʻlmagan cholgʻu asboblarga: doirachalar, rumbalar, marakasalar, uchburchaklar, qoʻgʻir-

choqchalar, shaqildoqlar, barabanchalar, yog‘och qoshiqlar kiradi. Mana shu musiqa asboblardan tuzilgan:


1. Orkestr – turli cholg‘ularda chaluvchi ko‘p sozandalardan tuziladi.
2. Dirijyor – orkestrga rahbarlik qiladi
3. Ansambl – turli cholg‘ularda chaluvchi sozandalardan tuziladi
4. Solist – yakkaxon sozanda yoki yakkaxon xonanda bo‘lishi mumkin.

Musiqa mashg‘ulotlarining tarbiyaviy vazifa va maqsadlari	Musiqa mashg‘ulotlarining ta’limiy vazifa va maqsadlari
Bolalarda harakat uyg‘unligini oshirish, ritmga mos qadam tashlash, yengil yugurish, oyoq to‘pillatish va qo‘llar bilan mashqlar bajarishga o‘rgatish.	Bolalarning musiqiy-ritmik ko‘nikmalarini rivojlantirish.
Asarni mazmuniga ko‘ra qismlarga ajrata olish hamda harakatda ifodalash malakalarini oshirish.	Musiqa ohangini his etish va musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish.
Quvnoq va g‘amgin musiqa ohanglarini farqlashga, ketma-ket tovushlarni kuylashga o‘rgatish.	Bolalarda musiqani his etish, kuylash va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirish.
Davr bilan hamohang, faslga mos qo‘shiqlarni kuylashga o‘rgatish.	Musiqa jo‘rligida ovozning sof va jarangdorligini rivojlantirish.
O‘zbek xalq raqs elementlarini musiqa jo‘rligida o‘rgatish va ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash.	Raqs san’atiga bo‘lgan qiziqishni oshirish.
Bolalarni milliy cholg‘u asboblari bilan tanishtirish. Zarbli va torli asboblarda ijroga o‘rgatish.	O‘zbek milliy cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.

O‘yin davomida harakat ijodkorligini oshirish.	Bolalar faolligi hamda jamoaviylikini oshirish.

Bu mashg‘ulotlar o‘quv mazmunidan kelib chiqib, dastur asosida tuzilishi lozim. Bunda musiqiy asarlarning badiiy mazmuni, bolalar yoshiga mosligi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanilganligi hisobga olinadi.

### **Ketma-ketlik usuli**



## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish to'g'risidagi sharq allomalarining fikrlari?
2. Bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan metodlari haqida so'z yuriting?
4. Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish necha bosqichdan iborat. ?
5. Musiqa tarbiyasining maqsadi nimalardan iborat.?

## **1.2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o’quv dasturining mazmun -mohiyati**

### **⇒ Umumiy qoidalar**

Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi (quyida: «MTM davlat o'quv dasturi») O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim muassasalarida qo'llash uchun majburiy:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalari;
- maktabgacha guruhlarga ega bo'lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

### **---- MTMda davlat o’quv dasturini qo’llash**

Davlat o'quv dasturi variativ o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. Ta'lim muassasalari Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ o'quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega.

Ta'lim muassasasi Davlat o'quv dasturi asosida o'zining MTM ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta'lim muassasasining ishchi o'quv dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi<sup>1</sup>.

### **--- MTMning maqsad va vazifalari**

MTMning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

### **MTM ta'lim jarayonini**

#### **ng maqsad va tamoyillari**

##### **--- MTM ta'lim jarayonining maqsadlari**

O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.

##### **--- MTMda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari**

MTM ta'lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyat va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohalarining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;

---

<sup>1</sup> Дастурга 1-илова

- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari javobgar bo'ladi.

### **--- Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish**

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bolalar va aholi ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari fakultativ hisoblanadi va ularni tashkil qilishda ko'ngillilar (volontyorlar), ota-onalar va homiylar ishtirok etishi mumkin.

### **--- Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati**

Maktabgacha ta'lim muassasasida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari javobgar bo'ladi.

Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati, tor ixtisosdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola (uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy faoliyatning individual rejasini tuzadi.

### **--- Ota-onalar bilan hamkorlik**

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

## **Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

**Kompetensiya** bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **---- Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari**

**Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

--- **O'yin kompetensiyasi** – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

--- **Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

--- **Bilish kompetensiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

### **--- Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari**

--- **Bolaning kompetensiyalari** bola rivojining quyidagi sohaslarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

### **--- «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari**

«Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiyena malakalarini qo'llaydi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

### **--- «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari**

«Ijtimoiy-emosional rivojlanish» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

### **--- «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari**

«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;

- o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

### --- «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqyealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqyea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi.

### --- «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari

«Ijodkorlik» sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;

- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

## ⇒ O'quv-tarbiyaviy faoliyat

O'quv-tarbiyaviy faoliyat «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari» asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'quv va tarbiyaviy faoliyatni o'quv yillari bo'yicha tashkil qiladi.

O'quv yili 2 sentyabrda boshlanadi va 31 maygacha davom etadi.

1 iyundan 31 avgustgacha MTMda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi.

### --- O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish

O'quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi o'quv rejasiga muvofiq olib boriladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi<sup>3</sup>.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integrasiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

- yillik mavzuviy;
- haftalik.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari ifodalanadi. Faoliyat turini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy faoliyatning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integrasiyalash ham hisobga olinadi.

Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda

---

<sup>2</sup> Дастурга 2-илова

<sup>3</sup> Дастурга 3-илова

yordam berishi lozim. Shuni yodda tutish joizki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

### **Yillik mavzuviy reja.**

Yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuviy rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuviy reja maktabgacha ta'lim muassasasining Pedagogika kengashida tasdiqlanadi<sup>4</sup>.

### **Haftalik reja**

Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi<sup>5</sup>. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat kichik guruhda, katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak. Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bog'ga borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, bu tadbirni xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar konspekti.

Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- titul varag'i;
- guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;

---

<sup>4</sup> Дастурга 3-илова

<sup>5</sup> Дастурга 4-илова

- ertalabki badantarbiya kompleksi;
- guruhda sentyabrdan avgustgacha bo'lgan ta'lim jarayonini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;
- haftalik ish tahlili;
- ilovalar.

Mashg'ulotlar konspektlarida maqsadlar, faoliyatning qisqacha ta'rifi, zaruriy jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy xarakterga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o'zgartirilishi mumkin.

### ⇒ Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi. Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o'zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta'lim faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi. Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalar rivojlanishiga oid Davlat talablarida aks ettirilgan sohalari va soha ostilari hamda kutilayotgan natijalar olingan (malaka va ko'nikmalar).

**Bolaning rivojlanish xaritasi** 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, har bir bola uchun individual tarzda yiliga uch marta to'ldiriladi<sup>6</sup>. Maktabgacha ta'lim muassasasidan chiqishda 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi (faqat maktabgacha muassasa bitiruvchilari uchun<sup>6</sup>). Maktabga tayyorlik deganda bolada umumiy kompetensiyalarni va rivojlanish sohalari kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi. Bu xarita maktabgacha ta'lim muassasasining har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda Davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta

<sup>6</sup>Дастурга 6-илова

<sup>7</sup>Дастурга 7-илова

sohasi (bola kompetensiyalari) bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi.

Tarbiyachiga u yoki bu natija qanday darajada aks etayotganini belgilash taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) umumlashtiriladi va tavsiya hamda takliflar ko'rinishida ota-onalarga e'tiboriga havola etiladi.



### Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Rivojlantiruvchi muhit mazmuni:**

maktabgacha ta'lim muassasasining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;

muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. MTMning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. MTM ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari ?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv
4. MTM O'quv-tarbiyaviy faoliyat mazmuni?
5. MTMlarda Rivojlantiruvchi muhitni qanday tashkil qilinadi?

### **1.3. Musiqa mashg'ulotini o'tkazish metodikasi, zamonaviy konsepsiyalari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi. Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohang-raboli olam hisoblanib, juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Bolaning rivojlanishi, ruhiyati va ta'lim-tarbiyasidagi o'ziga xos davrlar, davrlarga monand o'zgarishlar, muammolar haqida hikoya qiladigan ushbu dastur nafaqat tarbiyachilar, balki oilalar va ota-onalar uchun eng yaqin maslahatchi va sirdosh bo'la oladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 11-moddasida: «Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi»,- deb ta'kidlangan. Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, mas'ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilinishining afzalligini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida "Ilk qadam" tayanch dasturi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi hamda Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida ishlab chiqildi.

Dastur mazmun-mohiyati bilan bolalarning psixofiziologik kamol topish tamoyilidan kelib chiqib, ularning atrof-olamdagi voqea-hodisa, narsalarga munosabati hamda turli sohalar bilan aloqa qilishlarini nazarda tutadi. Dasturda o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq o'yinlari, musiqasi, raqslari, amaliy san'at asarlari va tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Shu bilan birga dasturda boshqa xalqlarga hurmat hissini tarbiyalash nazarda tutilgan va bolalarni mehribonlik, go'zallik xayri-xohlikka o'rgatishga alohida urg'u beriladi. Dasturni amalga oshirishda bolalarning jismoniy va psixik sog'lig'ini mustahkamlash, harakat va gigiyenik malakalari asoslarini shakllantirish vazifasini bajarish muhim hisoblanadi. Dastur bolalarga valeologik ta'lim berishni nazarda tutadi: bolada sog'lom turmush tarzi haqida tasavvurlar shakllangan bo'lishi,

gigiyenik va harakat madaniyatining muhimligini anglashi, salomatlikni asrash, organizmni himoya qilish, o'zi va o'zgalarga vaqtda zarur yordam ko'rsatishni bilish kabilar bolaning shaxs madaniyati, ijtimoiy himoyalanganini bildiradi.

#### ---- Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi.

Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi va maktabgacha ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat talablari. Maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar. Musiqa mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi fanidan ta'lim mazmunining minimal hajmi. Tarbiyalanuvchilarning musiqa mashg'ulotlarida egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalari. Musiqa mashg'ulotlari ta'limi dasturi mazmuni, mohiyati va tahlili. Mashg'ulotlar tahlili. «Ilk qadam» maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan dastur – davlat hujjati bo'lib, musiqa rahbarini ta'limiy tarbiyaviy ishi, bolalarni barkamol tarbiyalab maktab ta'limiga tayyorlashini nazarda tutadi. Musiqa mashg'ulotlarini rejalashtirar ekan, pedagog bolalarning aqliy, jismoniy, emosional yuklamalarini hisobga olishi kerak va shunga ko'ra o'rgatiladigan repertuar va faoliyat turlarini ketma – ketligini to'g'ri tuzishi kerak.

Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg'ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko'rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur. Mashg'ulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- mashg'ulot bayoni, yangi qo'shiq, raqs xarakatlari, foydalaniladigan cholg'u asboblari uchun tayyorlangan ko'rgazmalar;
- qismlarni bir-biriga uzviy bog'lay olish;
- bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda sodda va past ohangda muloqatda bo'lish;
- texnika vositalaridan foydalana olish;
- musiqiy ta'limiy va didaktik o'yinlar yordamida bolalar bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borish;
- musiqaviy xarakatli o'yinlarni atributlar va o'yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.

Mashg'ulotni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- Musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;

➤ Ovoz diapozonini kengaytirish mashqlarida musiqali zinacha ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallardan foydalanish;

➤ Qo'shiq kuylaganda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;

➤ Laparlar va raqslarni ijro etganda atributlar(gullar, lentalar, v.b.) foydalanish;

➤ Bolalarni ijodiy kobiliyatini rivojlantirishda musiqali xarakterli va obrazli o'yinlarni o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakter qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rin egallaydi.

#### ----- **Nutqiy nuqsoni bor bolalar bilan ishlash metodikasi**

Ma'lumki, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda, ularning nutqlarini tiklashda musiqa mashg'ulotlari katta o'rin tutadi. Bunday gurux bolalari bilan musiqa rahbari logoped musiqa rahbari bilan hamkorlikda ishlasa o'z maqsadiga yetadi.

Nutqida nuqsoni bor bolalarning nutqini tiklashda musiqa rahbarlari ko'proq logoritmikaga e'tibor qilishlari ko'zda tutiladi. Bunda:

➤ to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish;

➤ ovozni rivojlantirish ustida ishlash;

➤ temp va ritm ustida ishlash;

➤ eshitish va xotirani rivojlantirish;

➤ umumiy va maxsus motorikani rivojlantirish;

➤ so'zlarni xarakterlar bilan to'g'ri ishlay olish;

➤ intonasiya va shu registrlar ustida ishlash;

➤ o'yinlar.

Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar yorqin va quvnoq ranglarni xush ko'radilar, ularda bu orqali quvnoqlik hissiyotlari rivojlanib boradi.

O'quv materiali murakkabligiga ko'ra xilma – xildir: ko'proq aqliy faoliyatni, diqqatni talab qiladigan vazifalarni mashg'ulotlar boshida berish kerak. Kuylashdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni berish mumkin emas, chunki bunday mashqlar bolalarni nafas olishlarini qiyinlashtiradi. Amaliyotga ko'ra faoliyat turlarini quyidagicha berish maqsadga muvofiq.





Mashg'ulot boshida kichik musiqiy – ritmik mashqlar, ular birorta raqs elementlari ham bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar bola diqqatini jamlaydi.

Ritmik mashqlardan so'ng bolalar o'tiradilar va musiqa tinglaydilar. Keyin esa qo'shiq kuylashga o'tadilar. Bolalar bir mashq davomida 2 – 3 ta qo'shiq kuylashadi. Masalan, marsh, raqs, qo'shiq jarayonida musiqa savodidan xabardor bo'ladilar. Bunday mashg'ulotlar **mavzuli mashg'ulotlar** deyiladi.

Yana biri bu **kompleks mashg'ulotlardir**. Bunda bolalar bilan faqat musiqa emas, balki, adabiyot va tasviriy san'at bilan shug'ullanadilar. Bunday mashg'ulotlar asosida uchta san'atni birlashtiruvchi badiiy obraz yotadi. Masalan, «Qish zavqi», «Kuz keldi», «Bahor».

Musiqa mashg'ulotlari – har bir bolaning musiqiy qobiliyatini maqsadga muvofiq va har tomonlama ta'lim – tarbiya beruvchi mashg'ulotlardir. Ularda har xil faoliyat turlari: kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi bilan tanishtirish kabi faoliyatlarni uzviy bog'lab olib boradilar. Musiqa faoliyatini bajarish bolalarni faolroq bo'lishlariga asos bo'ladi. Tashkil etiladigan bayramlar ham qiziq va muvaffaqiyatliroq o'tadi.

Musiqa mashg'ulotlari butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Uning mazmuni va tuzilishi bolalar yoshi va beriladigan vazifalarga bog'liq.

-  **Kichik guruhida 15 – 20 daqiqa olib boriladi.**
-  **O'rta guruhida 20 – 25 daqiqa olib boriladi.**
-  **Katta guruhda 25 – 30 daqiqa olib boriladi.**
-  **Tayyorlov guruhida 30 – 35 daqiqa olib boriladi.**

Musiqa mashg'ulotlar haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Unda guruhning barcha bolalari ishtirok etadi. Musiqa mashg'ulotlari – musiqa tinglash, qo'shiq o'rgatish, musiqiy – ritmik harakatlar bajarish, raqsga tushish, musiqiy – didaktik o'yinlar, bolalar cholg'u asboblarida chalishga o'rgatish va musiqaga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Har bir mashg'ulotdan mashg'ulotga sayin bolalarga musiqaviy ta'lim-tarbiya berishning qaysidir vazifasi hal etib boriladi. Musiqa rahbari ushbu ishda rahbarlik qiladi, to'g'ri yo'l ko'rsatib, maslahat va tavsiyalarini berib boradi.

Bolalarni bilim va malakalariga qo'yiladigan talablar har bir guruh uchun faoliyat turiga qarab tuziladi.

Bunday mashg'ulotlarning qiyinligi shundaki, bolalarning diqqatini bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu ketma – ketlikni reja asosida amalga oshirish

murakkabdir. Chunki bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olsak, ular bugun o'rgangan asarlarini keyingi safar unutishlari mumkin.

Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa rahbarining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat.

#### **---- Bolalar repertuarini tanlashda qo'yiladigan zamonaviy talablar**

Mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqa merosini bolalarni idrok etish qobiliyati darajasida bosqichma – bosqich tadbiiq etish nazarda tutiladi.

Ertalabki badan tarbiya, turli shakldagi mashg'ulotlar, mehnat, sayr, nafosat soatlari, o'yin kulgi, bayramlarga oid asarlarni aniq rejalashtirib, o'z o'rnida va me'yorida qo'llash «Milliy tafakkur» muammosining yechimiga erishishda muhim omil bo'ladi.

Avalam bor musiqa repertuarlari bolajonlarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatini e'ozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm – shafqat kabi xislatlar musiqaviy obrazlar orqali idrok etilishga qaratilgan. Bunda Respublika miqyosidagi ijodkor tarbiyachilarning ilg'or tajribalari natijasi, yangicha ishlash metodikasiga asoslangan musiqiy repertuarlari bolalarning yoshiga mos bo'lgan (bilim va malakalar darajasi, musiqaga munosabati, qiziqishi, qobiliyati, sog'lig'i, kayfiyati, boghadagi muhit va boshqalar)holatlarni musiqiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda besh qismga bo'linadi. o'quv materiallari choraklarga taqsimlangan bo'lib, bolalarning mehr faoliyat turlariga muofiq tanlanishi dastlabki bilim va ko'nikmalarni egallashda, ta'lim maqsadlarni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotning tuzilishi o'quv materialllarining mazmunidan kelib chiqish lozim. Bunda asarning tarbiyaviy ahamiyati, ularning badiiy g'oyaviy saviyasi, bolalar yoshiga mosligi, asar mavzusining xilma – xilligi hisobga olinadi.

Ma'lumki, musiqiy faoliyat musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqiy ritmik harakat, bolalar cholg'u asboblarida chalishni o'rganish kabi turlarga bo'linadi. Har bir faoliyat turi bolaning musiqiy didini rivojlantirishga yordam berib, ma'lum malakani shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasi musiqa rahbari tomonidan olib boriladi. Uning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni yoshligidan boshlab ularning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib borish, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unlariga tabiat, jamiyat,

mahalla, ota-ona, ta'lim muassasasi va umuman olganda hayotda o'z o'rnini topishida ilk musiqiy tushunchalarni berishdan iboratdi. Musiqa tarbiyachisi musiqa mashg'ulotlari asosida bolalarga ta'lim va tarbiya berish borasida oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun eng avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish uchun harakat qilishi lozim.

Mutaxassislar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining musiqiy uquv va qobiliyatlarini quyidagi faoliyat turlarida ajratgan holda tasnif etadilar. Jumladan, tarbiyalanuvchilarning musiqiy tovushlarni baland-pastligini his etish qobiliyati;

- musiqiy tovushlar rangini bir-biridan farqlanishini bilish;
- bolalarni musiqaga mos harakat bajarishlarini xis etishlariga o'rgatish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlash, his etish va ifodalash;
- musiqa tinglash qobiliyatini o'stirish;
- jamoa bo'lib kuylash;
- aytim so'zlarini ma'no va mazmunini o'rganish uchun ularni mushohada qilish qobiliyatini o'stirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishning yana bir o'ziga xos shakli sifatida mashg'ulotlarda musiqiy faoliyaning barcha shakllarini musiqa rahari tomonidan ishlatish talab etiladi. Garcha, tarbiyalanuvchida musiqa mashg'ulotiga nisbatan qiziqish orsin. Shuningdek, musiqa rahbari tomonidan amalga oshirilgan ishlar musiqa mashg'uloti jarayonida rivojlanib borsin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Birinchi, tarbiyalanuvchilarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borasida o'quv dasturda repertuar tanlashda ularning yoshiga xos jihatlarni e'tiboga olish;

Ikkinchi, tarbiyalanuvchilarni musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida ularda musiqiy ohangga bo'lgan his-tuyg'ularni hosil qilish yo'li bilan Ona-Vatan, xalq, millatga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalash, shu orqali ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;

Uchinchi, bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblarda jo'r bo'lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;

To'rtinchidan, bolalar ovozi asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish hamda unga odatlantirish;

Beshinchidan, tarbiyalanuvchilarni musiqiy asarlardan zavq olishlari, shu asosda ularning musiqiy did va badiiy fikr yuritishlarini rivojlantirish;

Oltinchidan, musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs ifoda etishga o'rgatish;

Yettinchidan, musiqa mashg'ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlar jo'rligida milliy ohang-kuy va musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;

Sakkizinchi, musiqa mashg'ulotlari mazmunini maktabgacha ta'lim muassasasi, Vatan, shahar, mahalla, tabiat, jamiyat hayoti bilan bog'lash, ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish. Turli ertaliklar, konsertlar tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalari musiqa mashg'ulotlarida bola hayotini, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etish uchun repertuar tanlash lozim bo'ladi. Olib boriladigan musiqiy tarbiya ishlarini badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshirish, musiqiy tarbiyaning ilg'or tajriba va turli metodlaridan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotini bolalarga badiiy-estetik zavq uyg'otishini, ularning his-tuyg'ularini shakllantirishda, ijodiy fikrlash qobiyati va nutqini o'stirishda xizmat qilishni ta'minlash lozim. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslardan ham foydalanish bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlikni shakllantirib, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu jarayon bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Anashu ishlar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'limni va tarbiyani ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarni bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi
2. Nutqiy nuqsoni bor bolalar bilan ishlash metodikasi
3. Tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yillik, kunlik, oylik va haftalik mashg'ulot rejasini ishlab chiqishda qo'yiladigan talablar

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash rangi
5. Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi

#### **1.4. Tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yillik (kunlik, oylik) mashg'ulot rejasini ishlab chiqishda qo'yiladigan talablar**

##### **--- Kichik yoshdagi asosiy ish reja - KICHIK YOSH (3 - 4 yosh)**

Musiqqa mashg'ulotlarning faoliyat turlari tavsifi. Musiqqa tinglash, xonandalik hamda cholg'u asboblarda ijrochilik mahoratini shakllantirish va tarbiyalanuvchilarni ushbu faoliyat turlariga qiziqtirish ko'nikmasini shakllantirish borasida tinglovchiga qo'yiladigan talablar. Kichik guruhlarda musiqiy faoliyat turlariga bo'lgan talablar. O'rta guruhlarda musiqiy faoliyat turlariga bo'lgan talablar. Katta guruhlarda musiqiy faoliyat turlariga bo'lgan talablar. Tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yillik (kunlik, oylik) mashg'ulot rejasini ishlab chiqishda qo'yiladigan talablar

Maktabgacha ta'lim muassasasida olib boriladigan musiqqa mashg'ulotlarining namunaviy rejasini.

##### **Reja tuzilishi**

1. 07-01 Haftalik mashg'ulotlar jadvali
2. 07-02 Ish rejasini
3. 07-03 Bayram ertaliklari ssenariysi
4. 07-04 Ko'ngil ochish soatlar rejasini
5. 07-05 Tarbiyachi bilan hamkorlikdagi ishlar rejasini
6. 07-06 Bolalar bilan individual ishlar rejasini
7. 07-07 Malaka oshirish kursidan keyingi faoliyati yuzasidan musiqqa rahbarining 3 yilga mo'ljallangan istiqbol rejasini va uning bajarilishi haqida

**Musiqqa tinglash:** Bolalarda kichik musiqiy asarni tinglash ko'nikmasini pado qilish. Marsh, qo'shiq va raqs janrlari haqida ilk tasavvur paydo qilish va ularni farqlash. Musiqani mazmunan tushunishga o'rgatish:

**Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish:** To'p bo'lib yengil yurish va yugurishdan sekin-asta har tarafga, to'g'riga, erkin-sochma, doira bo'ylab yengil yurish va yugurishga o'rgatish. Bolalarni 3-4 sodda va oddiy harakatlardan iborat raqslarni to'p bo'lib raqs tushishdan juftlikda, sochma tarzda, shundan so'ng doiradagi raqsar ijro etishga o'rgatish. Raqs harakatlaridan «Koptokni yuqoriga ot», «arqonni tort», «tokcha», «ko'zguna qara», «xo'rozcha», «maysani sila» bilan tanishtirish va ularni musiqaga mos bajarish.

**Kuylash:** Cholg'u asbobi va kattalarga jo'r bo'lib kuylash. Tabiiy ovozda zo'riqmasdan kuylash malakalarini shakllantirish. Kuylash vaqtida to'g'ri nafas olishga, avval «gulni hidlab», so'ng kuylay boshlashga, o'tirgan yoki turgan holatda to'g'ri kuylashga o'rgatish. Qo'shiq mazmunini tushunib kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajarishga o'rgatish.

**Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish:** Bolalar cholg'ulari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, karnay, surnay, nog'ora bilan tanishtirish. Metallofon, uchburchak, bolg'achada chalish usullarini o'rgatish. Ularni tovushidan farqlay olish. Qo'shiq, raqs va o'yinlarda cholg'ularni jo'r qilish.

**O'yin:** Musiqiy faoliyatlarda olingan bilimlarni o'yinlarda namoyon bo'lishiga erishish. Doira jo'rligida «Chumchuqlar va mushuk», «Ayiqchalar raqsi», xalq o'yinlaridan «Chori-chambar», «Chapak chalish», «Qaldirg'och» kabilarni o'ynash. Bolalarga tushunarli, qiziqarli bo'lgan voqyeaband o'yinlarni tashkil qilish. O'yinda musiqaga mos harakatlanish, nutq, tasavvur va tafakkurni rivojlantirish, bolalar cholg'ulari, o'yinchoq va qo'g'irchoqlardan foydalanish.



Bolalarning mashg'ulotlardan olgan bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida «Kuyini top», «Do'stingni ovozidan tanib ol», «Xaltachada nima bor», «Qaysi cholg'u yashiringan», «Qush va qushchalar», «O'rmonda» kabi musiqaviy-didaktik o'yinlarni mashg'ulot vaqtida va mustaqil faoliyatlari davomida gurux xonalaridagi musiqa burchaklarida tashkil etish.

4 yoshli bolaning egallash lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalar

-Turli hil mazmun va kayfiyatdagi musiqani tinglash, eslab qolish;

-Tinglangan kuylarni tanib olish va ularning bastakori nomini bilish.

-Kuy, qo'shiq va raqs haqida tushunchaga ega bo'lish.

-Karnay, surnay, nay, nog'ora, doira kabi xalq cholg'u asboblarini tanish va ovozidan farqlash.

-Qo'ng'iroqcha, shiqildoqlar, doiracha, buben, metallofon, sunaycha, bolg'acha, uchburchak kabi bolalar cholg'ularida chalish usullarini bilish;

-Birgalikda kuylay olish;

-Qo'shiq kuylash bilan bir vaqtda harakatlar bajara olish.

-Harakatli o'yinlarda faol ishtirok etish.

-Turli predmetlar bilan harakatlar bajarishni uddalash

--- **O'rta yoshdagi asosiy ish reja - O'RTA YOSH (4-5 yosh)**

**Musiqaning tinglash:** Bolalarning musiqaning tinglashga bo'lgan ishtiyoqlarini qo'llab quvatlash va rivojlantirish. Tinglangan asarining mazmuni va harakterini ajrata olish, bu haqida suhbat qurish va o'z ta'surotlari bilan o'rtoqlashishga o'rgatish. Kuy tovush va ohanglardan tuzilishi haqida tasavurga ega bo'lish. Bolalarni musiqiy asarning 2 va 3 qismli shakli bilan tanishtirish, qismlar o'zgarishini farqlashga o'rgatish, fortepiano, g'ijjak, chang, qonun kabi cholg'ular bilan tanishtirish, ular ijrosidagi kuylardan bahramand qilish.

**Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish:** Musiqaning asarlarining qismlar o'zgarishiga mos harakatlarni o'zgartirish, marsh, qo'shiq, raqs kuylariga mos harakatlarni mustaqil bajarish, boshlovchining ketidan musiqaga mos yurish, yugurish va sakrash. Raqs harakatlarni mustaqil ravishda aniq bajarish, qo'l harakatlarni erkin va mayin bajarishga o'rgatish. Gurux bo'lib, kichik guruxlarga bo'linib, yakka holda harakatlanishga o'rgatish, xonaning bir qismidan ikkinchi qismiga (markazdan burchakka, o'ngdan chapga va h.k.) o'tishda o'z harakatlarni boshqara olish, raqs harakatlarning nomlarini bilish va aniq bajarish.

4-5 harakatni ketma-ket, o'zaro bir biriga bog'lab hamda musiqaga moslab ijro eta olish. Raqslarda kayfiyatlarni bildiruvchi harakatlardan «yo'q», «arazlash», «yarashish» va h.k. ifoda etish, yuz, ko'z imo-ishorasining berilgan kayfiyatga mos bo'lishiga o'rgatish.

**Qo'shiq aytish:** Qo'shiqning so'zlarini aniq va dona-dona talaffuz etish, ijrochilik ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, gurux bilan birgalikda kuylash, ansambl bo'lib kuylash va yakka kuylash ko'nikmalarini hosil qilish. Kuylash vaqtida yelka, bosh va oyoqlarni to'g'ri tutish va to'g'ri nafas olishga o'rgatish. Bolalarning ovozlari shikast yetkazmay, sekin-asta rivojlantirish. Qo'shiq repertuarini bolalarning yoshiga mos turli mavzudagi qo'shiqlar bilan boyitib, ularning nutq va tafakur, tevarak atrof, bayram va sayllar, urf-odatlar haqidagi bilimlarini boyitib borish.

**Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish:** Metallofon, ksilofon, doiracha, uchburchak, yog'och qoshiqlar, likobchalar va turli yasama o'yinchoq-cholg'ularda chalishga hamda ularni ovozidan farqlashga o'rgatish. Nomusiqiy va musiqiy tovushlar haqida tushuncha berish va ularni farqlashga o'rgatish;

**O'yin:** Bolalarni chaqqonlik, ziyraklikka chorlash bilan bir vaqtda



musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatuvchi «Ro'molchani uzat», «Tulki va tovuqlar», «Quyondar va ayiq» o'yinlarini o'ynatish. Davra qo'shiqlarida mustaqil harakatlanishga o'rgatish.

Musiqiy-ta'limiy o'yinlardan «Qo'shig'imni davom ettir», «Ismingni kuylab ber», «Qaysi cholg'u

yashiringan», «Kuyini top» va h.k. o'tkazish.

5 yoshli bola bilishi lozim bo'lgan bilim ko'nikma va malakalar:

-bolalar cholg'ularida ijro etish usullarini bilish;

-bolalar cholg'ularini ovoz tembridan farqlay olish;

-bolalar cholg'ulari orkestrida ijro etish;

-o'z harakatlari musiqi tempiga moslay olish.

-xor bo'lib, ansamal va yakka kuylay olish;

-fortepiano, g'ijjak, chang, qonun cholg'u asboblari ko'rinishi va ovozidan farqlash, nomlarini bilish.

--- **Katta yoshdagi asosiy ish reja-** KATTA YOSH (5-6 yosh)

**Musiqi tinglash:** Bolalarda musiqi tinglashga ishtiyoqni qo'llab quvvatlash va rivojlantirishda davom etish. Musiqi asarining kayfiyati, harakterini mustaqil farqlash, ta'surotlari haqida hikoya qilishga o'rgatish. Vokal va cholg'u asarlaridan bahramand qilish va bu janrlar

haqida tushuncha hosil qilish, ularni farqlashga o'rgatish. Marsh, qo'shiq va raqs haqidagi bilimlarini kengaytirish. O'zbek xalq kuylari bilan tanishtirib borish. Doira va nog'ora sadolaridan bahramand qilish, qayroq, taxta qarsak bilan tanishtirish;

**Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish:** Musiqaning tempi, ritmi, harakteriga mos ifodali harakatlanish. Kuy qismlari almashishiga qarab harakatlarni o'zgartira olish.

Yengil, prujinasimon yurish, yugurish, sakrash, olding va orqaga, yonga qadam tashlash, oldinga hakkalash, raqs harakatlarini sifatli bajarishga o'rgatish. Musiqa ostida qatorlarga saflanish va mashqlar bajarish, qatorlardan doiraga shakliga o'tish, katta va kichik doiralar hosil qilish, bir nechta kichik doirachalarga bo'linishga o'rgatish. Bolalarga o'zbekcha raqslar bilan bir qatorda turli xalqlar raqslarini o'rgatish. Bolalarda raqsqa oid ijodkorlikka undash va uning namoyon bo'lishini rag'batlantirish va qo'llab quvvatlash.

**Qo'shiq kuylash:** Bolalarda ifodali, sof va tabiiy ovozda kuylashga o'rgatish. Bolalarning ovozining yosh hususiyatlarini hisobga olib repertuar tanlash. To'g'ri nafas olish va kuylash ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Kichik ansambl bo'lib kuylash, solist bilan kuylashga o'rgatish. Kuy ohangini to'g'ri ijro etilishiga erishish.

**Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish:** Doira, nog'ora, safoyl, quticha, taxta qarsak kabi cholg'ulari va ularda ijro etish usullari bilan tanishtirish, ovozidan farqlashga o'rgatish. Kattalarga jo'r bo'lib zarbli orkestr hosil qilish. Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni shakllantirish.

**O'yin:** Qo'shiqlarni sahnalashtirish, davra qo'shiqlarida so'z, musiqa va harakatlarning bir-biriga mos bo'lishiga erishish. O'yinlarda musiqa mashg'ulotining barcha bo'limlaridan olingan bilmimlarni mujassam holda namoyon etishga o'rgatish. Obrazli harkatlarni bajarishda bolalarni umumiylikdan mustaqil va yakka bajarish sari boshlash. Bolalarda obrazli tasavvur qilish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik kabi hususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

6 yoshli bola bilishi lozim bo'lgan bilimlar:

- Musiqa asarining shaklini mustaqil aniqlay olish.
- Tinglangan asarlarning nomi va ijodkorlarini bilish.
- Musiqa asarining mazmunini tushunish va kayfiyatini farqlash;
- Bir oktava oralig'ida notalarni bilish, tovushqatorini kuylash.
- Vokal va cholg'u musiqasini farqlash.

-Orkestr, simfoniya, opera va balet janrlari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish.

-Qo'shiq nomi va bastakorini bilish.

-Musiqaga mos mustaqil harakatlana olish.

-Kuy qismlari o'zgarishiga qarab harakatlarni o'zgartirish.

-cholg'u asboblari farqlay olish.

-Bolalar cholg'ularida ijro usullarini bilish.

-Mustaqil obrazli harakatlar o'ylab topa olish va bajara olish.

-Bayram ertaliklari va ko'ngil ochish soatlarida faol ishtirok etish.

### --- **Maktabga tayyorlov yoshdagi asosiy ish reja**

Maktabga tayyorlov davri (6- 7 yosh)

**Musiqaning tinglash:** Musiqaning asarining go'zalligini idrok etish, mazmunini tushunish, yorqin ifoda vositalarini farqlash, musiqaning 2-3 qismli shaklini mustaqil farqlay olishga, asarning kirish qismi, band va naqorat qismi, shuningdek xotimasini farqlashga o'rgatish. Musiqaning vositasida bolalarning ichki dunyosini boyitish, ularda estetik didni shakllantirish. O'zbek mumtoz va zamonaviy shuningdek, jahon mumtoz musiqasi namunalari bilan bolalarni bahramand qilish. Marsh, qo'shiq, raqs janridagi asarlarni mustaqil farqlash. Asarda berilgan obrazni musiqiy-intonasion rivojlanishini kuzata olishga o'rgatish. Dutor, rubob, qonun, tanbur kabi cholg'u asboblari ijrosida kuylarni tinglash va ovozidan farqlashga o'rgatish. Bolalarni jonli ijro bilan bir qatorda audio va video tasmlarga yozilgan kuy va qo'shiqlar, diafilm, she'riyat namunalari, badiiy so'zdan bahramand qilish. Bolalarning yoshiga mos va ularga tushunarli mazmundagi opera va balet asarlari, xalq cholg'ulari orkestri va ansambli ishtirokidagi konsertlar, san'at muzeylariga olib borish.

**Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish:** Raqs harakatlarini aniq va musiqaga mos bajarish. Raqslardagi bezak elementlari bilan tanishtirish va ularni bajarishga o'rgatish: yurish, yugurish, sakrash, oldinga va yonga hakkalash kabi harakatlarga oyoq to'pillatish, chapak chalish kabi bezak elementlarini qo'shib bajarishga o'rgatish. Musiqaning ostida qatorlarga saflanish, bir qator bo'lib yurish va yugurish, katta va kichik doira qurish kabi harakatlarni mustaqil bajarish. Davra qo'shiqlarining matniga mos harakatlarni musiqaga holda mustaqil bajarish va faol bo'lish.

**Qo'shiq kuylash:** Bolalar ovozini shikastlanishdan asrab rivojlantirish. To'g'ri nafas va to'g'ri kuylash malakalarini shakllantirish. Bolalarning yoshususiyatlari va ovoz diapazonlarini

hisobga olib repertuar tanlash, qo'shiq matni va ohangini asniq ifoda etish. Cholg'u asbobi jo'rlligisiz kuylay olish. Qo'shiqning band va naqorot qismlarini farqlay olishga o'rgatish. Bolalarda qo'shiq ijrochiligi, cholg'uchilik va aktyorlik qobiliyatlarini mujassam rivojlantirish.



**Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish:** Jamoa bo'lib ijro etish malakalarini irvojlantirish bilan birga ansambl bo'lib ijro etishga o'rgatish. Ijroni baravar boshlab, birgalikda yakunlash. Kuyni mustaqil ijro etish ko'nikmasini hosil qilish. Bolalarda cholg'uchilikka oid ijodkorlikni rivojlantirish.

**O'yin:** Musiqiy o'yinlarda kuylash, ansambl bo'lib va yakka kuylashni qamrab olish. Sahna nutqi, ya'niy ifodali va aniq talaffuz qilishni va sahna harakati erkinligini shakllantirish. Ushbu maqsadda ayrim ertaklarni sahnalashtirish, musiqalashtirishga e'tibor qaratish.

Harakatli o'yinlar orqali diqqat-e'tibor, chaqqonlik va ziyoraklik, harakatlarni musiqaga moslash kabi sifatlar bilan birga bolalarni jismoniy rivojlantirish. «Oq terakmi, ko'k terak», «Dor o'yin», «Boylandi» shular jumlasidandir.

Bolalarda musiqiy-ta'limiy o'yinlarga bo'lgan qiziqishni orttirish. Ushbu o'yinlarda bolalarning musiqiy bilimlarga o'rgatish, olingan bilimlarni mustahkamlash bilan birga o'yinlarda ziyoraklikni irvojlantiradigan vazifalarni qo'yish. Musiqiy-ta'limiy stol o'yinlaridan «Musiqali loto», «Kayfiyatlar», «Uzun, qisqa tayoqchalar», «/adir-budir notalar», «Notalarning uy chasi» kabilarni, og'zaki o'yinlardan «Dengizmi, irmoq», «O'rmonda», «Uch ayiq», «Barmoqlar», «Nechaga sanaymiz» o'yinlarini o'ynatish mumkin.

7 yoshli bola quyidagilarni bilishi kerak:

- kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay oladi.
- tovushlarning balandlik, tembr, cho'zimlilik hususiyatlarini eshitish orqali farqlaydi.
- ma'lum raqs harakatlarini egallaydi.

- jamo'a bo'lib va yakka raqsga tusha oladi.
- o'yin, raqs va mashqlarda mimik harakatlarni aks ettira oladi.
- o'zbek xalq cholg'u asboblari ko'rinishi va ovoz tembriga ko'ra farqladi.
- bolalar cholg'ulari ansambli va orkestrida ijro etish malakalarini egallaydi.
- tinglangan va kuylayotgan kuy va qo'shiqlarini mazmunini anglaydi va bayon etadi.
- to'rli musiqiy o'yinlarni mustaqil tashkil eta oladi.
- bayram ertaliklarida faol ishtirok etadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Musiqiy o'yinlarni o'tkazish metodikasi;
2. Bolalarda musiqiy-ta'limiy o'yinlarga bo'lgan qiziqishni orttirish metodikasi;
3. 7 yoshli bolalarni kuylash ko'nikmasi qanday talabga javob berishi lozim:
4. Kichik yoshdagi asosiy ish reja
5. O'rta yoshdagi asosiy ish reja
6. Katta yoshdagi asosiy ish reja
7. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish
8. Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish
9. Qo'shiqlarni sahnalashtirish
10. 6 yoshli bola bilishi lozim bo'lgan bilimlar:
11. Maktabga tayyorlov yoshdagi asosiy ish reja
12. Musiqa tinglash:
13. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish metodikasi
14. Bolalar ovozini shikastlanishdan asrab rivojlantirish;
15. Bolalar cholg'ularida chalishga o'rgatish;

### **1.5. Musiqa mashg'ulotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi**

#### **---Integrallashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim maqsadi va vazifasi.**

Shaxsga xos asosiy fazilatlar bolaning ilk yoshlaridan boshlab shakllanishini inobatga olgan holda hozirgi zamon maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni ma'nan boy va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik


texnologiyalarni izlab topish va amaliyotga tatbiq qilish borasida to'xtovsiz takomillashib borayotganligi bilan xarakterlanadi. E'tirof etilayotgan jihatlar pedagogning, ayniqsa bolalarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalashda o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan musiqa rahbarining faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Ishning natijaviyligini ta'minlash—bu har bir rahbar xodimning burchi va majburiyatidir». Bu so'zlarni maktabgacha ta'lim muassasalari barcha bosqich xodimlari faoliyatiga taalluqli ekanligini to'la asos bilan aytish mumkin.



Maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlashning muxim yo'nalishlaridan biri globallashtirilgan davr axborot oqimlarini faol o'zlashtirish sharoitida xilma-xil san'at turlari asosida bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda integrallashgan mashg'ulotlarni o'tkazish hisoblanadi. Amaliyot bolalarga berilayotgan ma'lumotlar har doim ham sifatli qabul qilinmayotganligini ko'rsatmoqda va o'z-o'zidan maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan innovasion metod va yondashuvlarni ishlab chiqishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori MTM o'qituvchi va tarbiyachilarini mazkur muammoni bartaraf etish, maktabgacha ta'lim sifatini ko'tarishda yanada faol bo'lishida huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.



Integralashgan musiqa mashg'ulotlarida fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar yaratadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, dunyo ta'lim-tarbiya amaliyotida integrallashgan mashg'ulotlarda fanlararo aloqalardan maqsadli foydalanish juda keng yoyilgan. Tabiiy tarzda har bir pedagog o'z xususiy metodikasini ishlab chiqish asnosida integrallashgan mashg'ulotlarga kichik bo'lsa ham qandaydir yangilik kiritishga harakat qiladi. Integrallashgan mashg'ulotlarda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va o'stirishda quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi:

Integrallashgan mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida bola ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim-tarbiyaning o'ta muhim va istiqbolli metodologik yo'nalishlaridan biri sanaladi. Integrallashgan mashg'ulotlarning bosh maqsadi rang-barang san'at turlari vositasida bola ongi va shu urida dunyoning go'zal va

betakror yaxlit obrazini shakllantirish bilan belgilanadi. Yuksak ijodiy natija beradigan integrallashgan musiqa mashg'ulotlarini o'tkazish ularni samarali qo'llash uchun quyidagi vositalardan maqsadli foydalanishni tashkil qila bilish talab qilinadi.







Turli yosh guruhlarida tashkil qilinadigan integrallashgan mashg'ulotlarda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat turlari bolalarning psixologik, yosh va fiziologik xususiyatlarini to'la mos bo'lishi inobatga

olinishi o'ta muhim. Masalan, kichik yoshdagi bolalar bilan o'tkazadigan integrallashgan mashg'ulotlarimda quyidagi faoliyat turlaridan kompleks tarzda qo'llashda:

- nutq o'stirish - ertak, she'r, qo'shiq
- jismoniy tarbiya-musiqiy – ritmik harakatlar, mashqlar

O'rta yoshdagi MTM guruhlarida e'tirof etilayotgan talablar musiqa ham teatrlashtirish hisobiga yanada boyitiladi:

- musiqa – ohang, ritm, uyg'unlik -garmoniya, dinamika, intonasiya
- teatrlashtirish -dramalashtirishning ifodali vositalari: harakatlar, jestlar, imo-ishoralar, ovoz, intonasiya, holatlar;

Katta yoshdagi MTM guruhlarida o'tkazadigan integrallashgan mashg'ulotlarimda e'tirof etilayotgan talablar musiqa, tasviriy san'at, nutq o'stirish, jismoniy tarbiya hamda teatrlashtirish vositalaridan foydalaniladi. Integrallashgan mashg'ulotlarni katta guruhlarda amalga oshirishda «Moychechak» metodini qo'llashni tavsiya qilaman. Bu metodni men bolalarni o'zbek milliy cholg'ularida ixro etishda individual tarzda talqin qilaman. Masalan, moychechak gulining har bir yaprog'i bilan biror o'zbek milliy cholg'usini belgilayman. Yaproqlardan birini tanlagan bola belgilangan xalq cholg'uning nomi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish bilan birga o'sha cholg'uda ijro mahoratini ham namoyish etishga, ya'ni uni chalishga harakat qiladi.

Tayyorlov guruhlarida sanab o'tilgan faoliyatlarning barchasidan to'laqonli foydalaniladi, masalan, «Flomasterlar» metodiga murojat qilamiz. MTMda bolalari musiqa eshitish asnosida qo'llaridagi flomasterlari bilan doska yoki daftarlarida musiqa xarakteriga mos tuyg'ularini ranglar vositasida ifodalashga harakat qiladilar. Bunda mayin va mahzun ohanglarni to'lqinli chiziqlar, o'ynoqi ritmlarni esa qisqa yoki uzun to'g'ri chiziqlar bilan chizishadi, shuningdek, jamoaviy tarzda musiqa xarakteriga mos ertak aytishlari, qo'shiq kuylashlari hamda turli jismoniy mashqlarni bajarishlari mumkin bo'ladi. «Flomasterlar» metodi bolalarning tassavur va obrazli tafakkurlarini rivojlantirishda katta samara beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi barcha yosh guruhlaridagi integrasilashgan mashg'ulotlar samarali hisoblanadi va yuqori natijalar beradi hamda bolalarning mahsuldor faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Ular yordamida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirish bilan bog'liq quyidagi vazifalar ijobiy yoki samarali hal etiladi:

1. Musiqani tushunish-anglash, ritmni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, atrofdagi hodisalar mohiyatini teran idrok etish, go'zal tasavvurlarni tuyishlarini ta'minlash orqali bolaning musiqaga bo'lgan qiziqishini o'stirish.

2. Emosional hozirjavoblik va harakatlar ifodaliligini o'stirish.

3. Bolalarga mos ijodiy faoliyat turlarida ularning ijodiy faolligini rivojlantirish: ijro orqali obrazlar xarakterini yaratib bera olish; o'zlashtirgan raqs harakatlarini ifodalay bilish, o'zi mutaqil tarzda yangi harakatlar uyg'unligini kashf etish, kichik hajmdagi qo'shiq yoki naqoratlarni improvizasiya qilish.

4. Mustaqilligini shakllantirish, tashabbuskorlik, kundalik hayotlarida o'zlashtirilgan ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash, kuy ijro etish, raqsga tushish, hisoblash va ijodiy tafakkur yuritish.

Integrallashgan jarayon shakllari pedagog, tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalar o'zaro yangi munosabatlari va vazifalarida aks etadigan yakuniy mahsulot bilan xarakterlanadi. MTMdagi bunday integrativ shakllar sifatida hamkorlikdagi ijodiy loyihalar, eksperimentlar, ekskursiyalar, syujetli-rolli o'yinlarni sanab o'tish joiz. Ularni amalga oshirish bir qator muammolarni hal qilish g'oyasini ilgari suradi:

- uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari ishtirok etishi mumkin bo'lgan hamkorlikdagi innovasion ijodiy loyihalarni ishlab chiqish;

- metodik qo'llanmalar va yo'riqnomalar majmuasini ishlab chiqish;

- yetakchi mutaxassislarning o'zaro tajriba almashishlarini tashkil qilish.

Musiq ta'limida tashkil etilgan integrallashgan mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularni samarali tashkil qilish esa ko'p jihatdan maktagacha ta'lim jarayonida ishtirok etadigan pedagog, musiq rahbarining bilimi, tajribasi, talanti, jonbozligi, tashabbuskorligi, qobiliyati va bolajonligiga bog'liq.

**---- Ta'lim maqsadiga mutanosib bo'lgan ta'lim mazmunining shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlovchi yo'nalishlarni kengaytirish.**

Ta'lim maqsadi va mazmunining bolalarni rivojlantiruvchi ahamiyat kasb etishi ularning yoshiga mosligi bilan belgilanishini hisobga olish asosiy vazifalardan biridir. Rivojlantiruvchi ta'lim har bir bolaning

imkoniyatini hisobga olgan holda o'qitish jarayoni bo'lib, unda o'quvchini har tomonlama rivojlantirish maqsad qilib qo'yiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim tizimida bilim, ko'nikma va malakalar bolaning rivojlanganlik darajasini belgilovchi natijalar bo'lib xisoblanadi. Ta'lim maqsadiga mos keladigan ta'lim mazmuni muayyan xalqning tarixiy, xayotiy tajribalari, ilmiy-ma'naviy merosi, fan-texnika yutuqlari, jamiyat hayoti, ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak.

**Jismoniy rivojlanish.** Musiqaviy ritmik faoliyat uchun jismoniy sifatlarni (kuch, chidam, iroda, muvozanatni ushlab va bosh.) rivojlantirish, bolalarning harakat faolligini oshirishda musiqaviy asarlardan foydalanish. Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini saqlash, musiqaviy tarbiya orqali sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish. Bola hayoti hafsizligini ta'minlash.

**Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.** Musiqa sohasida kattalar va bolalar bilan erkin muloqat qilish; do'stona yondashuv va o'zgaralar fikrini tinglashga o'rgatish.

**Nutq o'stirish va savodga tayyorgarlik.** Bolaning teatrlashgan faoliyatda og'zaki nutqning barcha komponentlarini rivojlantirish; nutq me'yorlarini to'liq egallashi, musiqiy asarlarni yod olishi va takrorlashi, kuylashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish.

**Atrof-muhitni anglash.** Musiqa madaniyati va musiqa sa'nati to'g'risida tasavvurlarini shakllantirish, o'yin faoliyatini rivojlantirish; vatanparvarlik, rostgo'ylik kabi his tuyg'ularini tarbiyalash. Musiqani sa'nat va ijodiyot sohasida yaxlit dunyo sifatida qabul qilishni shakllantirish.

**Badiy adabiyot bilan tanishtirish.** Bolalar ijodini rivojlantirish, turli sa'nat turlariga qiziqishini uyg'otish, "Musiqa" sohasining mazmunini badiy adabiyot asarlari yordamida boyitish, idrok etishni mustahkamlash.

**Mehnat.** Musiqaviy asarlar yordamida mehnat, kasblar, kattalar mehnati, bilan tanishtirish, mehnat qilish istagini shakllantirish. Mehnat faoliyati davomida kattalar vatengdoshlari bilan munosabat o'rnatish.

#### **---- Integrallashtirilgan mashg'ulotlarda musiqali didaktik o'yin psixologiyasi**

Musiqa psixologiyasi psixologiya yo'riqlariga asoslanarkan, bu tarmoq bolalarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi musiqa pedagogikasiga uzviy bog'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati,

musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqa psixologiyasida musiqiy zehn, musiqiy iste'dod, qobiliyatlarni aniqlash, asarlarni o'rganish va ular ustida ishlash, konsertlarda chiqish uchun tayyorgarlik ko'rish, bolalar va konsert jamoasi bilan o'zaro munosabatlar bolalar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi.

Shu bilan birga o'yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo'ladiki, buning oqibatida har bir bola o'zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi.

Ijtimoiy xayotda o'zi egallagan o'rinni barqarorlashtiradi. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishni ta'minlabgina qolmay, balki bolalarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarini ham tarbiyalashga yordam beradi.

Pedagog va psixolog olimlar D.N.Uznadze, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.A.Shmokov, G.K.Selevko, P.Ya.Galperin, I.Olloyorov, A.Verbiskiy va boshqalar o'yinlarga asoslanuvchi faoliyatning mohiyati, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, imkoniyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ayni vaqtda biz bu borada zarur nazariy va amaliy ma'lumotlarga egamiz. O'yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi.

1. Ta'limiy (didaktik) maqsad.
2. Tarbiyaviy maqsad
3. Faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad
4. Ijtimoiy maqsad



### **Musiqali didaktik o'yinlarning umumiy tasnifi**

Xulosa qilib aytganda musiqa psixologiyasi – psixologiyaning shunday sohasiki, bolalarning paypaslab sezish, musiqani musiqaviy eshitish qobiliyati eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad,

ritmikasini xis qilish, sozni taktil anglashi, yodda saqlashi, ijro etilishi va undan baxramand bo'lish kabi masalani qamrab oladi. Bolalarning musiqiy iste'dodi va zakovati o'zining cheksiz imkoniyatlari, mo'jizaviy tabiati bilan bizni xayratga soladi va maftun etadi.

### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Maktabgacha ta'lim muasssalari ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishni ta'minlashning muxim yo'nalishlari?

2. Integrallashgan musiqa mashg'ulotlarida fanlararo aloqalardan maqsadi?

3. Integrallashgan mashg'ulotlarda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va o'stirishda foydalanadigan vositalar?

4. Integrallashgan mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida bola ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan zamonaviy talablar?

5. Ta'lim mazmunini integrallashning mohiyati va maqsadi o'z ichiga qaysi jarayonlarni qamrab oladi?

6. Integrallashgan ta'lim mazmunida yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurmi?.

7. Pedagogning professional komponentlik darajasiga qanday talablar qo'yladi?

8. O'yinli texnologiyalardan foydalanishda psixologik xususiyatlari

9. Musiqali didaktik o'yinlarning umumiy tasnifi

10. O'yinlarni tashkil etishdan maqsadlar

### **1.6. Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish hamda hamkorlik**



### **faoliyatlarida yuzaga keladigan kasbiy muammolarni bartaraf etish strategiyalari**

Musiqa mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, musiqiy tarbiya ishlarni olib borishda ota-ona, psixolog, tarbiyachilar, jismoniy tarbiya yo'riqchisi va boshqa mutaxassislar bilan

hamkorlik. Tarbiyalanuvchilarda xonandalik va cholg'u ijrochiligi mahoratini egallashga bo'lgan qiziqish va ularni to'g'ri yo'naltirish borasidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish strategiyalari. Ovoz, ovoz apparatlari tuzilishi, barmoq bilan ishlash, xis etish, eshitish xissiyotlarini to'g'ri yo'naltirish, bu borada musiqa rahbari oldida turgan vazifalar.

Musiqa can'ati juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan va barcha xalqlarda insonning shaxsiy fazilatlari, ma'naviy olami, estetik didini shakllantirishning muhim va o'rnini biror narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan vosita sifatida tan olingan. Turli davrlarda yaratilgan musiqalar his-tuyg'u ifodalashi, hayotni aks ettirishi, inson hayolotini o'stirishi, mazmun diapazoni kengligi bilan tinglovchining hissiyot olamini boyitadi, uni ilohiy bir olamga olib kiradi.

San'at turlari insonga ta'sir etishning rang-barang o'ziga xos vositalariga ega, musiqa bolaga juda erta davrdan (go'daklikdan) ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Ma'lumki, homila davri bolaning keyingi rivoji uchun favqulodda muhim bo'lib, bo'lajak ona tinglagan musiqa go'dakning o'zini yaxshi his qilishiga ta'sir ko'rsata oladi, ehtimol, uning estetik didi, go'zallikni ilg'ay olish xislatlarini shakllantiradi. Shu bois oila bolaning asta-sekin musiqiy faoliyat (idrok, ijro, ijod) turlarini egallash jarayonida ularga tabiatan berilgan turli tabiiy iqtidorlarini rivojlantirish va yuzaga chiqarishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Insonning musiqa san'ati bilan jiddiy shug'ullanishi uchun maktabgacha yosh davri favqulodda muhim.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bola oilada musiqaga oid egallagan ayrim bilim, ko'nikma va malakalarni chuqurlashtirish, bolalar musiqa san'atiga oshno bo'lish imkoniga ega bo'ladi. MTMda musiqiy tarbiya jarayonida bu bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga asosiy maqsad sifatida qaramasdan, balki bolada musiqiy-estetik ong elementlarini shakllantirish orqali uning qiziqishlarini ehtiyoj darajasiga olib chiqishga ko'maklashishi lozim. Musiqiy-estetik faoliyat davomida musiqiy-estetik ong shakllangan bo'lsa, bu bolaning keyingi rivojida, uning umumiy ma'naviy kamolotida aks etmasdan qolmaydi.

Shuningdek, MTMda bola hislari, qiziqish va didini rivojlantirish bilan bilan bir qatorda uni musiqa madaniyatiga oshno qilish, estetik idrok, musiqiy va poetik eshitishni, tabiat, musiqiy va tasviriy san'at asarlari go'zalliklarini idrok qilish qobiliyatini rivojlantiradi, tasavvurni, hissiy reaksiyalarni faollashtiradi.

MTMda musiqiy tarbiya bilan shug'ullanganda bolaning umumiy rivojlanishini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu yoshdagi bolalar insonning real hayotda mavjud kechinmalari haqida u qadar ko'p tasavvurga ega emas, inson hissiyotlari va uning barcha qirralarini ifodalagan musiqa esa bu tasavvurlarning kengayishiga ko'maklashadi.

Musiqiy madaniyat asoslarini shakllantirish maktabgacha yosh davrida boshlanadi. Musiqiy bolaning umumiy rivojlanishida muhim omil sanaladi: emosional muhit shakllanadi, tafakkur rivojlanadi, bola san'at va hayotdagi go'zallikka nisbatan sezgir bo'ladi. Bolaning musiqiy rivojlanishida maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi va ota-onalar katta rol o'ynaydi, chunki MTMda kundalik hayoti va oilada bolaning musiqiy taassurotlarini boyitish, musiqiy faoliyatini turli shakllarda amalga oshirishning turli shakllari mavjud.

Oilalar turli darajadagi ijtimoiy madaniyatga ega. Ayrim oilalarda musiqaga hurmat bilan munosabatda bo'lib, bolalarga musiqiy ma'lumot berish, ularning qobiliyatini rivojlantirishga harakat qilinadi, boshqa oilalarda esa musiqiy tarbiyaga nisbatan e'tibor kam. Bu albatta ijtimoiy tabiiy hol.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlari kompleks va to'laqonli rivojlanishi uchun ota-onalarning yordami juda zarur. Oila – bolaning shaxsiy sifatlari poydevori qo'yiladigan birinchi ijtimoiy institut, aynan oilada bola boshqalar bilan umumiy, haqiqiy ijtimoiy hayot kechirish: quvonch va alamni baham ko'rish, yaqinlari bilan birdamlikni his qilishga o'rganadi. Ayni paytda oiladagi hissiyotlar sovuqligi bolaning psixologik rivojlanishi va ijodiy qobiliyatlari, ta'lim, muloqot samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazishini unutmazlik lozim. Shu sababli MTMda pedagoglari bolaning to'laqonli rivojlanishi uchun o'zaro hamkorlik va birgalikdagi ishni yo'lga qo'yishi lozim.

MTMga qatnaydigan bolalarda musiqiy tarbiyani rivojlantirish va mustahkamlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- boladan MTMda o'zlashtirgan qo'shiq, she'r va raqslarini takrorlashni so'rash;
- taassurotlarini suratlarda ifodalab berish;
  - oilada musiqa cholg'u asboblarini saqlash;
  - oilada bolaning iqtidori rivojlanishi uchun maqbul sharoit, ijodiy muhit yaratish;
  - ota-ona, buvi va buvasi bilan birga ijro qilishni tez-tez uyushtirib turish;

-texnik vositalari: radio, televideniye, audio-, videoyozuvlar, kompyuter, karaoke tinglash, tomosha qilish.

### 3.2. Bolaning umumiy rivojlanishi uchun oila va MTMda hamkorligida ota-onalar

Bolaning umumiy rivojlanishi uchun oila va MTMda hamkorligida ota-onalar (kattalar) bolalarning musiqiy asarlarni eshitishga qiziqishini qo'llab-quvvatlashi, bunda o'zlarida mavjud yozuvlar bilan bir qatorda MTM musiqa rahbari taqdim qilganlaridan samarali foydalanish, bundan tashqari, MTMda xodimlari ota-onalar uchun konsertlarga biletlar xarid qilishni tashqil etishi muhim ahamiyatga ega.



MTMda jamoasi musiqa va san'at maktabi mutaxassislari bilan yaqin hamkorlik qilishi, ular yordamida bevosita MTM ishtirokchilari ijrosida turli bayram tadbirlari badiiy qismlarini uyushtirishlari ham bolaning musiqiy takomilida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

MTMda va oila oldida turgan muhim vazifalardan biri musiqani badiiy (adabiy) asar, rangtasvir va teatr bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Bu maqsadda ota-onalar bilan bamaslahat bolalar teatrlari, bolalar musiqa dastalari ga tashriflar uyushtirish, bog'chada san'at asarlari ko'rgazmalarini tashkil qilish, bu boradagi dunyo tajribasi bilan tanishish o'ta muhim. Shuningdek, ota-onalari bilan birga bolalar kichik konsertlar, teatr postanovkalari, adabiy-musiqiy kompozisiyalarda ishtirok etishini tashkil qilish bolaning san'at bilan oshnoligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda ularning o'z bolalari bilan olgan musiqiy taassurotlari bo'yicha muloqotga o'rgatish juda muhim. Shu bois oiladamusiqiy faoliyatga nisbatan kichik bo'lsada ijobiy mikromuhit shakllanishi lozim. Bola o'zini kichik, ammo barcha boshlagan ijodiy ishlarida o'zining oilaning boshqa a'zolari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanishini har doim his qilishi lozim.

MTMda musiqa rahbarining bola musiqiy tarbiyasida amalga oshirayotgan ishlari maqsad va vazifalari ota-onalar uchun tushunarli bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, ota-onalar (oila) bilan MTM hamkorlik faoliyati o'zaro uyg'unlikda kechishi talab etiladi. Bu

hamkorlikdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad har bir bolada bo'lishi mumkin bo'lgan iqtidor va talantni o'z vaqtida ilg'ay olish va bunday bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsadli yo'naltirishdan iborat.

Bu borada quyidagi asosiy vazifalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganish va qonuniyatlarini aniqlash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlash;
- bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda MTM va oila hamkorligining nisbatan samarali shakllarini belshgilash;
- bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan MTM va oila hamkorligi xususiyatlarini o'rganish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ishlar samaradorligi MTM va oilaning:

- ota-onalar tomonidan faollik va tashabbus ko'rsatilishi;
- ota-onalar bilan musiqiy ma'rifatchilik sohasida doimiy va tizimli ish olib borish kabi shartlarni hisobga olgan holda tashkil qilingan o'zaro hamkorligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Xulosa sifatida aytish kerakki, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzi kun sayin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Kelajak yuksak intellektual salohiyat, bilim va tafakkurga ega bo'lgan yoshlarniki. millatnikidir". Farzandlarimizning musiqa sohasida yuksak cho'qqilarini egallashlarida, ularning yuqori intellektual zakovatga ega bo'lishlarida musiqa ta'limi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishishning asosiy vositalaridan biri oila va MTMning o'zaro hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishdan iboratdir.



**----- Bolalarning mustaqil musiqiy qobiliyatini rivojlanishiga oila va maktabgacha ta'lim muassasasining ta'siri**

Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib,

uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining ma'naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat kilmokda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

Shu boisdan musiqiy tarbiyani oila, maktabgacha ta'lim muasasalari hamda boshlang'ich sinfdan boshlab bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatlarini hisobga olgan holda tizimli tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil musiqiy faoliyat, bolalarning o'zlaricha hirgoyi qilishda, o'zlaricha mustaqil musiqa tinglashlarida, o'zlaricha cholg'u asboblarning biror turi bilan shug'ullanishida aktyorlar, xonandalar, qiziqchilar qiliqlari, ovozlariga taqlid qilishlarida ko'rinadi. Ular o'zlaricha turli o'zlariga yoqqan qo'shiqlarni hirgoyi qilib kuylaydilar, o'sha ashula ijrosining ohangiga, ovoziga va qiliqlariga o'xshatib harakat qilishga intiladilar. O'zlaricha radio, televizor yoki pleyerlarda turli musiqalarni tinglaydilar. Ba'zi bolalar cholg'u asboblari chalishga, agar cholg'u asboblari bo'lmay qolsa, shu cholg'u asbobini chalib ko'rsatishga intiladilar. O'zlari yoqtirgan aktyor yoki qiziqchilar so'zlari tahlidan harakatlar bajaradi va hakozi. Shunday holatlar mustaqil musiqiy faoliyat ko'rinishlari hisoblanadi.

Bolalar mustaqil faoliyatini qayerdan o'rganadilar. Bunday faoliyat manbalari qayerda mustaqil musiqiy faoliyat manbalarini uch toifaga bo'lish mumkin.

1. Maktabdan oladigan musiqiy manbalar.
2. Oiladan oladigan.
3. Maktab va oiladan tashqari oladigan musiqiy manbalar.

Maktab, MTMda mashg'ulot, musiqa to'garagi, musiqiy tadbirlar mustaqil musiqiy faoliyat manbalari hisoblanadi. Bolalar o'sha jarayonlarda eshitgan va ko'rganlariga taqlid qiladilar. Oilada radio eshitishi, televizor, video konsertlar ko'rishi mumkin. Maktab va oiladan tashqari bolalar ko'cha-kuyda, teatr, kinoteatr, ommaviy sayllar, bozor va boshqa joylarda, to'y va marosim bo'lishi va u jarayonda eshitgan va ko'rgan musiqiy chiqishlarga taqlid qilishi mumkin. Mustaqil musiqiy faoliyatning bolalar qiziqishlaridan paydo bo'lishiga e'tiborni qaratishimiz lozim. Demak bolalar musiqiy faoliyatning u yoki bu turiga qiziqar ekanlarki, shu ko'rgan va eshitgan musiqiy jarayonini

xotiralarida saqlab qolayaptilar. Biz pedagoglar bolalar mustaqil musiqiy faoliyatini qanday baholamog'imiz lozim.

Albatta mustaqil musiqiy faoliyatga ijobiy baho bermoq lozim. Zero bu faoliyat bolalarni imkon qadar mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Tasavvur qiling biror ishni o'zi fikrlab, bajara olmaydigan, qachon tepasida turib buyruq berib tursangiz biror ish qiladi aks holda o'zicha bir ish qilolmaydigan shaxslarning voyaga yetishganidan na ota-ona va na jamiyat manfaatdor. Jamiyatga o'zlaricha tashabbus ko'rsatuvchi yangiliklar yaratuvchi iftixorlar, kashfiyotlar qiluvchi sog'lom, harakatchan fuqarolar kerak. Shunday ekan mustaqil musiqiy faoliyat pedagogdan kuzatuvchanlikni, sezgirlikni talab qiladi. Zero pedagoglar mustaqil musiqiy faoliyatini ijobiy baholashi bunday faoliyat ko'rsatayotgan bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishib ularni turli yo'llar bilan rag'batlantirib boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi bolaning bunday foliyat turi bilan shug'ullanishdan manfaatdor ekanliklarini anglatishi kelajakda ulardan buyuk ijodkorlar va san'atning ko'zga ko'ringan namoyondalari chiqishi mumkinligiga ishonтира olishi lozimdir. Darhaqiqat, bola qanchalar musiqiy tushunchani mustaqil fikrlab, amalda bajarishga harakat qilsa, musiqiy qobiliyatining rivojlanishi ham shunchalar muvoffaqiyatli bo'ladi.

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatda: qo'shiq, ritmika, muzika tinglash va muzika asboblarini chalishda sodir bo'ladi. Bolalar o'zlarining musiqa eshitish tajribalari asosida o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdir. Shu bilan birga faoliyatining har bir turi umuman musiqa qobiliyatlarining o'sishiga, maxsus qobiliyatlarning shakllanishiga, masalan: ashula aytish, ashulachilik ovozi va kuy qobiliyatining tarkib topishiga yordam beradi.

Bularning barchasi turli tashkiliy shakllarda: mashg'ulotlarda, o'qishdan tashqari ishlarda (bolalar bog'chasi turmushida musiqa) va mustaqil faoliyatlarida bo'lib o'tadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1.MTMda musiqiy tarbiya bilan shug'ullanganda bolaning umumiy rivojlanishi

2.Texnik vositalari: radio, televideniye, audio-, videoyozuvlar, kompyuter, karaoke tinglash, tomosha qilish.

3.Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganish va qonuniyatlarini aniqlash;

4.Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlash;

5.Bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda MTM va oila hamkorligining nisbatan samarali shakllarini belgilash;

6.Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ishlar samaradorligi MTM va oilaning o'rni:

### **1.7.Musiqqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilish**

#### **--- Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning shart – sharoitlari.**

Musiqqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rejalashtirish, loyihalashtirish. Musiqqa mashg'ulotlarida bolalarni o'zlashtirish va rivojlanishini diagnostik tahlil qilish

Qobiliyat – ma'lumbir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning subyektiv sharti bo'lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.



Psixologiyaning ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron – bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbayi layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi,

uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.


Bola musiqqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda, kishiga ta'sir etadigan tashqi voqyealar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga

tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti – harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l – atvor – shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.

Bolalarning musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri – ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki, musiqiy qobiliyatlar – musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaqa emosional ta'sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi» – deb ta'kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkoni qobiliyatidir.

Shu o'rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo'lgan barcha insonlarning avlodlari ham musiqiy qobiliyatga ega bo'ladi, degan fikrga qo'shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaqa layoqat bo'lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy – axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doirasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Respublikamizdagi har bir maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda hozirgi kunda musiqiy estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Qobiliyat – ko'nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o'zlashtirish dinamikasidir. Qobiliyatlar – faoliyat davomida namoyon bo'ladigan imkoniyatdir. Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin. Faqat musiqaqina insonning musiqiy hislarini uyg'otadi.



Musiqiy ta'lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo'lmaydi. Chunki ular musiqiy bilimlarni o'zlashtirmaganlar.

Nazariya va amaliyotga asoslangan holda shuni aytish joizki, musiqiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish muammosi pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Bu qobiliyatlarni rivojlantirish ijtimoiy muhit, tabiatdan berilgan iste'dod, iqtidor, shaxsning iroda kuchi, faolligi, jismoniy va aqliy jarayonlarga ham bog'liqdir. Demak, bolalarda musiqiy qobiliyatlar erta namoyon bo'lishi, shuningdek ularning qobiliyatlari ta'lim – tarbiya va atrof – muhit ta'siri ostida shakllanishini hisobga olgan holda biz quyidagi xulosaga keldik. Uzluksiz ta'lim tizimidagi musiqa mashg'ulotlarida ijrochilik malakalarini rivojlantirishda musiqiy qobiliyatlar muhim omil bo'lib xizmat qilar ekan.

Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg'ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko'rgazmalardan unumli

foydalanishni bilishi zarur. Mashg'ulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- ◆ mashg'ulot bayoni, yangi qo'shiq, raqs xarakatlari, foydalaniladigan cholg'u asboblari uchun tayyorlangan ko'rgazmalar;
- ◆ qismlarni bir-biriga uzviy bog'lay olish;
- ◆ bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda sodda va past ohangda muloqatda bo'lish;
- ◆ texnika vositalaridan foydalana olish;
- ◆ topishmoqlar va boshqotirmalar yordamida bolalar bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borish;
- ◆ musiqaviy xarakatli o'yinlarni atributlar va o'yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.

- ◆ musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;
- ◆ ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko'rgazmali qurollardan, tarqatma rasmlardan foydalanish;
- ◆ qo'shiq aytishda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;
- ◆ laparlar va raqslarda atributlar (gullar, lentalar, bayroqchalar, koptoklar v.b) foydalanish;

Musiqali xarakatli va obrazli o'yinlarni o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rin egallaydi. Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

#### ----- **Musiqaviy – sensor qobiliyatlar**

Musiqa mashg'ulotlarida bolaning – sensor qobiliyatlar tovushning balandligi, tembri, kuchi – hissi, musiqaviy eshitish; ritm tushunchasi; mahsuldor faoliyatning qobiliyati; ijodiy ijro mahorati rivojlanadi.

#### **Ularni to'laroq ko'rib chiqamiz:**

1. Musiqaviylik musiqaviy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun kerak bo'ladigan sifat komplekslaridan tashkil topadi, uning barcha elementlari ularning struktura munosabatlarida ko'rinadi.

2. Barcha qobiliyatlar emosional va eshitish komponentlarining sintezligi bilan xarakterlanadi. Musiqaviy faoliyat barcha turlari emosional rang – baranglik bilan xarakterlanadi.

3. Emosional eshitish komponentlari bazasida birgalikda ikkita asosiy musiqaviy qobiliyat yotadi: qayg'urish qobiliyati, fikrlash,

tasavvur qilish va baland munosabatlarni eslash, qayg'urish qobiliyati farqni ajratish, musiqaviy ritmni tasavvur qilish va eslash. Bu ikki asosiy musiqaviy qobiliyat istalgan musiqaviy faoliyatni bajarish paytida doimo kerak bo'ladigan narsadir.

4. Musiqaviylik qobiliyatlar kompleksi kabi turli musiqaviy faoliyat jarayonida ko'rinadi. Masalan: musiqaviy idrok qilish sostaviga asosiy musiqaviy qobiliyat va boshqalar: ijro etish uchun vosita – instrument bilan, ovoz bilan – musiqa mazmuni kayfiyatini ifodalashga yordam berish, hayajonli jarayonlar, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash, texnik qobiliyatlar – qo'shiqchi intonasiyasining tozaligi, motor apparatning pastligi – kiradi. Ijodiy qobiliyatlar sostaviga ijro etuvchilikni xarakterlovchi komponentlar: ifodalilik, to'g'rilik, samimiylik komponentlari va unumli ijodning farqlanishi komponentlari kiradi.

Musiqaviylik musiqaviy qobiliyat kabi bolada boshdan juda primitiv (qo'pol) boshlanadi va turli musiqaviy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Bola rivojlanishning birinchi bosqichlarida unda barcha asosiy musiqaviy qobiliyatlar ko'rina boshlaydi va birining ikkinchisidan ustunligi faqat keyinroq ma'lum bo'ladi. Musiqaviy qobiliyatlarning ayrim bolalarda erta paydo bo'lishi ularni zehniga bog'liq deb ataladi. Lekin boshqalarda kechroq boshlanishi ularning orqada qolib ketishlaridan dalolat bermaydi.

<b>Musiqiy ta'lim</b>				
<b>Musiqiy mashg'ulotlar</b>				
<b>Qo'shiq kuylash</b>	<b>Musiqa tinglash</b>	<b>Musiqiy – ritmik harakatlar</b>	<b>Bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish</b>	<b>Musiqiy didaktik o'yinlar</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Musiqiy tafakkur</b></li> <li>• <b>Musiqiy dunyoqarash</b></li> <li>• <b>Musiqiy tasavvur</b></li> <li>• <b>Musiqiy qobiliyatlar</b></li> <li>• <b>Musiqiy his – tuyg'u</b></li> <li>• <b>Musiqiy idrok</b></li> </ul>				
<b>Musiqiy madaniyat</b>				

1. Qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiy bilimlarga asoslangan holda qo'shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

Musiqqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasavvur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari – ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqqa ijodkorlari, ijrochilari haqida bilimga ega bo'lish bilan birga, ularning musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

2. Musiqqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi, shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

3. Musiqqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zlari bevosita musiqiy asarga jo'r bo'ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radilar ( musiqiy idrok), bu esa musiqaning ritmik ko'rinishini eslab qolishni ( musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Tarbiyalanuvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlashni ( musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalar cholg'u asboblariida jo'r bo'lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan, musiqiy his – tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy

tasavvur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular bolalarning umumiy musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning shart – sharoitlari.
2. Mashg'ulotni rejalashtirish.
3. Musiqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rejalashtirish, loyihalashtirish
4. Qobiliyat – ko'nikma, malaka va bilim emas, balki ularni o'zlashtirish dinamikasi
5. Musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish
6. Ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko'rgazmali qurollardan, tarqatma test banklaridan va rasmlardan foydalanish;
7. Qo'shiq aytishda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;
8. Musiqaviylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini yaratish

### **1.8. Musiqa mashg'ulotlarida qo'shiq o'rgatish metodikasi, yangi ashulani o'rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa bo'lib ijro malakalarini o'stirish)**

Qo'shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Avvalambor tarbiyachi biror bir she'rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o'rganadi. Har bir tanlangan she'r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlar hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi. Qo'shiq bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi. Qo'shiq inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Biz qo'shiqni bolalarga o'rgatayotganda avval qo'shiq kuyini, keyin she'rini misrama-misra o'rgatamiz. Qo'shiq kuyini o'rgatganda to'rt xil musiqa asboblari orqali chalib yoki bo'lmasa, biror-bir jonivorning ovozlarini berib, o'rgatishimiz mumkin. She'rni esa bo'g'inlarga ajratib yoki chapaklar orqali yod oldiradi. Bolalar she'rlarni tezroq yod olishlari uchun she'r matnlarini

takror aytishimiz kerak. Agar bolaning xayoli bir joyda bo'lmasa, musiqa tovushlarini va she'rni tez yod olishlari murakkab bo'ladi. MTM yoshidagi bolalarning ongi, hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular kuyni sekin va uzoq muddatda yod olishadi. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o'rgatish zarur. Bolalar tarbiyasida qo'shiqning roli katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi turlaridan bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha modeli she'rdir. Qo'shiqlar kuy va ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biridir. Qo'shiqlar xalq turmushi va mehnatning ijodiy mahsuli bo'lib, unda xalqning orzu tilaklari qalb sadolari turli-tuman hayotiy tuyg'ulari ifodalangan. Qo'shiqlar o'quvchilarning nafosatini o'rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Qo'shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakllarda tuziladi. Masalan: bolalar bog'chalarida tarixiy qo'shiqlardan foydalansak bo'ladi. Yana o'zimizning milliy musiqalarimizni aytishni ham bolalarga o'rgatishimiz mumkin ekan. Masalan: «Chitti gul», «Boychechak», «Laylak keldi» va hokazolar. Bu musiqalar mavzu jihatdan mehnat, ishqiy, lirik qahramonlik qo'shiqlariga va shu kabi boshqa turlarga bo'lishimiz mumkin. Hayot tajribalariga asoslanmagan rang-barang qo'shiqlar orqali xalqning g'am-hasrat, dushmanga nisbatan ga'zab va nafrati kabi his-tuyg'ulari izhor etiladi. Qo'shiq bolani erkalatadi, o'yinga boshlaydi, uni his qilish qobiliyatini o'stiradi, fikrlashga o'rgatadi. Bola tug'ilgan kunidanoq onaning mehr to'la allasini tinglaydi. Bunda onaning bolaga bo'lgan samimiy chuqur muhabbati bilan birga, farzandning jamiyatga mos, yaxshi farzandlar egasi bo'lib tarbiyalanishini ta'sirli, ohangdor qo'shiq orqali ifodalaydi:

Alla, bolam, alla,  
Jonim bolam, alla.  
Ikki ko'zim, alla,  
Shirin so'zim, alla.  
Alla bolam, baxti bor,

Har narsaning vaqti bor.

Jonim bolam, alla,

Shirin so‘zim, alla.

Ikki ko‘zim, alla,

Jonim bolam, alla,

Allada yaxshi tarbiya ko‘rgan bola jamoa o‘rtasida, to‘y tomoshalarda, ota-onaning obro‘si uning shuhrati sifatida ta‘riflanadi. Alla bolani chaqaloqlik davridanoq ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi.

Har bir qo‘shiq pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutib tanlanadi. Qo‘shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiylikdan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. Unda har bir yangi qo‘shiq oldingisidan hosil etilgan vokal xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo‘shiq o‘quvchilar ruhiyatiga, badiiy-g‘oyaviy mazmuni, yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, tarbiyalanuvchilari yoshiga mos bo‘lishi kerak.

Qo‘shiqlarni quyidagi talablarga ko‘ra tanlash tavsiya etiladi:

-qo‘shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy g‘oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi;

-qo‘shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi bolalarning lug‘at boyligi va ularning nutqini o‘stirish uchun xizmat qilishi;

-qo‘shiq ohangi, uning xakteri, lad va tessituras, ovoz diapazoni o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi;

-qo‘shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi;

Cha-man, cha-man o-chi-lar ba-hor cho-g‘i gul-lo-la

Gul-ni yax-shi ko‘-ra-di kat - ta ki-chik har bo - la

Ket-gan qush - lar u-zoq-dan ya-na biz - ga qay-ta-di

Kur-tak och-gan shox-lar-da say-rab qo‘-shiq ay-ta-di.

Musiqqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatish uchun musiqqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o‘rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bol ada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofidagi qo‘shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida ularning tevarak-atrofni bilishida, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug‘ullantirishning sababi bola musiqa bilan shug‘ullanmasdan, qo‘shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko‘nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirishi mumkin.

MTMgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning o‘zaro uzviy bog‘langan uchta metodi bor:

1. Ko‘rgazmali metod.
2. So‘zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

### **Ko‘rgazmali metod**

1. Eshitishga asoslangan ko‘rgazmali metod. Bunda bolaga o‘rgatish bevosita musiqa bilan bo‘ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg‘ulot paytida yoki bola tomonidan qo‘shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi.

2. Ko‘rishga asoslangan ko‘rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo‘shib olib boriladi. Turli o‘yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalari ko‘rsatiladi.

### **So‘zlab berish metodi**

Bu metod bola ongiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning faoliyatini ma‘noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so‘zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tasavvurini jonlantiradi.

So‘zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. Tushuntirish – yangi asarni tinglash, qo‘shiq aytish, o‘yin va raqslarni qo‘shib, mashq qilish davomida foydalaniladi.

2. Izohlash – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo‘shiq aytishning turli yo‘llarini ko‘rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. Ko‘rsatma berish – bolalar o‘yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o‘ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho‘zish kabi.

### **Amaliy faoliyat metodi**

Bu faoliyatda bolalarga qo‘shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta‘sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o‘rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib, topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.


## **Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish bosqichlari**

**1-bosqich:** Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish.

Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblari bilan chaldirib, kuyni o'zaro taqqoslaydi va shu yo'l bilan uni xotirasida qoldiradi.

**2-bosqich:** Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalarini shakllantirish.

**3-bosqich:** Ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq, o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi. Qo'shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Avvalambor, tarbiyachi biror bir she'rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o'rgatadi. Har bir tanlangan she'r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlarida hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi



### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Oilada va bog'chada ashula aytishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Qo'shiq uchun kuy va she'rning ahamiyati qanday?
3. Bolalar tarbiyasida qo'shiqning ta'limiy o'rni qanday?
4. Repertuar tanlashda nimalarga ahamiyat berish kerak?

## 5. Bolalar ovozi shakllantirishda nimalara e'tibor berish kerak?

### 1.9. Musiqa mashg'ulotlarida musiqa tinglashning ahamiyati

Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiyati. Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. Bog'chada amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan: orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash, malaka, ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

1) bolalarni o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;

2) bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish;

Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish.

Yengil, kuychan musiqalarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa, unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana borib, tinglagan musiqa haqida o'z ta'surotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo bo'ladi. 5–6 yoshli bolalarda esa erkin, ixtiyoriy tarzda diqqat e'tibor shakllanib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayoni yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar.

Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv soʻzi katta rol oʻynaydi. Cholgʻu kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2– 3 mashgʻulot davomida takroran tinglashi shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi-yangi qirralari namoyon boʻladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. Bogʻchaning tayyorlov guruhlarida bola oʻz yoshiga muvofiq musiqa asarini toʻla idrok etishga qodir boʻladi. Bogʻchada olingan bilim zaxirasida malaka va koʻnikmasi, musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga yordam beradi. Shunday qilib, dasturda koʻzda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol oʻynaydigan uch faktor amalga oshadi.

1. Musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni oʻylash.

2. Musiqa tinglashga turgʻun diqqat-eʻtiborni va tinglash madaniyati boshlangʻich elementlarining shakllanishi.

3. Musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish. Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiy vazifalari:

1. Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuygʻularini rivojlantirish.

2. Boshlangʻich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.

Musiqa tinglash alohida metodlar orqali oʻtkaziladi.

Musiqa orqali bogʻlash		Musiqa jarayonini mustahkamlash
	<b>Musiqa tinglash</b>	
Musiqa orqali kayfiyat oshirish		Musiqiy his-tuygʻularni rivojlantirish

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida musiqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etib, muntazam ravishda olib boriladigan tarbiya jarayonining bir qismini tashkil etadi. Mazkur qoʻllanma maktabgacha taʼlim musassalarida musiqiy tarbiyani amalga oshirish dasturida belgilangan ertalik va bayramlarni nishonlashga qaratilgan tadbir va bayramlarni tashkil qilish jarayoniga qaratilgan.

Musiqqa, ayniqsa, milliy musiqqa, bola tarbiyasiga benihoya katta ta'sir ko'rsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy, estetik zavq va didni shakllantiradi, go'zallikni musiqqa orqali idrok etishda yetakchi rol o'ynaydi. Bolalar bog'chasida musiqiy tarbiya quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

- musiqqa tinglash;
- vokal ijrochilik;
- milliy musiqqa asboblari bilan tanishtirish;
- bastakor hayoti va ijodi bilan tanishtirish;
- musiqqa turlari bilan tanishtirish;
- ritmik harakat va raqs asoslari bilan tanishtirish;
- bolalarda ijobiy qobilyatlarni aniqlash va rivojlantirish;
- musiqqa vositalari orqali bolalar tarbiyasini tobora shakllantirish;

Musiqqa rahbarlari ushbu vazifalarni amalga oshirar ekanlar, o'z ish tajribalarida turli faoliyat shakllaridan keng foydalanadilar;– Musiqqa mashg'ulotlari (vazifa va maqsadiga qarab, turli mavzu va yo'nalishda bo'ladi);

- bayram ertaliklari;
- ko'ngil ochar musiqiy o'yinlar;
- nafosat soatlari;
- badiiy va adabiy musiqiy kompozitsiyalar;
- musiqiy teatr drammatizatsiyalari;
- yakka hol ish turlari;
- to'g'arak ishlari;

Bayram ertaliklariga tayyorgarlik ko'rilar ekan, avvalambor bu hammaning bayrami ekanligi, bolalar xotirasuda unutilmas iz qoldirilishi, ularga zavq, xursandchilik olib kelishini nazarda tutish zarur. Bu jarayonda barcha teng qatnashishi lozim. Masalan, pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli. Maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil qilingan bayram ertaliklari umumxalq bayramlarining bir parchasi bo'lmog'i zarur. Musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Insonda musiqqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. Bola, musiqqa madaniyati darslarining barcha faoliyatlari jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi. Ammo musiqqa darslarining musiqqa tinglash qismi oldida, o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko'ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'ladi. Masalan: milliy cholg'u asboblari ansambli, orkestr, xor, yakka cholg'u, cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin.

Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida tarbiyalanuvchilarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi.

Musiqa madaniyati mashg'ulotlarida musiqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko'ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi:

- -tarbiyalanuvchilarning idrokiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlarni tinglash.

- tarbiyalanuvchlarning musiqani idrok etish va musiqiy asarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

- musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish, tinglangan asarlar nomlarini eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma'lum darajada baho bera olish.

- musiqiy asarlarni ishtiyoq bilan tinglash va eslash, olgan ta'surotlar haqida o'ylash va fikr bildirish.

- musiqa tinglashda turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyatini, boshlang'ich elementlarni shakllantirish.

Musiqiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asarlarni tinglash. Bog'cha tarbiyalanuvchilarning diqqat-e'tibori uncha barqaror bo'lmasligi sababli, ular yorqin yangraydigan kichik hajmdagi musiqiy asarlarni idrok etishga qodir bo'ladilar. Ular, ayniqsa, kichik hajmdagi qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar, chunonchi, so'z va ohang birligi musiqaning mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Shuning uchun musiqa rahbari qo'shiq aytganda yoki biror cholg'u asarini ijro etganda, uning tanish ovozi, sof ohangi, ifodali ijrosi, mimikasi va ishoralari o'quvchilarni maftun etishi lozim. Shundagina, bolalarda bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish, qayg'urish, o'ylanish kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishda o'qituvchining qisqa, lo'nda, mazmunli, qiziqarli kirish so'zi, musiqa tinglash jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Musiqiy asarni tinglashdan oldin o'quvchilarga ma'lumot berilsa, ular asarni to'liq idrok etishga harakat qiladilar. Musiqiy asarni ikki-uch mashg'ulot davomida tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning 9 yangi qirralari namoyon bo'ladi va unga nisbatan qiziqishi va muhabbati ortib boradi. Yildan yilga o'quvchilar o'z yoshiga, bilim va malakalariga muvofiq, musiqiy asarni to'la idrok etishga qodir bo'ladilar. O'quv yili davomida tarbiyalanuvchilar 12-14 ta asar tinglaydilar.

## **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida qanday vazifalar qo'yiladi?
2. Bolalar bog'chasida musiqiy tarbiya qanday vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi?
3. Musiqa mashg'ulotlari vazifa va maqsadiga qarab, qanaqa mavzu va yo'nalishda bo'ladi?
4. Bola ruhiyati uchun qanday musiqalar tinglash maqsadga muvofiq?
5. Musiqa tinglatishda qanday metodlardan foydalansh zarur?

### **1.10.Musiqa mashg'ulotlarida bolalarga musiqalar xarakteriga xos harakatlar, o'zbek xalq raqs elementlari va ritmik harakatlar ustida ishlash**

Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladahn, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun «Tayanch dastur», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Davlat ta'lim standartlari joriy etildi. Ushbu qohun va dasturlarning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama rivojlanishga ularni aqlan yetuk, jismonan baquvvat, ma'naviy pok qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat.

Ritmikaning asoschisi shvetsariyalik olim musiqashunos kompozitor E.Jak-Dolkros shunday degan edi: «Ritm harakatlar asosida yashamoq kerak». Musiqiy o'yin va mashg'ulotlar bolalarning uch yoshdan yetti yoshgacha tavsiya etiladi. Ritmik harakatlar bolalar bog'chasida boshlang'ich guruhlarda va musiqa maktablarida, uy sharoitida yanada chuqurroq o'rganilishi mumkin.

O'quvchilarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda musiqa madaniyati darslarida, musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat:

-o'quvchilarning musiqiy uquvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg'usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ohanglar bola xotirasida turg'un saqlanadi;

-raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;

-musiqiy asarlar o‘quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg‘otib, turlicha kayfiyatlar hosil etib, ularning ongida o‘ziga xos obrazlar yaratadiki, bolalar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Demak, musiqaga mos harakatlar o‘quvchilarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birgalikda irodasini ham rivojlantiradi.

Musiqiy asarlardan marsh, raqs va o‘yinlar o‘quvchilarga tez ta’sir etadi, shuning uchun ham quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o‘yinlar har bir bolaning e’tiborini o‘ziga tortadi.

Ritmika bolalarda musiqiy harakatlarni, estetik tarbiyani oshirishda katta ro‘l o‘ynaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar ilk yoshdan boshlab sakraydi, o‘ynaydi, lekin bu bolaning ritmik harakatlandi, degani emas. Bu davrda bolalar musiqa ostida emotsional harakatlanadi, eshitish qobiliyati o‘sadi. Musiqa ostida harakatlanib, tarbiyachilar bilan birgalikda kichik-kichik qo‘shiqlar ham kuylanadi.

Harakat turlari uchga bo‘linadi.

1. Asosiy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash.

2. Gimnastik harakatlar: predmetlar bilan, ya’ni lenta, obruch, bayroqchalar va koptok bilan.

3. Raqs harakatlari: musiqa ostida ritmik harakatlar haqida nazariy bilimga ega bo‘lish mumkin.

Maktabda va bog‘chada o‘tkaziladigan har bir ertalikni, turli tadbirlarni musiqasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jumladan, musiqali ritmik harakatlarning ham o‘z o‘rni bor. Bunda bola ritmni his qiladi, qomatlari chiroyli bo‘lib, to‘g‘ri yurushni, musiqa ostida harakat qilishni o‘rganib boradilar. Hozirgi milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, o‘zbekchiligimiz o‘z o‘rnini topayotgan bir vaqtda bolalarga o‘zbek milliy musiqasi, qo‘shiqlari, ritm harakatlarini o‘rgatish juda muhimdir.

### **Chamanda gul.** (O‘zbek xalq kuyi)

**Tez sur’atda** katta guruh uchun

Bu raqsda to‘rtta yoki oltita qiz ishtirok etadi. Asosiy harakat sakrama, qo‘llar yuqorida «Shamol» harakati bilan ikki qator bo‘lib, ikki tomondan chiqadilar.

1-4-taktlar:

1-harakat: ikki tomondan chiqishib, doira hosil qiladilar. Qizlar navbatma-navbat o‘tirib bir-birlarining atroflarida aylanadilar.

5-8-taktlar:

2-harakat: qizlar doira bo‘lib yurib, birinchi qatorga saflanadilar. Qizlar o‘z joylarida turib, 4 tomonga, pastga qarsak chalib, so‘ng qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar. Bu harakatlar o‘ng va chap tomonga bajariladi.

9-12- taktlar:

3-harakat: 1,3,5-qizlar qo‘llarini «chiroqcha» qilib, oldinga chiqadilar vayana o‘z joylariga qaytadilar. Bu harakatlar 2,4,6-qizlarda takrorlanadi.

1-4-taktlar:

4-harakat: qizlar 3 kishidan bo‘lib, qo‘l ushlab aylanadilar. Qizlar doira bo‘ylab yurib, bir qatorga saflanib, salom berib, chiqib ketadilar.

**Do‘loncha.** (O‘zbek xalq kuyi)

Katta va tayyorlov guruhleri uchun

**O‘rtacha tez**

1- holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belda, bosh o‘ng va chap tomonga

i martadan aylantiriladi.

2- holat: yelka uchun. Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar yelkada. Avval o‘ng, so‘ngra chap yelka oldinga va orqaga to‘rt marta aylantiriladi.

3- holat: qo‘l uchun.

4 marta «koptokni yuqoriga ot» harakati bajariladi.

4- holat: bel uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belda, 1 deganda, oldinga egiladilar, 2 deganda, dastlabki holat, 3 deganda, orqaga egilib, 4 deganda, dastlabki holatga keladilar (4 marta).

5- holat: tizza uchun.

O‘ng qo‘l tirsagi chap oyoq tizzasiga, chap qo‘l tirsagi, o‘ng oyoq tizzasi tekkiziladi.

6- holat: oyoq uchun.

Qo‘llar belda, oyoqlar juft holatda ikki marta sakrab, 3-4 hisobida o‘ng va chap oyoq birin-ketin oldga va orqaga harakatlanadi.

7- holat: nafas uchun.

Qo‘llar orqadan yuqoriga ko‘tarilib, oldga tushuriladi va yengil nafas olinadi.

**Qashqarcha.** (O‘zbek xalq kuyi)

Tayyorlov guruhi uchun

### **O‘rtacha tez**

1- holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belda, bosh o‘ng, chap, yuqori va pastga qaratiladi.

2- holat: yelka uchun:

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar pastda, yelkalar ikki marta o‘ng, ikki marta chap tomonga aylantiriladi.

3- holat: qo‘l uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar oldinda, yuqoriga, o‘ngga birin-ketin harakatlantiriladi, song dastlabki holat.

4- holat: bel uchun.

Qo‘llar belda, oyoqlar yelka kengligida, ong va chap tomonga ikki martadan egiladilar.

5- holat: tizza uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar tizzada, yarim egilish — o‘ng va chap tomonga egiladilar.

6- holat: oyoq uchun.

Qo‘llar belda, oyoqlarni navbat bilan oldinga, yonga, orqaga uzatib, dastlabki holatga keladilar.

7- holat: nafas uchun.

Qo‘llar yarim egilgan holda, pastdan yuqoriga ko‘tariladi.

**Olmani otdim.** (O‘zbek xalq kuyi)

Tayyorlov guruhi uchun

### **O‘rtacha tez**

Tayyorlov guruhi uchun

1- holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar yonga uzatilib, bosh muqom qilib uchiriladi.

2- holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belda yelka uchiriladi.

3- holat: qo‘l uchun.

Qo‘llar navbatma-navbat pastdan yuqoriga ko‘tarilib, so‘ng pastga tushiriladi.

4- holat: bel uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belda, o‘ng va chap tomonga belni ikki marta aylantiriladi.

5- holat: tizza uchun.

Qo‘llar pastdan «shamol qilib», o‘tirib turiladi. (4 marta)

6- holat: oyoq uchun.

4 qadam oldinga, 4 qadam orqaga yuriladi.

7- holat: yarim egilib, qo'llarni avval o'ng tomonga silkitib, keyin chap tomonga silkitiladi va qomat rostlanadi (4 marta).

8- holat: nafas uchun.

Qo'llar yondan yuqoriga ko'tarilib, oldinga yengil tashlanadi.

## TARQATMA MATERIALLAR

1. Oilada va bog'chada ashula aytishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Oilada musiqa savodini olib borishda tarbiyaning o'rni qanday?
3. Oilada va bolalar bog'chasida musiqa savodining o'rni va ahamiyati qanday?

1. Musiqa mashg'ulotining ish rejasi bolalar hayotida qanday roli bor?
2. Bolalar ijodida musiqa faoliyatining vazifasi qanday?
3. Mashg'ulotning shakllanish turlari qanday?

1. Ashula aytishda qanday nafas olinadi va nafas chiqariladi?
2. Nafas olish va nafas chiqarishning inson organizimidagi o'rni va ahamiyati qanday?
3. Musiqa mashg'ulotlarining ish rejasini tartib bilan ko'rsatib berish?

1. Bolalar bog'chasida qanday musiqaviy o'yin turlaridan foydalaniladi?
2. Musiqa ostida o'tiladigan jismoniy tarbiyaning qanday turlarmi bilasiz?
3. MTM da ta'lim-tarbiya berishda tarbiyaning musiqiy faoliyati qanday?

### **Mavzuni mustahkamlash uchu savolar.**

1. Musiqada ritmik harakatlar bajarishning ahamiyati?
2. Ritmik harakatlar necha yoshdan boshlab o'rgatishi kerak?
3. Ritmik harakatlar qysi mashg'ulot turlari bilan vobasta?
4. J.Dalkrosning ritmikaga qo'shgan hissasi qanday?
5. Harakat turlari nechtaga bo'linadi?

### **1.11. O'zbek xalq milliy cholg'u asboblari va bolalar cholg'u asboblari tasnifi**

Musiqqa mashg'ulotlarida bu faoliyat turi eng qiziqarli jarayonlardan biridir. Bu faoliyat bolalarni ijodkorlikka undaydi. Bolalar cholg'u asboblari jonli tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholg'u asboblari ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakter va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga mos emotsional tuyg'ular hosil qilish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa mashg'ulotlarida bolalar cholg'u asboblariidan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga bolalarning mashg'ulotga intiluvchanligi, qiziqishi va musiqiy o'quvini (xotirasi, ritmni his qilish tuyg'usini, nutqini) o'stiradi. Bu borada ko'plab pedagogik olimlar metodik qo'llanmalar yaratganlar. Ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borganlar. Misol qilib, N.A.Vetluginaning «Musiqiy alifbo», N.G.Kononova «Obuchenie doskolnikov igr na detskix muzykalnyx instrumentax» kitoblarini ta'kidlab o'tish mumkin. Undan tashqari Mustaqillikka erishilgandan so'ng o'zbek xalq cholg'ularida ijroga katta e'tibor qaratildi va aynan bolalar yoshiga mos keladigan o'zbek xalq cholg'ulari yasatildi. Bu asboblarning kattalar ijro etadigan asboblardan farqi – bu asboblari shakl jihatdan kichkina. Bolalarning qo'liga to'g'ri keladi, ya'ni ijro vaqtida bolalarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Endi bu asarlarni hayotga tadbiq etish uchun ma'lum bir o'quv qo'llanma talab etilardi. Bu borada O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi professor-o'qituvchisi A.Leviyev «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik» nomli kitobini

hayotga tadbiq etdi. Bu kitobning oʻziga xosligi shundaki, birinchidan, oʻzbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan qoʻshiqlaridan foydalanilgan. Bu bolalarda tanish boʻlgan qoʻshiqlarni cholgʻularida ijro etib kuylashlariga katta turtki boʻladi. Ikkinchidan, aynan oʻzbek xalq kuylaridan namunalar keltirilganligidir. Bu bogʻcha bolalarida yoshligidan oʻzbek xalq kuylarida mehr-muhabbat hissini, ularga hurmatini uygʻotadi. Bolalar oʻzlari oʻzbek xalq kuylarini cholgʻuda ijro etishsa, anchagacha eslarida qoladi. Uchinchidan, bu cholgʻular tafsifi, uni ijro etish malakalari va koʻnikmalari batafsil yoritib beriladi. Lekin bu kitobning murakkab jihati — bolalarda mashgʻuloti jarayonida qoʻllash qiyinchilik tugʻdiradi. Bu masalani bartaraf etish uchun mashgʻulotdan tashqari vaqtda qoʻllash kerak. Yod boʻlgan kuy va qoʻshiqlada bayram ertaliklardan va tantanalarda bolalar ijro etishsa oʻzlarini kichkina sozandalar deb his qiladilar. Turli tantanalarda ijro etilgan kuy va qoʻshiqlar anchagacha xotirada muxrlanib qoladi. Bolalar cholgʻu asboblarda joʻr boʻlishda, avval, bolalar chapak chalib, ritmik joʻr boʻladilar. Musiqa rahbari bolalar kuy ritmini toʻgʻri his etib ijro etishlari uchun, bolalarga stol ustida terib qoʻyilgan cholgʻu asboblarida chalib, musiqaga joʻr boʻlishi xaqida batafsil soʻzlab berishi lozim. Soʻng biror cholgʻuda kuyni oʻzi ijro etib chapak bilan joʻr boʻlishini koʻrsatadi. Keyin barchani kuyga chapak chalib, joʻr boʻlishni taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholgʻu asboblarini tarqatish uchun ilgʻor va zehnli bolalardan birini tayinlaydi (birinchi marta ilgʻor bolalarni tanlashdan maqsad kuy chiroyli va toʻgʻri boʻlib ijro etilsa keyin qolgan bolalar ham oʻz tengdoshlari ijro etganlaridek chalishadi). Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun yana bir takrorlab chiroyli, toʻgʻri ijro etilishi kerak. Soʻngra musiqa raxbari ijro etmagan bolalarga cholgʻu asboblarida joʻr boʻlishni taklif etadi. Shu tarzda guruhdagi barcha bolalar galma-gal cholgʻu asboblarida joʻr boʻlishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholgʻularida chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay musiqani his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. Ayni shu holda guruhni 2 jamoaga boʻlib, 1-jamoa chapak chalib, 2-jamoa esa ovozda usul berish bilan yoki cholgʻu asbobida ham joʻr boʻlishlari mumkin. Bu usulning yana bir foydalitomoni shundaki, bolalarda jamoa boʻlib kuylash malakalarini, koʻpovozli kuylashning ilk malakalarini rivojlantiradi. Ijro etishning yana bir turi — bolalar doyrada usulni aniq va tekis chalib turadi. «Bum»ga 1-jamoa bolalari, «bak»ka

esa 2-jamoa bolalari jo‘r bo‘lishadi. Buni iloji bo‘lsa magnitofon tasmasiga yoki yozuvga yozib olib bajarisa ham bo‘ladi. Shuningdek, kuyni dinamik belgilari va ifoda vositalarini ko‘rsatib turish uchun kartochkalardan foydalansa ham bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlar – qiziqarli o‘tadi, bolalar bilim vako‘nikmalari mustahkamlanadi va musiqiy qobiliyatlari har tomonlama rivojlanishni ta‘minlaidi. Musiqa mashg‘ulotlarida bolalar cholg‘u asboblarni qo‘llashi, tarbiyachidan katta mashuliyat, ijodkorlik va topqirlikni talab etadi. Bolalar musiqa cholg‘ulari xarakteristikasi Bolalar musiqiy o‘yinchoqlari va musiqiy cholg‘ularda tovush hosil bo‘lishi va tovush sifatiga ko‘ra ma‘lum guruhlarga bo‘linadi. Bolalar musiqa cholg‘ulari asosan ikkita guruhga, ya‘ni tovush balandligiga ega bo‘lgan (melodik) hamda urib chalinadigan (melodik bulmagan) cholg‘ularga bo‘linadi.

1. Urib chalinadigan (melodik bo‘lmagan) ritmik cholg‘ular: doyra, nog‘orachalar, kayrok, klaves, bloklar, tamburin, baraban, marokas, uchburchak, rumba, yog‘och qoshiqlar, tarelkalar. SHu cholg‘ularning bahzilarining tavsifini keltiramiz: Klaves – palisandr daraxtidan tayyorlangan ikkita tayoqcha, bir biriga urib ovoz chiqariladi. Ularni ushlaganda (bosh va ko‘rsatkich barmoqlar yordamida) yog‘och uchali bush bulishi kerak. Baraban –ikki tarafi teri bilan koplangan temir tsilindr. Tovush yog‘och tayoqchalar yordamida markaziga urish orqali hosil kilinadi. Marakas–ikkita plastmass shar, ularning ichida toshchalar harakatlanadi. Bu cholg‘uning tovushi og‘irroq bo‘lgani uchun bolani tez charchatadi. SHuning uchun extiyot bo‘lib foydalanish zarur. Qo‘lda ushlab, mayin harakat bilan silkitib tovush hosil qilinadi.

Uchburchaklar–chalish paytida osib qo‘yiladi yoki chap qo‘lda tasmachasidan ushlab turiladi va o‘ng qo‘lda metall tayoqcha bilan uriladi. Tez tempda tayoqchani uchburchakning ichki ikki yoniga urib «tremalo» ijro etish mumkin. «Nozik», «yaltiroq», qisqa tovushga ega. Tarelkalar – barabanchaga mustahkamlanadi yoki chap qo‘lda ushlab turiladi. Ikkita yog‘och tayoqcha bilan barobar yoki alohida-alohida chalish mumkin. 2. Melodik cholg‘ular: tovush balandligiga ega bo‘lgan metallofon, ksilofon, metallofon va ksilofon alg‘t (S1-S2), metallofon va ksilofon soprano (S2-S3), qo‘ng‘iroqchalardan iborat: Bu cholg‘ularning asosiy sozlanish tonalligi – Do major. Almashtiriladigan plastinkalar yaqin tonalliklarda ijro etish imkoniyatini beradi. Eng pastki tovush doimo tonika bo‘ladi. Ijro paytida cholg‘ular o‘quvchining bel qismi balandligida bo‘lishi lozim. Tayoqchalarni bosh va ko‘rsatkich barmoqlar orasida yengil ushlash kerak. Bunda qo‘llar tirsakdan

bilaklarga erkin holatda bo'lishiga e'tibor tortiladi. Avval bolalarga tovushni ikki qo'l bilan hosil qilish taklif qilinadi. Bunda ikkala qo'lning balandligi bir xil bo'lishi lozim.

Har bir cholg'uning o'z tayoqchalari bor:

-ksilofonda – qattiq probkali tayoqchalar bilan chalinadi.

-metallofonda rezina tayoqchalar bilan ijro etiladi.

-ko'ng'iroqchalarda –yog'och tayoqchalar bilan ijro etiladi.

Bulardan tashqari cholg'ularning boshqa turlari ham mavjud. Tovushsiz cholg'ular. Bularga musiqiy cholg'ularni ifodalaydigan o'yinchoqlar kiradi. Masalan, tovushsiz fortepiano, royal va boshqalar. Bular bolalarga o'yinni qiziqtirish uchun xizmat qiladi. Musiqiy o'yinlar esa ijodiy va musiqiy eshituvni rivojlantiradi. Tovush balandligi aniq bo'lmagan cholg'ular – baraban, shaqildoq, uchburchak, nog'ora, safoyil, quticha, kastaneta. Faqat bir tovushni beruvchi o'yinchoq — cholg'ular. (bular ritmni chalish uchun qulay bo'ladi) – surnaycha, nay, rojki, sverelig va boshqalar. Ma'lum bir kuynigina ijro eta oladigan cholg'u o'yinchoqlar. Masalan musiqiy shkatulka, musiqiy quticha. Bularni chalish mexanik tus oladi. Xromatik va diatonik tovushqatorli o'yinchoq-cholg'ular – metallofon, pianino, royal, klarnet, saksofon, lab garmoni, bayan va boshqalar. Urma zarbli cholg'ular. Yog'och qoshiqlar. Bu cholg'u bolalar bog'chalarining ansambllarida, musiqa mashg'ulotlarida va bayram tantanalarida ijro etiladi. Bu cholg'u bolalarning ritmik hissini rivojlantiradi. Uchburchak–ansambl, orkestr va qo'shiqlarda jo'r bo'ladi. Tovush asbobga yengil urilishi bilan hosil bo'ladi. Musiqiy bolg'acha – ikki tomonlama plasmassadan yasalgan bolg'asimon cholg'u. Bolg'a dasta va havo to'ldirilgan tovush chiqaradigan asosdan tashkil topgan. Bu o'yinchoq – cholg'u kichik guruh bolalarida kata qiziqish uyg'otadi. Undan tashqari o'rta guruh bolalarida ritmni his qilishga o'rgatadi. Qo'ng'iroqlar. Bu cholg'ular shakl jihatidan kata-kichik bo'ladi. Bu bolalarda musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantiradi. Turli shakldagilari turli balandlikka egadir. Masalan kattaligi jihatidan turli bo'lgan uchta qo'ng'iroqlarni qo'llashdan maqsad bolalar tovushlarni yuqori va pastlarini farqlay oladilar. Orkestrlarda katta qo'ng'iroqlar mavjud. Bu ayrim kuylarda pastki tovushni alohida ijro etish uchun belgilangan. Metallofon. Bu asbob yog'och tayoqchalar va tayoqchalarga ulargan metal plastinkalardan iborat Musiqiy zina – yetti bosqichdan tashkil topgan tovushqatorni eslatadigan zina. Zinaning asosi yog'och yoki metall. Bu cholg'u ikkita tayoqcha bilan ijro etiladi. Bu bolalarda notalarning joylashuvi va

yuqoriga yoʻnalishini koʻrsatib beradi. Bu cholgʻuda ijro etish katta va maktabga tayyorlov guruhbolalariga moʻljallangan. Urma klavishli cholgʻular. Pianino, royalgʻ. Bu cholgʻular katta va maktabga tayyorlov guruhbolalariga moʻljallangan. Bu asboblarni mashgʻulot davomida va mashgʻulotdan tashqari vaqtda ham foydalanish mumkin. Mashgʻulot davomida musiqiy didaktik oʻyinlar jarayonida tadbiq etilsa, bolaning mashgʻulotga qiziqishi oshadi.

Damli cholgʻular Damli cholgʻularga klarnet, saksofon kabilar kiradi. Ularda ijro etishni individual tarzda oʻzlashtiriladi. Damli garmonika. Bu asbobda tovush hosil qilish uchun puflab klavishlarini bosish bilan chalinadi. Asbob 6-7 yoshli bolalarga moʻljallangan. Triola asbobi. Rang-barang klavishlarga ega boʻlgan bolalar musiqa cholgʻusi. Bu asbobda puflash bilan birga klavishlarini bosib tovush chiqariladi. Bu asbob yoqimliliigi bilan boshqa asboblardan farq qiladi. Doyrada ijro etishdagi holat. Doyrada belni bukchaytirmasdan, oʻtirib, kiftlarni erkin, boshni toʻgʻri tutib, tirsaklar tanadan sal nariroqda ushlagan holda chalinadi. Doyra ikki qoʻl bilan, notani koʻrib turish uchun qoʻllarni tanadan sal chaproqqa qayirib ushlab chalinadi. Oʻng qoʻl: bosh barmoq doyra gardishini tashqi tomoniga, qolgan panjalari esa doyraning pardasi (membranasi)ga zarb urish uchun erkin holatda ushlanadi.

Chap qoʻl: bosh barmoq gardishni ichki tomonida turadi, qolgan barmoqbar esa tovush chiqarish uchun xizmat qiladi. Doyraning vazni asosan chap qoʻlga tushadi. Doyra chalish usullari Doyra muayyan bir tovush baland-pastligiga ega boʻlgan urma cholgʻu asbobi guruhiga kiradi. Doyra turli-tuman ritmik va dinamik imkoniyatlarga ega boʻlib, doyrachi ikki qoʻl va barcha barmoqlarning zarblaridan foydalanadi. Kichik nogʻoralar kichik nogʻoralar maʼlum bir sozda sozlanmaydi, lekin uni olovda yoki elektr isitgich oldida qizdirilganda tovushning jarangdorligi kuchayadi. Ikkala kichik koʻzalar sozi bir-biriga nisbatan taxminan kvartaga tushadi. Bu asboblarga yogʻoch tayoqcha bilan urib tovush chiqariladi. Nogʻoraning birmuncha chuqurroq tovushi oʻziga xos tus bilan ajralib turadi. Nogʻora partiyasini yozish uchun bitta chiziqdan foydalanadi. Nota choʻzimlari chiziqning ustiga yoki ostiga yoziladi. Chiziqning ostiga yozilgan notalar pastroq sozdagi koʻzachaga uriladi, ustiga yozilgani esa yuqori sozdagi koʻzachaga uriladi.

Safoyil – jarangdor cholgʻu boʻlib, 2 ta yogʻoch dastachalarga mahkamlangan, 2 ta katta buralgan xalqalardan iborat. Har bir katta xalqaga 15 tadan kichik xalqachalar oʻtkazilgan. Bu xalqachalarning jaranggi oʻng yelkaga urib yoki havoda tez-tez harakat bilan oldinga

silkitishdan kelib chiqadi. Safoyl partiyasi bitta nota chizig'ida yoziladi. Qutichalar qattiq daraxt turidan yasalib, har xil yiriklikda bo'lishi mumkin va unga yog'och cho'plar bilan urib chalinadi. Qutichani chap qo'lda ushlab, o'ng qo'l bilan yog'och cho'plarini qutichaning o'rta qismiga o'rib chalinadi. Ba'zan bir juft yog'och cho'p bilan ham ijro etiladi. Bunda quticha stul ustiga qo'yib chalinadi. Kichik guruhlarda cholg'ularni ijro etishga o'rgatish malakalari Musiqa cholg'ularida ijro etishga o'rgatish kichik yoshdan boshlanadi (2-3 yosh). Bolalar musiqa cholg'ularining tovush balandligini farqlay olishga erishish kerak. SHiqildoq va bubenlarni farqlashi kerak. Bolalar bilan ishlash jarayonida musiqiy o'yinchoqlardan foydalaniladi. Masalan surnaycha va boshqa o'yinchoqlar asboblarga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bolalar bilan turli didaktik o'yinlarda cholg'ularni qo'llash mumkin. Masalan, urma zarbli cholg'ular bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Bolalarda ritmni his qilish tuyg'usini rivojlantirish aynan shu yoshdan boshlash kerak. Turli zarbli urma cholg'u o'yinchoqlardan foydalanib, ritmning aniqijrosiga erishish maqsadga muvofiqdir. O'rta yoshda ijro etish o'rta guruh bolalarida ijro etishga zarbli cholg'ularga yana bir yangi cholg'u qo'shiladi. Bu metallofonda ijro. Bu cholg'uda bolalarning hissi, xotirasi va eshitish qobiliyati rivojlanadi. Bolalarga cholg'uni musiqa mashg'uloti davomida tanishtirish kerak. Lekin unda ijro etish va ma'lum bir kuyni o'rgatish esa mashg'ulotdan tashqari o'tkaziladi. Metallofonda ijro etishga o'rgatishdan oldin uning tayoqchasini to'g'ri ushlashga, u bilan to'g'ri foydalanish, tovush chiqarish ustida ishlash kerak. Masalan, tayoqchani qo'lini qattiq zo'riqtirib va qisib ushlasa talab etiladigan tovush chiqmaydi. Biror bola ijro etishga taklif etiladi. Uni bolalar kuzatib turishadi. Bola qo'lidagi tayoqchani qisib ushlayotganini musiqa rahbari tushuntirib beradi. Katta guruh katta guruh bolalariga ijro etishni o'rgatar ekanmiz ular oldiga yanada murakkabroq masalani qo'yamiz. Ularga tanish bo'lgan qo'shiqlarni va kuylarni yakka va orkestrda ijro etishga o'rgatamiz. Bu davrda bolalar musiqa asboblarining barchasini qo'llasak bo'ladi. Aynan shu davrda bolalarga ijodkorlik malakalarini ham shakllantirish mumkin, chunki bolalar cholg' u asbob haqida yetarli darajada malaka va ko'nikmalarga ega. Ular faqat ritm yoki jamoa bo'lib bir notani ijro etardilar. Endi bu davrda har bir cholg'uning individual partiyasini ijro etishlari talab qilinadi. Bu bolalarda o'zlarini partiyalarini ijro etish bilan bir qatorda yonidagi o'rtog'ini ham ijrosini tinglay olish maqsadda tutiladi.

Maktabga tayyorlov guruhi Maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari ijrosiga alohida e'tibor beriladi. Bu davrga kelib bolalar cholg'u asboblari bilan batafsil tanishadilar. Uning imkoniyatlarini to'liq o'rganib chiqadilar. Bolalar nafaqat musiqa rahbari, balki o'zlari musiqiy ansambl tuza oladilar. Bu davrda ijroga har bir mashg'ulotda 5-10 daqiqa sarflash kerak. Bu jarayon tizimiylikni va izchillikni talab qiladi. Qo'lanilayotgan asarlar murakkablashib boradi.

### **O'rgatish vazifalari.**

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya dasturiga ko'ra cholg'ularda ijrochilikka o'rgatish ishlarini katta, o'rta va maktabgacha tayyorlov guruhlarida olib borish ko'zda tutiladi. Dastur mazmuniga ko'ra quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Bolalarda kattalar ijro etgan asarlarni idrok etishi;

2. Bolalarda cholg'u malakalarini oshirish. Bolalar quyidagilarni bilishlari lozim.

1. Cholg'ular nom iva ularning ko'rinishlari.

2. Cholg'ularning jaranglash xarakteri.

3. Cholg'ulardan foydalanish yo'llari.

4. Turli cholg'ularda baland va past joylashuvi.

5. Notalar nomlarini va ularni asboblarda joylashuvini.

Bolalar quyidagilarni o'rganishlari lozim:

a) Turli cholg'u asboblarda ijro etishning oddiy usullarini;

b) Puflab chalinadigan asboblarda nafasni to'g'ri sarflash;

v) Uchburchak va tarelkalar (shu jumladan barcha urma -zarbli cholg'ular)ni

chalganda tovushni pasaytira olish;

g) Ansamblni his qilish, ansambl tempiga e'tibor berish va shu tempda

ijro eta olish;

d) Ritmik va melodik mashqlarni erkin ijro etish va improvizatsiya qila olish. Bolalarga cholg'u asboblarda ijro etishga o'rgatishda bir qancha bosqichlardan olib boriladi. Bulardan: 1) cholg'u asbobini tashki ko'rinishi bilan tanishtirish; 2) bir necha mashg'ulotlar davomida ijro asari bolalarga tanishtiriladi; 3) cholg'u guruhlarga bo'lib o'rgatiladi; 4) umumiy mashg'ulotlarda boshqa cholg'ular bilan tanishtiriladi. 5) urib chalinadigan cholg'ularga kamroq mehnat talab etiladi. SHuning uchun 1-mashg'ulotda 2-3 ta cholg'u asbobini tanishtirish kerak. Bolalar cholg'ularida ijroga o'rgatish metodlari Asboblarni turli guruhlarga bo'linganligi uchun ularning har biriga individual yondoshmoq

lozimdir. Musiqa cholg'ularida ijro etish metodikasida puxta o'ylab chiqilgan dastur asosida olib boriladi. Ulardan:

-asarning ifodali ijrosi, ijro usullarini ko'rsatish va tushuntirish;

-bolalarga asboblarni mustaqil ushlab ko'rish, uni ko'zdan kechirishga berish;

-ular oldiga murakkab bo'lmagan ijro vazifalarini ko'yish;

Bu metodlarni uyg'unlikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Asarga qo'yilaligan talablar.

1. Bolalar yoshiga va bilim darajasiga mosligi.

2. Badiiy va tasavvurga boyligi.

3. Tarbiyaviy ahamiyatga egaligi.

4. Ijroning qulayligi, yengilligi va ravonligi.

5. Ritm jihatdan aniqligi.

Endi 2ta asarni ijrometodini ko'rib chiqamiz.

1. N.Norxo'jaevning «Navro'zim – sho'x sozim»

2. O'zbek xalq kuyi «Yallama-yorim»

«Navro'zim – sho'x sozim»

X.Raxmat she'ri N.Norxo'jayev musiqasi

Asar qo'shiq bo'lib, katta guruhbolalariga mo'ljallangan.

Asarda barcha asboblari (rubob, soz, tanbur, qonun, doyra, nog'ora, safoyl, quticha) ishtirok etadi.

1. Asarning kirish qismini fortepiano jo'rligida doyrava nog'ora ijro etishadi. Qolgan asboblari ijro etishmaydi. Bunda bolalarga o'zlari ijro etgunlariga qadar do'stlarini ijrosini diqqat bilan tinglashga undaydi.

2. Asosiy qismda barcha cholg'ular o'z partiyalarini ijro etishadi. Bu jarayonda bolalarda birga boshlashni va tempdan oldin shoshib yoqi orqaga cho'zib qolishni bartaraf etishga qaratilshgan, ya'ni bolalar o'zlari ijro etatgan asbobdan tashqari yonida turgan o'rtog'ining chalishini eshita olishi va kamchiliklarini ayta olishga erishish kerak.

3. Asarda berilgan uzun va qisqa cho'zimli notalarni tekis ijro etishlari.

4. Bu asarada safoyl va quticha fundament, ya'ni asos vazifasini bajaradi.

5. Asar qo'shiq bo'lganligi uchun guruhning bir qism bolalari cholg'ularda ijro etishsa, bir qismi esa ko'ylashlari mumkin. Bu qo'shiq bayram tadbirlari repertuaridan keng joy olishi mumkin. «Yallama yorim»(O'zbek xalq kuyi) Kuy maktabga tayyorlov guruhi bolalari ijrosiga mo'ljallangan. Asarni faktura jihatdan murakkabligi uchun 4-5 mashg'ulot darayonida o'rganiladi. Asarni o'rganish jarayonida musiqa

rahbari asboblarni guruhlarini mashgʻulotdan tashqarii yigʻib tayyorlashi kerak, chunki mashgʻulot davomida bolalar bilan ijro ustida ishlasa qolganlari zerikadi va kutishdan charchashadi. Bu oʻrganish jarayonini va bolalar qiziqishini sustlashtiradi. Asarni oʻrganishda mashgʻulotlarni aniqvazifalarga yoʻnaltirib oʻtiladi:

1-mashgʻulot. Musiqa rahbari asarni ifodali va qiziqarli qilib ijro etadi. Musiqa rahbari bolalardan: «Bu asarni ijro etishda qanday asboblardan foydalansa boʻladi yoki «Bu asar qanday janrga mansub?» - degan savolni oʻrtaga tashlaydi. Bu bolalarda raqs janri haqida ham maʼlumotga ega boʻlishlari mumkin. 2-mashgʻulot. Musiqani yana bir bor ijro etgandan keyin baxs boshlanadi. Bolalar oʻz tasavvurlari va fikrlash qobiliyatlaridan va dunyoqarashlaridan kelib chiqib turli javoblarni berishlari mumkin. Shunda musiqa rahbari bolalar fikrini jamlab yakuniy bir fikrga, yaʼni bu «xalq» kuyi ekanligiga keltiradi. 3-mashgʻulot. Musiqa rahbari fortepiano joʻrligida doyrada ijro etishga harakat qiladi. Unda usul hissi kuchli boʻlgan bolani ijroga taklif qiladi. Asar 2-3 marta ijro etilgandan keyin bolalar xotirasida qoladi. Kuyni ovozda taxminiy ijro eta olganlaridan keyin qolgan zarbli urma cholgʻularni ijroga qoʻshsa boʻladi. 4-mashgʻulot. Mashgʻulotdan oldin asboblarni sozlab bolalarga oʻrgatish kerak. Chunki bolalar hayajonlanib, ijro etishlari qiyinlashadi. 2-3 marta orkestr cholgʻulari (rubob, soz tanbir, dutor, tanbur, qonun) birgalikda ijro etishlari yaxshilangandan keyingina urma zarbli cholgʻularni birlashtirsa boʻladi. Mashgʻulot davomida yaxshi ijro etishganidan soʻng biror bir cholgʻuga boshqa bolalarni ishtirok ettirsa boʻladi. Chunki har bir bola ijro etib koʻrishga oʻzini orkestr cholgʻuchisi sifatida koʻrishni xoxlaydi. 5-mashgʻulot. Orkestr joʻrligida qolgan bolalarga raqs elementlarini oʻrgatilsa, ular raqsga tushishadi, yaʼni bayram tadbirida bir guruh bolalar ijro etishsa, ikkinchi guruhbolalari raqsga tushishadi. Bunda bolalar bayram vaqtida zerikishni his qilishmaydi va hammalari ishtirok etadilar. Xulosa qilib aytganda, bolalar cholgʻularida ijro etishga oʻrgatish va uni hayoti davomida qoʻllash bolalarga katta zavq ulashadi. Ular oʻzlarini sozanda sifatida koʻradilar.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. Bolalar cholgʻu asboblari qaysi asboblardan foydalaniladi?
2. Bolalar cholgʻu asboblari oʻrgatishning vazifalari nimalardan iborat?
3. Bolalar cholgʻu asboblarida qanday kuylar ijro etiladi?

4. Kuychan va kuychan bulmagan bolalr musiqa asboblari tasnif bering?
5. Bolalar cholgʻu asboblari jur boʻlishda qaysi uullardan foydalanish kerak?

### **1.12. Maktabgacha taʼlim muassasalarida musiqiy tarbiya mashgʻulotlari, bayram tadbirlarini rejalashtirish (tadbir senariysi)**

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida musiqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etib, muntazam ravishda olib boriladigan tarbiya jarayonining bir qismini tashkil etadi. Mazkur qoʻllanma maktabgacha taʼlim muassasalarida musiqiy tarbiyani amalga oshirish dasturida belgilangan ertalik va bayramlarni nishonlashga qaratilgan tadbir va bayramlarni tashkil qilish jarayoniga qaratilgan. Musiqa, ayniqsa, milliy musiqa, bola tarbiyasiga benihoya katta taʼsir koʻrsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy, estetik zavq va didni shakllantiradi, goʻzallikni musiqa orqali idrok etishda yetakchi rol oʻynaydi. Bolalar bogʻchasida musiqiy tarbiya quyidagi vazifalarni oʻz oldiga qoʻyadi:

- musiqa tinglash;
- vokal ijrochilik;
- milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish;
- bastakor hayoti va ijodi bilan tanishtirish;
- musiqa turlari bilan tanishtirish;
- ritmik harakat va raqs asoslari bilan tanishtirish;
- bolalarda ijobiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish;
- musiqa vositalari orqali bolalar tarbiyasini tobora shakllantirish.

Musiqa rahbarlari ushbu vazifalarni amalga oshirar ekanlar, oʻz ish tajribalarida turli faoliyat shakllaridan keng foydalanadilar.

– Musiqa mashgʻulotlari (vazifa va maqsadiga qarab, turli mavzu va yoʻnalishda boʻladi):

- bayram ertaliklari;
- koʻngil ochar musiqiy oʻyinlar;
- nafosat soatlari;
- badiiy va adabiy musiqiy kompozitsiyalar;
- musiqiy teatr drammatizatsiyalari;
- yakka hol ish turlari;
- toʻgʻarak ishlari.

Bayram ertaliklariga tayyorgarlik koʻrilar ekan, avvalambor bu hammaning bayrami ekanligi, bolalar xotirasida unutilmas iz qoldiri-

lishi, ularga zavq, xursandchilik olib kelishini nazarda tutish zarur. Bu jarayonda barcha teng qatnashishi lozim. Masalan, pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli. Maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil qilingan bayram ertaliklari umumxalq bayramlarining bir parchasi bo'lmog'i zarur. Bolalar bog'chasida musiqa va o'yinlar bolaning aqliy, estetik va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yin va musiqa bilan harakat katta ahamiyatga ega. Musiqa faoliyatining bu turlari bolaning har tomonlama o'sishiga katta yordam beradi.

Birinchi, uning musiqa uquvi, ayniqsa, ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi yaxshi rivojlanadi, chunki har qanday harakat turi musiqa ritmi va taktlari ostida bajariladi hamda harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqa ohanglari bola xotirasida turg'un saqlanadi. Ikkinchi, yuqorida aytganimizdek, raqs va musiqali harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, badanni chiniqtiradi, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Uchinchi, musiqa asarlari bolada turlicha emotsional hislar uyg'otadi. Turlicha kayfiyatlar hosil qilib, uning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bular bolaga harakat sxemalarini badiiy ishoralar bilan ifodalashga yordam beradi. Demak, musiqa bilan harakat bolaning aqliy va estetik qobiliyatini hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, marsh musiqalari bolaga g'ayrat va tetiklik bag'ishlaydi. Marsh musiqalarisiz bayram ertaliklari, hatto bog'chaning oddiy bir kunlik hayotini ham tassavvur qilish qiyin. Raqs kuylari esa bolada ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil etib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va uni behad zavqlantiradi. Musiqa mashg'ulotlarida bajariladigan harakatlarni, ya'ni asosan ikki turga bo'lish mumkin

1) raqs va xorovodlar. Musiqali o'yinlar: o'yin bog'cha yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatining eng faol shaklidir. O'yinlarga mo'ljallangan musiqa asarlarining badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalari o'yinning sujetiga mos tushishi shart. O'yinning syujeti esa bog'cha hayotidan olingan bo'lishi lozim. Unda bolaning ijtimoiy hayot va tabiat bilan munosabati o'z aksini topishi kerak. Ayniqsa xalq bolalar o'yinlari katta ahamiyatga ega.

Bog'chadagi musiqali tarbiya metodikasida musiqali o'yinning asosan ikki turi tavsiya etiladi: 1) cholg'u musiqa sadolari ostida o'ynash; 2) ashula aytib o'ynash. O'z navbatida cholg'u musiqali o'yin syujetli va syujetsiz o'yinlarga bo'linadi. Syujetli oyinda aniq voqea tasvir etilib, syujetsiz o'yinda esa turli harakat namunalari vositasida musiqa asarining xarakteri va badiiy shakli tasvir etiladi. Ashula aytib

o‘ynash ko‘proq xorovodlar va insenirovkalar bilan bog‘liq. Ular o‘yinning mazmuniga qarab tuziladi. Ba’zi o‘yinlarda bir bola o‘yin boshlab, boshqalari unga ergashsa, boshqasida esa, guruh ikkiga bo‘linishi yoki juft bo‘lib o‘yinga tushilishi mumkin. O‘yinni davra tuzib, ikki guruhga bo‘linib, ijro etish kabi turli shakllarda o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Musiqqa madaniyati darslarida bajariladigan o‘yinlar asosan ikki turga bo‘linadi:

1. Qo‘shiqning mazmuniga mos musiqali ritmik o‘yinlar.
2. Raqslar.

Shunday qilib, musiqiy o‘yinlar o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra, didaktik o‘yinlarga mansub bo‘lib, asosan ritmik harakat vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi. Musiqqa ostida jismoniy tarbiyaning ahamiyati Jismoniy tarbiya – sog‘lom avlod, sog‘lom oila, sog‘lom jamiyat uchun bolalikdan qilinadigan amaliy harakatdir. Jismoniy musiqiy harakat, o‘yinlar, sport bilan shug‘ullanish iroda, chidam, intizom tuyg‘ularini shakllantiradi. Bola o‘z kuch-quvvati, sog‘lomligi, qaddi-qomatining ixchamligi, nafas harakatlarining tog‘riligini sezib turadi va bu bilan faxrlanadi. Bu sifatlar sezilmagan holda didni tarbiyalay boradi, bolani go‘zallik dunyosiga yetaklaydi. Sportchining har tomonlama uyg‘un rivojlangan qaddi-qomati haqiqatdan ham go‘zaldir.

Jismoniy tarbiya aslida musiqqa tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bayram ertaliklari bog‘cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bayram ertaliklaridan maqsad, bolalarni nafosat olamiga olib kirish, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etishdan iboratdir. O‘zbekiston Mustaqillikka erishdi. Istiqlol sharofati tufayli qadryatlarimiz, unutilgan, lekin bola tarbiyasida nihoyatda zarur bo‘lgan urf-odatlarimiz tiklanmoqda. Shu sababli bayram ertaliklari shaklan va mazmunan o‘zgarmoqda. Bolalar bog‘chalarida nishonlanadigan asosiy bayramlar quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni.
2. O‘qituvchi va murabbiylar kuni.
3. Mehrjon bayrami.
4. Yangi yil bayrami.
5. Vatan himoyachilari kuni.
6. Xalqaro xotin-qizlar bayrami.
7. Navro‘z bayrami.

8. Xotira va qadrlash kuni.
9. Gul va qushlar bayrami.
10. Sogʻlomjon va polvonjon bayram ertaligi.
11. Bolalarni maktab quchogʻiga kuzatish tadbiri.

Har bir bayramning oʻz maʼnosi va alohida xususiyati bor. Masalan, 1-sentabrda nishonlanadigan Mustaqillik bayramida vatanni sevish va eʼzozlash, unga munosib farzand boʻlib yetishish, uning yutuqlaridan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bayram katta guruh bolalari bilan oʻtkazilib, ular Oʻzbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydilar. Kichik va oʻrta guruh bolalari tomoshabin sifatida qatnashadilar. Ertalikdagi oʻyinlar, insenirovkalarda xalqimizning erishgan yutuqlari, mehnatning insonga quvonch baxsh etishi odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, qadriyatlarimiz koʻrsatilishi kerak. Musiqa rahbari bayram dasturini tuzishda ijodiy yondashib, zamonaviy bolalar qoʻshiqlari bilan bir qatorda, oʻzbek xalq qoʻshiqlarini ham dasturga kiritishimiz lozim. Mehrjon bayramida mehnat mavsumi yakuniga yetayotganligini ifodalab, «Quyosh bobo»ga minnatdorchilik bildirib, «Bobodehqon» mehnatini, «Ona yer» saxovatini, mehr-muruvvatini, «Kuzjon»ning toʻkin-sochinligini ramziy obrazlar orqali chuqurroq idrok etishlariga erishish lozim. Bu bayramni katta, oʻrta va kichik guruh tarzida oʻtkazish mumkin. Bayram tantanalarida iloji boricha oʻzbek milliy asboblarini (karnay, sunray, nogʻora) jalb qilish tavsiya etiladi. Imkoniyat boʻlmasa, fonogrammadan foydalanish lozim. Askiyalar va kichik sahnalashtirilgan ertaklar ham boʻlishi tavsiya etiladi. Qoʻshiq, lapar (aytishuv) va askiyalar mazmuni bolalarga tushunarli boʻlishi kerak. Yangi yil bayrami butun dunyoda ramziy qabul qilingan boʻlib, jahon oilalarining eng sevimli bayramidir. Unda chiroyli bezatilgan archa, quvnoq kuy, qoʻshiq va oʻyinlar Qorbobo, Qorqiz va turli ertak qahramonlari, oʻrmon hayvonlari ishtirok etib, bolalar bilan xursandchilik qiladilar.

Navroʻz bayramida uygʻonayotgan borliq, tabiat ulugʻlanadi. Qadriyat, urf-odat, udumlarni aks ettiruvchi mazkur bayram, tabiat uygʻonishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat goʻzalligidan zavqlanish va uni asray bilish, koʻkalamzorlashtirish, mehnatni ulugʻlash kabi gʻoyalarni oʻzida mujassam etadi. Qoʻshiq-yallalar kuylanadi, oʻlan aytishuvlar va turli xil qiziqarli oʻyinlar oʻtkaziladi. Bu bayramni bogʻcha sharoitidan kelib chiqqan holda zalda yoki hovlida oʻtkazish mumkin. Qadimda sharq xalqlari oʻz sayllariga odamlarni karnay-surnay orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy

cholgʻu asboblardan yoki fonogrammadan foydalanish lozim. Badiiy qismda quvnoq qoʻshiqlar yangraydi.

8-mart bayramida bolalar onalari, buvilari, opalari, tarbiyachilariga boʻlgan mehrlari va ulkan muhabbatlarini qoʻshiq, sheʼr, raqs, oʻyinlarida ifodalaydilar. Ularning mehnatlarini eʼzozlab, minnatdorchi-lik bildirib, oʻz qoʻllari bilan yasagan sovgʻalarini taqdim etadilar. Ular uchun katta, oʻrta va kichik guruhlarda konsert uyushtiriladi. Bayram uchun toʻgʻri tanlangan qoʻshiq, musiqa, sahna koʻrinishlari bolalarda xushchaqchaq kayfiyat tugʻdirishda katta ahamiyatga ega. Ular bayram-ning umumiy xarakteriga, mazmuniga mos boʻlishi kerak. Agar bogʻchada xalq cholgʻu asboblari bilan tuzulgan bolalar ansambli boʻlsa, uni ham bayram dasturiga kiritish kerak. Buyuk siymolar tavallud topgan kunlar uchun badiiy musiqiy nafosat soatlarini tashkil etish, bolalarda milliy gʻurur tuygʻularini shakllantirib boradi. Ularning rasm-larini koʻrsatib, buyuk xizmatlari haqida maʼlumotlar berish, bolalar yoshiga mos asarlari bilan tanishtirish esa bolalar maʼnaviyatini oshira-di. Shuningdek, bayramlar bolalarni respublikamizda yashaydigan barcha millat va xalqlarning urf-odatlarini, qoʻshiq va oʻyinlari bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda katta oʻrin egallaydi.

Kichik, oʻrta, katta va tayyorlov guruhlari bayram ertaliklari MTMda olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyjanob fazilatlar yosh avlodga bogʻcha yoshidan boshlab shakllantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichikintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bogʻcha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy sanʼat bilan uzviy bogʻlangan holda amalga oshiriladi.

### **Oʻrta guruhlarda bayram ertaliklari**

1. Mustaqillik bayrami. Bu bayram tadbiri 1-sentabrda oʻtkaziladi. Tadbir Oʻzbekiston Davlat madhiyasining yangrashi bilan boshlanadi. Bolalar Vatanimiz haqidagi sheʼrlarni yoddan oʻqib, qoʻshiqlar ijro etadilar.

2. Mehrjon bayrami – Bobodehqon va ona zaminni ulugʻlovchi bayramdir. U 25-oktabrdan 5-noyabrgacha oʻtkaziladi.

3. Archa bayrami. Bu bayramda Qorbobo, Qorqiz va sevimli ertak qahramonlari ishtirok etadilar.

4. 8-mart – Onajonlar bayrami.

5. Navro‘z bayrami 21-martdan boshlanadi.
6. Sog‘lom va polvonjon tadbiri esa 1-iyunda o‘tkaziladi.

### **Katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari**

1. «1-sentabr – Mustaqillik bayrami». Bayram tadbirlari orqali bolalarda vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘ulari tarkib toptiriladi.
2. 1-oktabr – «O‘qituvchilar va Murabbiylar kuni».
3. Til bayrami. Bu bayram «Til – dil kaliti», «Ona tilim – jonu dilim» nomlari ostida nishonlanadi
4. «Mehrjon bayrami» – hosil bayrami.
5. 8-dekabr – Konstitutsiya kuni. Shu munosabat bilan «Qomusimiz – nomusimiz» tadbiri o‘tkaziladi.
6. «Archa bayrami» ertaligi.
7. 14-yanvar – «Vatan himoyachilari kuni».
8. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan konsert uyushtiriladi.
9. 21-mart – Navro‘z bayrami. Bu tadbirda, asosan, urf odatlarimiz va qadriyatlarimiz haqidagi sahna ko‘rinishlari va kuy-qo‘shiqlar ijro etiladi.
10. Gullar va qushlar bayrami may oyida o‘tkaziladi. Bolalar O‘zbekiston gullari va qushlari haqida she‘r hamda qo‘shiqlar aydatilar.
11. «Sog‘lomjon va polvonjon», «Sog‘lom tanda – sog‘ aql» tadbirlari 1-iyunda o‘tkaziladi. Bayramda turli estafeta va bellashuvlar uyushtiriladi.
12. Maktabga kuzatish bayrami. «Xayr, bog‘chajon – salom,maktab

### **MTM da utkaziladigan bayram ertaliklari dasturlaridan namuna**

#### **Istiqlol bayrami**

Bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotidan, Respublika Prezidenti I.A.Karimovning xorijiy mamlakatlar elchilari, mahalla ahli, yozuvchilar, ishchilar, dehqonlar, talabalar bilan uchrashuvlari aks etgan foto-rasmlar terib qo‘yiladi. Bog‘cha musiqa mehmonxonasi to‘riga O‘zbekiston bayrog‘i, gerbi o‘rnatilgan. Davlat madhiyasining matni va notaga tushirilgan musiqasi bosilgan plakat ham o‘ziga munosib o‘ringa joylashtirilgan.

Quvnoq musiqa sadosi ostida bolalar kirib keladilar va joylariga o'tiradilar.

**Bog'cha mudirasi:**– Aziz farzandlarim! Ulug' bayramingiz – O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni bilan barchangizni chin qalbidan tabriklayman! Xabaringiz bormi – bog'chamizga chet ellik mehmonlar kelar ekan. Sizlar mezbon, ularni kutib olasizlar.

**Tarbiyachi:**– Mehmon kutishni eplarmikanmiz? Qanday bo'larkan? Biz bayramga atab raqs va qo'shiqlardan chiroyli musiqali guldasta tayyorlagan edik. Shu tomoshani namoyish etsak, degandik.

**Mudira:**– Juda yaxshi! Konsert dasturingizni mehmonlar e'tiboriga havola etasizlar. Respublikamiz hayoti, azim shaharlari, aziz insonlari haqida bilganlaringizni aytib berasizlar. (Mudira chiqib ketadi).

**Tarbiyachi:**– Bolalar, sizlar nima deysizlar?

**1-Bola:**– Opajon, men yod olgan she'rimni o'qib bersam maylimi! (she'r o'qiydi). **2-Bola:**– Do'stlarim bilan birga xalq laparini ijro etaman, keeling o'rtaga jo'ralar! («Yallalo-yallo» lapari ijro etiladi).

**Mudira:**– (kirib).Qani, mezbonlar, mehmonlarni kutib oling! (Musiq mehmonxonasiga arab, turk, fransuz va amerikalik kichkintoylar kirib kelishadi. Bolalar chet tillardan birontasini o'rganishgan bo'lsa, o'sha tilda salomlashadilar. Mezbonlar ularga iltifot ko'rsatib o'tirg'izadilar).

**Tarbiyachi:**– Hurmatli bolalar, ota-onalar, aziz mehmonlar!Bugun diyoringizning turli burchaklarida, maktab-bog'chalarda, mahalla-xonadonlarda tantanali bayram – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni nishonlanmoqda. Ishchi va dehqonlar, olim va quruvchilar, tikuvchi va shifokorlar – hammalari bayramga munosib tayyorgarlik ko'rib, sovg'alar hozirladilar.Do'stlarimiz ham bayramga tashrif buyurdilar, bu nur ustiga nur bo'ldi. Bugun biz, istiqlolimizni. erkimizni, Mustaqilligimizni sharafloyamiz!

«O'zbekiston – quyoshli diyori» qo'shig'ini kuyladilar. (K.Kenjayevev musiqasi).

Mehmonxonaga zangori bantik taqqan, oq futbolka va yashil yubka kiygan qizlar kirib kelishadi. Ular qo'llarida yorug' yulduzchalar tutib, milliy bayrog'imizdagi yulduzchalarni eslatib, qator bo'lib turadilar.

**Tarbiyachi:**– Rahmat, sizlarga, yulduzchalar. Raqsingizni maroq bilan tomosha qildik. Endi o'zingiz haqingizda to'liqroq so'zlab bering!

«**Yulduzchalar**»:– Bizlar – o'n ikkitamiz. O'zbekiston Respublikasi milliy bayrog'ida biz ham aks etganmiz. Bayrog'imizdagi uch rangning

har biri o‘ziga xos teran ma’no tashiydi. («Yulduzchalar» davraga tushib, navbatma-navbat gapirib beradilar).

**Tarbiyachi:**– (bayroq oldiga kelib).«Yulduzchalar» to‘g‘ri aytishadi. Bugungi kunda bayrog‘imizni dunyodagi aksariyat davlatlar, xalqlar taniydi va biladi. Bayramimizga ishtirok etib, shodligimizni baham ko‘rayotgan mehmonlarimizni qutlaymiz. («Mehmonlar» turib ta‘zim qiladilar).

«Munojat» kuyi yangraydi.

**Tarbiyachi:**– (qadimgi kitobni qo‘liga olib, varaqlay boshlaydi). Bunday tantanali kunda ota-bobolarimiz, o‘tgan davlat arboblari-yu ulug‘ sarkardalarning nomlarini tilga olmaslikning iloji yo‘q. Chunki ular bizning faravon hayotimizni orzu qilib, bunday istiqloлга erishishimiz uchun kurashib, bu yo‘lda ijod qilganlar. (Tarbiyachi nomlarini eslagan buyuk siymolar – bolalar birin-ketin musiqali mehmonxonaga kirib keladilar).Beruniy, Al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Ibn Sino, Bobur, Mashrab, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, imom Buxoriy, at-Termiziy... (bu yerda shu hududda tug‘ilgan shaxslarni yodga olish mumkin). Bolalar ularni odob bilan o‘rinlaridan turib, ta‘zim bajo keltirib kutib oladilar, hurmat ila davraga o‘tqazadilar.

**1-bola:**– Bugun biz barcha bayramlar ichra eng e‘zozlisi – O‘zbekiston Mustaqilligini shodon nishonlaymiz!

**2-bola:**– Farzand bo‘lib maqtayman,  
Xursand bo‘lib maqtayman!  
Shu o‘lka suvin ichdim,  
Dilband bo‘lib maqtayman!  
Onajon, O‘zbekiston!  
Jonajon, O‘zbekiston!

(P.Mo‘min)

(O‘zbekiston haqida she‘rlar o‘qiladi. Qo‘shiq va raqslar ijro etiladi.)

**Tarbiyachi:**– Aziz mehmonlarimizni sayohat qildirsak bo‘lar edi, lekin ularni eng avvalo qayerga olib borsak ekan?

**Bolalar:**– Buxoroga, Xivaga, Samarqandga, Surxondaryoga, Toshkentga, Qo‘qonga, Andijonga...

**Tarbiyachi:**– O‘zbekistonning eng chiroyli va qadimiy shaharlarini tanladingiz-ku. **ammo ularga qanday borishni aytmadingiz!**

**Bolalar:**– Sehrli «qo‘qon arava»da!

**Tarbiyachi:**– Xayolimdan ko‘tarilibdi, to‘g‘ri aytasiz, sehrli aravaga chiqib, biz mehmonlar bilan bir zumda istagan joyimizga yetib borishimiz mumkin. Qani, ayting sehrli so‘zlarni!

O‘rtaga «sehrli arava» chiqadi va bolalar mehmonlar bilan birga yo‘lga otlanadilar.

**Bolalar:**

- Ezgulikdadir qudrat,  
Dilda yo‘q gina-kudrat,  
Yo‘l tanobin tortamiz,  
Termizjonga boramiz!

Shu tarzda «sehrli so‘z»larning oxirgi satri o‘zgarib, istalgan viloyatga borish mumkin. U yerda mehmonlarni raqs tushib, qo‘shiqlar aytib – tantanali ravishda kutib olishadi. «Andijon polkasi», Xorazm «Lazgi»si ijro etiladi va hokazo.

**Tarbiyachi:**– Bolalar, men mehmonlarimizning bir siridan ogoh bo‘ldim – ular sizlarga chiroyli sovg‘a tayyorlab kelishgan ekan. U nima ekan deb o‘ylarsiz? Mana, ko‘ring! (Mehmonlar ijrosida arabcha, turkcha va zamonaviy raqslar). Sovg‘alar sizlarga ma‘qul bo‘ldimi? Mehmonlarimizga chin dildan «RAHMAT» aytamiz-a?! Rahmat sizlarga, bizlarni juda xushnud etdingiz!

Bayramimiz yana davom etadi.

O‘zbek xalq kuylari sadosi ostida musiqa mehmon-xonasiga «Humo» qushi uchib kirib, jozibali raqs ijro etadi. Unga milliy libosdagi qizlar jo‘r bo‘ladilar va o‘yin so‘ngida tarbiyachi oldiga Humo qushini yetaklab keladilar.

**Bolalar:**– Qarang, bog‘chamizga Humo qushi uchib keldi! Tarbiyachi:– Bu xushxabaringiz uchun rahmat! Humo qushi gerbimizdan joy olib, O‘zbekiston yurtining baxt-saodat ramzini bildiradi, posboni sanaladi. Uni sevib, ardoqlang, aziz bolajonlar! Mehr-oqibatli, mehnatsevar bo‘lib kattalarni hurmat qilib, yurtimizning boyligiga boylik qo‘shib, Humo qushini abadul-abadga saqlang! (Qo‘shiq ijro etiladi).

Barcha bolalar bayroq oldiga kelib, tantanavor holda turib O‘zbekiston Respublikasi madhiyasiga jo‘r bo‘ladilar.

**Tarbiyachi:**– Rahmat, dilbandlarim! Sizlar porloq diyorumizning ertangi kunisiz! O‘zbekiston istiqlolining baxtli egasisizlar! Bayram davom etadi, bizni bog‘ va tomoshagohlar kutyapti! Yuring, shahar (qishlog‘imiz) ahliga qo‘shilib, umumxalq sayliga chiqaylik! Quvnoq musiqa sadolari ostida mehmonlar va mezbolar chiqadilar.

1-oktabr – «O‘qituvchilar va Murabbiylar kuni».

**Boshlovchi:** Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar! Sizlarni umumxalq bayrami – «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» bilan chin yurakdan tabriklaymiz!

Sizdan boshlanadi asl tafakkur,  
Munis muallimlar, sizga tashakkur!

(Abdulla Oripov)

**Bola:** Boshda fikr nuri – gavhar,  
Bolalarga ustoz sarvar.

Qalbi toza gullar qadar,

**Hamma:** Bu ustozlar, ustozlar!

**Bola:** Ishimizda gar sezsa nuqson,  
Yuragida turar to‘fon.

Tunlar bedor qiynaladi jon,

**Hamma:** Bu ustozlar, ustozlar!

**Bola:** Ishi bilan dili birdir,  
Do‘st-u yorga shirin tildir.

To‘lqin ura Amu-Sirdir,

**Hamma:** Bu ustozlar, ustozlar!

**Bola:** Mustaqillik xush zamona,  
Xush zamonga u parvona.

Yurtim, elim, deya yona,

**Hamma:** Bu ustozlar, ustozlar!

«Bog‘cha opa, bo‘lmang xafa» qo‘shig‘ini kuylaydilar. Gul va sharlar bilan «Bayramingiz muborak» raqsini ijro etadilar. Boshlovchi: Prezidentimiz Islom Karimov farmoniga binoan, 1997-yil 1-oktabrni «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» – umumxalq bayrami, deb ehlon qilindi.

Bolajonlar, ustoz deganda ko‘z oldingizga qanday insonlar namoyon bo‘ladi?

**Bola:** Bizlarga odob va axloqni o‘rgatuvchi opamiz.

**Bola:** Bizlarga turli xildagi aqliy va milliy o‘yinlar o‘rgatuvchi opamiz.

**Bola:** Ular bizga tinmay bilim beradilar, hisob-kitobni o‘rgatadilar.

**Bola:** Ulug‘larni eslashni,

Hikmatlarni yodlashni,

Vatanni e‘zozlashni,

Ham qo‘ynida yayrashni,

Bulbul bo‘lib sayrashni,

O‘rgatadi opamiz.

**Boshlovchi:** Barakalla, juda to‘g‘ri topdingiz. Ustoz ana shunday ulug‘ zotdir. Bugun qalbimizdan ona kabi joy olgan ustozlarga qancha shirin so‘zlar, she‘rlar aytsak, shuncha kam.

**Bola:** Assalom, aytamiz sizga azizlar!  
Ming kalom aytamiz, sizga ustozlar.  
Assalom so‘ziday aziz bo‘lingiz,  
Eng quvnoq, eng shodon inson bo‘lingiz.

**Bola:** Bugun bayram tantana,  
Bayramingiz muborak.  
Aziz ustoz, murabbiy,  
Ayyomingiz muborak!

**Bola:** Tongda turib opajon,  
Bizni deya shoshasiz,  
Bizni ko‘rib uzoqdan,  
Qaynoq quchoq ochasiz.

**Bola:** Sizdan oldik ko‘p bilim,  
O‘rgatingiz tolmasdan.  
Onalarni sevishni,  
Unga ko‘mak berishni.

**Bola:** Bu olamni asrashni,  
Odam bo‘lib yashashni.  
Bog‘da gulzor yaratib,  
O‘rgandik bog‘bon bo‘lishni.

**Bola:** Bog‘larimiz oralab,  
Gullar terdik saralab.  
Gullarning eng sarasin,  
Sizga berdik dastalab.

«Qari navo» o‘zbek xalq kuyiga raqs ijro etadilar.

**Boshlovchi:** Aziz bolajonlar, ustozlarning burch va vazifalari sizlarga ta‘lim-tarbiya berish bo‘lganidek, shogirdlarning ham o‘z ustozlari oldida burch va vazifalari bor. Qani, ana shu burch haqida kin aytadi?

**Bola:** Ustozlarga itoatli bo‘lish, nasihatlariga rioya qilish.

**Bola:** Ustozning dushmani bilan do‘st tutinmaslik.

**Bola:** Ustozning qarindosh-urug‘larini hurmat qilish.

**Bola:** Ustozning quvonch va qayg‘usiga sherik bo‘lish.

**Bola:** Ustoziga hamisha rost so‘zlash.

**Bola:** Ustozini xafa qilmaslik, uning sirlarini saqlay bilish.

**Bola:** Ustozi oldida xokisor bo‘lish.

**Bola:** O‘zining yomon odatlarini tark etish.

**Boshlovchi:** Barakalla, bolajonlar, javoblaringiz meni mamnun etdi. Men buvijonimdan eshitgan bir rivoyatni aytib beraman. (Rivoyat aytadi.)

**Boshlovchi:** Aziz ustozlarni ulug‘lovchi qanday maqollarni bilasiz?

**Bola:** Ustoz – otangday ulug‘.

**Bola:** Ustoz ko‘rmagan shogird, olam sirini bilmaydi.

**Bola:** Ustozlar aqli – donolar naqli.

Bolalar «Yurtim» qo‘shig‘ini kuylaydilar (G.Qo‘chqorova musiqasi).

**Boshlovchi:** Mana shunday mashuliyatli kasb egalari bo‘lmish ustoz murabbiylar, jajji bolajonlarga bor mehrini berib, sabr-toqat bilan mehnat qilayotgan tarbiyachilar, butun xalqimizning har bir kuni bayram bo‘lsin!

### **Mehrjon – bayram sayli**

**Zal bayram ko‘rinishida bezatilgan. Bolalar musiqa sadolari ostida zalga kirib keladilar.**

**1-boshlovchi:**

– Kuz keldi o‘lkam bo‘ylab,

Mardlik qo‘shig‘in kuylab,

Bizning go‘zal yurtimizda,

To‘kin-sochin yo‘lida.

Kuz bizga keldi.

Shirin-shakar mevalar.

Sabzavot, qovun, tarvuz,

Oppoq paxta, bug‘doy kon.

Hadya qildi bizlarga,

To‘kin-sochin dasturxon.

2-boshlovchi:— Aziz mehmonlar va qadrli bolajonlar, sizlarni Mehrjon – hosil bayrami bilan tabriklaymiz! Mehrjonning fasllar orasida alohida o‘rni bor. Yurtimiz noz-n‘matlarga mo‘l-ko‘lligi paytida, ayni pishiqchilik pallasida bayram qilinadi. Bahorda Navro‘z bayramini keng nishonladik. Bugun esa, Navro‘zning birodar ukasi, Mehrjon bayramini nishonlayapmiz. Ular zaminning ikki ko‘zidir.

**Bola:**– Bugun, Navro‘zga esh to‘y,

Hosil to‘ydir, Mehrjon.  
Mehrardan turilgandir,  
Hosil to‘yim, Mehrjon.

**Bola:**– Navro‘z ila Mehrjon  
Yetsin mangulik davom.  
Zamin qosh-ko‘zi ular,  
E‘tiqod shudir mudom.

**Bola:** – Salom, sayri kuzimiz,  
Chetda qolmang odamlar.  
Bugun Navro‘zga esh to‘y,  
Hosil to‘yim, Mehrjon.

Bolalar «Vatanim» qo‘shig‘ini kuylaydilar. (F.Nazarov musiqasi).

Chaman-chaman bog‘larga,  
Sayroqi bulbullarga,  
Toshqin daryo ko‘llarga,  
Joydir go‘zal Vatanim.  
Ko‘kni quchgan kuylarga,  
Boydir go‘zal Vatanim.  
Yagonadir chiroying,  
El bag‘ridk bag‘ring kng,  
Sen hayot, ilxom berding,  
Yor bo‘l, go‘zal Vatanim.  
Porlar g‘olib bayrog‘ing,  
Kundik yorug‘ chirog‘ing,  
Boylikka kon har yog‘ing,  
Bor bo‘l, go‘zal Vatanim.

Katta guruh bolalari qo‘llarida barglar bilan doira bo‘lib turadilar. «Oltin barglar» qo‘shig‘ini kuylaydilar. Qo‘shiqning so‘z va musiqasiga mos harakatlar bajaradilar.

**Boshlovchi:** – Bolalar, men sizlarga topishmoq aytaman, sizlar esa topishmoqni qunt bilan tinglab, o‘ylab topishingiz kerak. Topishmoqning nomi, «Bu qanday fasl?» deb nomlanadi. Kunlar borgan sari qisqaradi. Dehqonlar yrga ekan sabzi, piyoz, kartoshka, karam va paxtalarni yig‘ib-terib oladilar. Qaldirg‘och, turna, mayna va boshqa qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar. Olmaxonlar yong‘oq yig‘adilar. Qani, aytinglar-chi, bu o‘zgarishlar qaysi faslda ro‘y bradi?

**Bolalar:**– Kuz faslida.

**Boshlovchi:**– Juda to‘g‘ri topdingiz. Xalqimiz bu faslda sabzavot va mevalardan mo‘l-hosil yig‘ib-trib oladilar. Shuning uchun, Mehrjon bayrami kuz faslida nishonlanadi. Shu payt eshik taqillab, «Kuz» kirib k-ladi. U boshiga kuzgi barglardan chambarak taqqan, egnida yashil ko‘ylak, ko‘ylakka kuz barglari qadalgan.

**Kuz:**– Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar. Salom, aziz kichkintoylar! (Bolalar salomi). Hammangizni ulug‘ ayyom Mehrjon bayrami bilan tabriklayman!

**Bola:** – Salom snga oltin kuz!  
Seni xushlab kutdik biz.  
Sen juda yaxshi kelding,  
Sovg‘alarga nima keltirding?

**Bola:**– Keldi kuz chog‘i,  
Mevalar pishdi,  
Daraxtlar shoxi  
Egilib tushdi.

**Bola:** – Oldik ko‘p hosil,  
O‘rik, olma, nok.  
Shakardek asal  
Uzum qildi tok.

**Bola:** – Bizning polizda  
Qovun-tarvuz ko‘p.  
Yetildi kuzda  
Suyib yedik xo‘p.

**Bola:**— Sen olma va asalni  
Ob keldingmi ham donni?  
Sabzi, piyoz, karamni,  
Qovun, tarvuz, uzumni?

**Kuz:**– Rahmat, sizga bolajonlar. Kuz faslini juda sevar ekansizlar.  
Meni derlar oltin kuz,  
Xirmonda hosil to‘kin.  
Tayyorlanar barcha xalq,  
Katta bayramga bu kun.

Turli sabzavotlarning atributlarini taqqan bolalar yarim doira bo‘lib, turib oladilar.

**1-sabzi:**– O‘zim sariq,  
Bargim yashil.  
Osh bo‘lmaydi  
Mensiz asli.

**2-sabzi:** – Uy ro‘zg‘orda tengim yo‘q,  
Sabzi tansiq, beg‘ubor.  
Shu palovni palov qilgan,  
Vitamin ham desangiz.  
Arzigudek karsillatib,  
Non o‘rniga yesangiz.

**Tarvuz:**– Yum-yumaloq tarvuzcha,  
Yeb ko‘ringlar to‘yguncha.

**Piyoz:**– Hamma mendan qochishar,  
To‘g‘rasang ko‘z achishar.  
Sen ko‘p qayg‘urma, ham kuyma,  
Biz chapak chalaylik, sen o‘yna.

Quvnoq musiqa sadosi va qarsak ostida «piyoz» raqsga tushadi.

**1-karam:**– Qat-qat to‘nimiz bor,  
Qarich-qarich bo‘yimiz bor,  
Biz ham karam  
To‘nimiz taram,  
Rangimiz barikaram.

**2-karam:**– Bizni hamma sevadi,  
Karam sho‘rva qiladi.

Sabzavotlar o‘yinga tushadilar va uch qator bo‘lib turib oladilar.

**Boshlovchi:**– Bizning polizimizda,  
Hosilimiz juda ko‘p.  
Ammo har kim kirolmas,  
Qorovuldan o‘tolmas.  
U tartibni sevadi,  
Har qatorni biladi.

Ketmon ko‘targan Vali qorovul qo‘lini peshonasiga qo‘yib, uzoqqa tikiladi «poliz» tomon keladi. O‘z ekinlarining tagini yumshatib, tekislab qarab qo‘yadi.

**Vali:**– Juda qiyin mning ishim,  
Og‘riyapti biqinim, blim,  
Endi ozroq dam olay,  
Mana bu yrga yotaqolay.  
Bir oz mizg‘igani yotadi.

**Boshlovchi:**– Hozir Vali banddir juda.  
Ishlaydi u tun-u kunda,  
Uxlab qoldi charchab juda,

Shu payt xo‘roz paydo bo‘lib, ekinzorning ichiga kirib ketadi.

**Xo‘roz:** – Mana men xo‘rozjon, xo‘roz,  
Ku-ku-ku.  
Qorovul yaxshi polizda,  
Ovqat bo‘lsa yonida.

Xo‘roz tarvuzni olib ktadi, so‘ngra g‘oz kirib keladi.

**G‘oz:**– Mana men, g‘oz-g‘ozvoy,  
Hech kim yo‘qmi, hoy-hoy?  
Qanday yaxshi polizda,  
Ovqat bo‘lsa yonimda.

G‘oz piyozni olib ktadi, so‘ngra echki kirib keladi.

**Echki:** – Mana men echkijon, echki,  
Me, me, me.  
Qanday yaxshi polizda,  
Ovqat bo‘lsa yonimda.

Echki sabzini olib ktadi. Shu payt sakrab-sakrab quyoncha kirib keladi.

**1-quyon:**– Kelib qoldi omadim,  
Polizga tushib qoldim.  
Keling shalpang quloqlar,  
Sabzi, karam yeb qoling.

Yana bir quyoncha kirib keladi.

**1-quyon:** – O‘rtoqjon qaragin, polizda katta-katta, sersuv karamlar o‘sib yotibdi, kel mazza qilib yeymiz. Ular bittadan karamni ushlab, raqsga tushadilar, shu payt Vali qorovul uyg‘onib qoladi.

**Vali:**– Ha, endi qo‘lga tushdinglarmi? Endi mendan qochib qutulolmaysizlar. Quyonlar tutqich bermay karamlarni olib qochib ketadilar. Vali jahli chiqib kelib to‘nkaga o‘tiradi.

**Vali:** – Qani karam, qani sabzilar? Piyozlar yo‘q, ko‘katlar ko‘rinmaydi. Sho‘rim quridi, endi nima qilaman? Polizda hech nima qolmabdi-ku? Xo‘roz bilan echki kirib keladi.

**Xo‘roz:** – Qu-qu-qu! Xafa bo‘lma, azizim Vali. Sen hushyor bo‘la olmading. O‘z ishingga bo‘sh qarading. Endi bunday qilmagin. Biz sening oldingga bayramni birga o‘tkazgani keldik.

**Echki:** – Ammo sen bilib qo‘ygin,  
Bunday uxlab qolmagin.  
Qo‘riqlashmi istaging?  
Postingda hushyor turgin.

**Vali:**– Ko‘p rahmat, unutmayman. Endi sizlar bilan o‘ynayman.

**Boshlovchi:**– Voy, qanday yaxshi bo‘ldi, kelganlaringiz. Biz bolalar bilan Mehrjon bayramini nishonlayotgan edik. Marhamat, mehmonimiz bo‘linglar!

**She‘r:**«Kuz keldi»

Kuz keldi bizlarga oltin kosada.  
Sharbat ola keldi, bol ola keldi.  
Savat-savat qilib shirin mevalar,  
Omborlar liq to‘la don ola keldi.  
Keng vodiylar bilan, dala bilan bir,  
Paxta ola keldi, shon ola keldi.

«Oltin kuz» qo‘shig‘ini kuylaydilar.

Qanday mehnat biz qildik,  
Hosilingni biz yig‘dik,  
Bog‘laringda mevalar  
Polizlarda qovunlar.

Naqorat:

Oltin kuz, oltin kuz,  
Mevalaring hosil kuz.  
Sariq barglar to‘kildi,  
Xuddi oltin sochildi,  
Quyosh tillo nurlarin  
Dalalarga sochvordi.

Naqorat:

Olma-gilos daraxtda,  
Asal-asal arida.  
Keling-keling, mxmonlar,  
Bor hosilga baraka.

Naqorat:

– Kuzimizning guzalligin,  
Og‘aynilar ko‘rganmisiz?  
Tokdan husayni, yrdan qirqma,  
Shoxdan bhi uzganmisiz?  
Uzum uzib, sharbat siqib,  
Shinniga o‘t yoqqanmisiz?  
Gala, gala shoda-shoda,  
Duv-duv yong‘oq qoqqanmisiz?

**She‘r:**

**Bola:**– Go‘zal mening Vatanim,  
Mning aql-u boyligim.

Paxtalarning konidir,  
Jonim uning jonidur.

«Paxtoy» qo‘shig‘ini kuylab, qizlar «Paxta» raqsini ijro etadilar.

**Qiz:**– Vatanimga boyliksan,  
Ochilganda oydeksan,  
Muncha ham chiroylisan,  
Paxtajon, paxta!

**Kuz:** – Bolajonlar, siz she‘rlarni, qo‘shiqlarni yaxshi aytar ekansizlar. Raqsga ham chiroyli tushar ekansiz. Men miriqib tomosha qildim. Qani aytinglarchi, topishmoq aytsam topasizlarmi?

**Boshlovchi:** – Bizning bolalar, juda topag‘on. Ayting topishmog‘ingizni.

**Kuz:** – Agar men sizga aytsam,  
To‘ni yashil beqasam.  
To‘ni ustida oq yo‘l,  
Hosili sersuv, mo‘l-ko‘l  
Yulduzchadek guli bor,  
Urug‘i ichra qator  
Chanqoqni bosar biling.

**Bola:** – Aytaymi, bu – bodring.

**Kuz:**– Voy, birpasda topdingiz.  
Yana bitta topishmoq aytaman.  
Rangidir to‘g‘ gunafsha,  
Qovurilar hamisha.  
Tani silliq, uzunchoq,  
Ichi urug‘li oppoq.  
Lazzati o‘ziga xos,  
Bir dona yedim paqqos.  
Dedim, dehqonga jon-jon.

**Bola:** – Nomi esa, – baqlajon!

**Kuz:**– Bolajonlar, judayam topog‘on ekansizlar, meni xursand qildinglar.

**Boshlovchi:**– Oltin kuz, bizning bolalar raqs ijro etadilar. Marhamat tomosha qiling!

**Kuz:**– Voy, qanday yaxshi.

Katta guruh bolalari «Andijon polka» raqsini ijro etadilar.

**Kuz:**– Aziz bolajonlar, sizlar bilan bayramni juda maroqli o‘tkazdim. Men yana bog‘chalarga borib, jajji do‘stlarimni bayram bilan tabrikelashim kerak. (Xayrlashib, chiqib ktadi).

**1-boshlovchi:**– Dilimday baxtiyor, O‘zbekistonim,  
Yashnagan paxtazor, O‘zbekistonim,  
Ming yasha, bo‘lma xor, O‘zbekistonim.  
Qo‘lda baxtnomang bor, O‘zbekistonim,  
Hosil bayraming muborak, O‘zbekistonim!

**2-boshlovchi:**–Ishsvar qo‘llaring paxta ekadi,  
Dovrug‘ing chki yo‘q, ko‘kka tadi.  
Quvonchdan yuragim irg‘ib tpadi,  
G‘alaba kuyin chal, O‘zbekistonim,  
Mo‘l hosilga to‘l, O‘zbekistonim!

«Chamandagi gullarmiz» qo‘shig‘ini kuylaydilar. (P.Mo‘min, N.Norxo‘jav musiqasi).

1-boshlovchi:– Aziz bolajonlar, hurmatli mehmonlar! Mehrjon bayramiga bag‘ishlangan ertaligimiz ham o‘z nihoyasiga yetdi. Hammangizni yana bir bor bayram bilan qutlaymiz! Sizlarga sihat-salomatlik, quvnoq kayfiyat, bir-biringizga nisbatan Mehr-oqibat tilaymiz.

Bolalar musiqa sadolari ostida zaldan chiqib ktadilar.

### **Bolalar bog‘chasida «Navro‘z» bayramini nishonlash**

Bayram ertaliklari bog‘cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Navro‘z bayramida uyg‘onayotgan borliq – tabiat ulug‘lanadi. Qadriyat, urf-odat, udumlarimizni aks ettiruvchi mazkur bayram tabiat uyg‘onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat g‘ozalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko‘kalamzorlashtirish, mehnatni ulug‘lash kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Qo‘shiq-yallalar kuylanadi, o‘lan aytishuvlar va turli xil qiziqarli o‘yinlar o‘tkaziladi. Bu bayramni bog‘cha sharoitidan kelib chiqqan holda, zalda yoki hovlida o‘tkazish mumkin. Qadimda sharq xalqlari o‘z sayllariga odamlarni karnay-surnay orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy cholg‘u asboblaridan foydalanish lozim. Badiiy qisimda quvnoq qo‘shiqlar yangraydi.

#### **«Navro‘z – bahor bayrami»**

Zal bayramona bezatilgan. «Chamanda gul» (o‘zbek xalq musiqasi) kuyi yangraydi. Zalga quv nab, o‘rta guruh bolalari kirib keladilar.

**Boshlovchi:**

Maysa boshin ko‘tardi yerdan,  
Gul bahordan bermoqda darak.  
Qushlar qo‘shiq, soz, kuy bilan,  
Gul bahordan bermoqda darak.

(M Abdusamatova)

Assalomu alaykum, shirin shakar o‘g‘il-qizlarim! Atrofga bir nazar tashlang. Qanday chiroyli! Tabiat yashil libosga o‘rangan. Yilning eng chiroyli faslida qir-adirlarda chuchmoma, boychechak, lolaqizg‘aldoqlar ochilgan. O‘lkamizda bahor kezmoqda. Bu faslda qanday bayramni nishonlaymiz?

**Bolalar:** Navro‘z bayramini nishonlaymiz.

**Boshlovchi:** Juda to‘g‘ri, Navro‘zni har yili zo‘r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo‘lib qolgan. Qo‘shiqlar aytib, raqsga tushganlar. Xursandchilik qilganlar.

Karnay-surnay sadosi yangraydi. Beqasam chopon kiyib, beliga qiyiqcha bog‘lagan, oyog‘iga etikcha kiygan bola ot (butaforiya) minib zalga kiradi.

**Bola:** Ho-oy , bolalar-u, bolalar! Eshitmadim demanglar! Bugun bog‘chamizda Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan katta sayl bo‘ladi. Hammangizni saylga taklif etaman ( Jarchi chiqib ketadi).

**Boshlovchi:** Voy, qanday yaxshi bolalar. Mana, biz ham saylda qatnashadigan bo‘ldik. Endi navbat, sizlarga. Marhamat bolalar!

**1-bola:** Biz bahorda chiqamiz,  
Dalalarga, bog‘larga.  
Gul-lolalar ochilgan  
Ko‘m-ko‘k maysazorlarga.

**2-bola:** Bir tomonda qizchalar  
Gullar terib o‘ynashar.  
Bir tomonda qushchalar  
Bizni qutlab sayrashar.

**3-bola:** Dalalarda ochildi  
Gunafshalar, lolalar.  
Bizga uchib kelishdi  
Mayna, bulbul, sahvalar.

**4-bola:** Qo‘llarida soz bilan,  
Gul-g‘uncha pardozi bilan.  
Uchib turna g‘oz bilan,

O‘kamizga bahor keldi.  
Bahorni kuting bog‘da,  
Bog‘ emas, dala joyda.  
Qushlar sayragan chog‘da  
Sevimli bahor keldi.

Bolalar «Gullar» qo‘shig‘ini kuylaydilar (J.Najmiddinov musiqasi)  
qizlar gullar bilan raqsga tushadilar.

**Boshlovchi:** Rahmat, qizlar, juda chiroyli raqsga tushdingiz.

**1-bola:** Bahor keldi. Gul bahor, Etagida gul tutib.

Bizga intiq lolazor, Qirlar bag‘rida kutib.

**2-bola:** Atrof to‘la har xil gul, Chuchmoma-yu, binafsha.

Bizning ko‘klamlar butkul Chiroylidir hamisha.

**3-bola:** Binafshaxon, binafsha, kulishlaring chiroyli.

Bog‘imizda ochilib, turishlaring chiroyli.

Bolalar tarafma-taraf bo‘lib, «Bizdan sizga kim kerak?» aytim  
o‘yinini aytishuv tarzida qo‘llaydilar. (Y.Qurbonov she‘ri, M.Nasimov  
musiqasi).

Shu payt momoqaldiraq gumburlaydi.

**Boshlovchi:** Bolajonlar, eshityapsizmi, momoqaldiraq gumburla-  
yapti. Hozir yomg‘ir quyadi. Tezroq panaga o‘tamiz.

«Yomg‘ir yog‘aloq» o‘zbek xalq bolalar qo‘shig‘ini kuylaydilar.

**Boshlovchi:** Mana, bolalar, yomg‘ir ham yog‘ib o‘tdi. Qarang,  
quyosh charaqlab chiqdi. Voy, eshik taqillayapti. Qaray-chi, kim ekan?

(Kamalak qizchani boshlab kiradi.) Bolajonlar, kamalakoy  
mehmon bo‘lib kelibdi. Kiraver, kamalakoy!

**Kamalak:** Assalomu alaykum, bolalar!

**Hamma:** Vaalaykum assalom, kamalakoy.

**Boshlovchi:** Kelganing juda yaxshi bo‘ldi-da, kamalakoy. Bizning  
bog‘chamizda Navro‘z sayli bo‘lyapti. Bolalar, kamalakning ko‘yilagiga  
qaranglar, juda rang-barang ekanmi?

**Bolalar:** Oq, qizil, sariq, yashil. Lentasi ham turli rangda ekan.

**Kamalak:** Sizlarni, Navro‘z – bahor bayrami bilan tabriklayman!  
Sizlarga gulchambarlar, tol bargidan sochbargaklar keltirdim, mana  
taqib olinglar. Bolalar boshlariga gulchambarlar, sochbargaklarini  
taqadilar, kamalaklar bilan birgalikda qo‘shiq kuylaydilar, o‘rtada ikkita  
qiz raqsga tushadi. «Qo‘shig‘imiz avjida» aytim-o‘yinini ijro etadilar.  
(F.Komilov she‘ri, T.Azimov musiqasi.)

Qoshig‘imiz avjida,  
Laylum, lalalum.

O'rtaga tush Mayjuda,  
Laylum, lalalum.  
Bizlarga jo'r bo'linglar,  
Laylum, lalalum.

She'r: «Chuchmoma».

**Bola:** Xipcha belli ey, ko'kat,  
Qaysi bog'ning gulisan?  
Ochig'ini bizga ayt,  
Qaysi fasl sunbulisan?  
Men o'tloqning qiziman,  
Onam bahor, chuchmoma.  
Men bahor, yulduziman,  
Men chuchmoma, chuchmoma!

«Baxtiy erkatoiy» hazil qo'shig'ini kuylaydilar (T.Toshmatov musiqasi).

**Boshlovchi;** Bolalar, endi musobaqa o'ynaymiz. Avval qizlar, so'ngra o'g'il bolalar musiqaga mos raqsga tushadilar. Marhamat, qizlar! Qizlar «Asp bo'laman» o'zbek xalq musiqasiga, o'g'il bolalar esa «Chertmak» o'zbek xalq musiqasiga raqsga tushadilar.

**Boshlovchi:** Qani kamalak, ayt-chi, kim raqsga yaxshi tushdi?  
Qizlarmi yoki o'g'il bolalar?

**Kamalak:** Qizlar ham, o'g'il bolalar ham musiqaga mos raqsga tushdilar. Rahmat, do'stlarim. Endi men boray. Shu payt patnisda ko'k somsalar ko'tarib, «Cho'pon bola» kiradi.

**Cho'pon bola:** Assalomu alaykum!

**Hamma:** Assalomu alaykum!

**Cho'pon bola:** Meni tanidingizlar-a? Men cho'pon bola bo'laman!  
Dadam, oyim, akalarim bilan anavi qirda yashaymiz, o'sha yerda qo'y boqamiz. Uzoqdan sizni saylga chiqqaningizni ko'rib qoldik. Oyimlar ko'k somsalar yopib, sumalak pishirib, sizlarga berib yubordilar.

**Boshlovchi:** Cho'pon bola, sen juda vaqtida kelding-da. Mana, kamalak ham shu yerda.

**Cho'pon bola:** Juda yaxshi. Hammamiz birgalikda ko'k somsa yeymiz. «Chamanda gul» kuyi yangraydi. Hammalari gilamchaga o'tirib, ko'k somsa va sumalakdan tanavvul qiladilar.

**Kamalak:** Bolalar, sizlarga katta rahmat. Sayl menga juda yoqdi. Endi har yili Navro'z bayramini sizlar bilan birga nishonlayman. Xayr, bolalar!

Cho‘pon bola ham xayrlashib, chiqib ketadi.

**Hamma:** Xayr kamalak, xayr cho‘pon bola.

Bolalar uchtdan, to‘rttdan bo‘lib, to‘p-to‘p bo‘lib, qizlarning boshida gulchambar, sho‘x-shodon quvnashib, sayl haqida gaplashib, chiqib ketadilar.

Bolalarning MTMda musiqiy faoliyatini tashkil etish va jihozlash Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaviy tarbiyasi va rivojlanishi mashg‘ulotlarda, kundalik hayotda takomillashadi. Bolaning o‘zidagi musiqaga bo‘lgan qiziqishini tarbiyachi yoki gubernor musiqani bolaning kundalik hayotida ertalabki badantarbiyada, mashg‘ulotda aniq qilib beradi. Tarbiyachi yoki bolalar hayotini shunday tashkillashtirishi kerakki, ular turli xil qiziqarli bo‘lishi shart. O‘qitish jarayonida olgan bilimlarini esa bolalar hayotida mustaqil bajara olsinlar. Shu maqsadda pedagog, musiqa bolalar hayotida o‘z o‘rnida ishlata olishni yo‘llarini o‘ylab topishi kerak. Shunday lahzalarni ko‘rib chiqamiz:

#### 1. Sayr vaqtida musiqa.

Musiqa har xil holatda bolalarga har xil ta’sir qilishi mumkin. Masalan, o‘rmon yo‘laklarida shodon qadam tashlab kelayotgan bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan sho‘x-shodon kayfiyatda kuylab borishmoqda. Atrofni kuzatish paytida musiqa atrof-muhitni yanada go‘zal qilib ko‘rsatadi, atrof-muhitga yanada qiziqish uyg‘otadi. Shunday holatlarda maydonchada bolalar chumchuqlarga non ushoqlarini berib boqqanda, ularning diqqatini sho‘x bir chumchuqcha tortadi, u boshini aylantirib, oyoqlarida u yoq bu yoqqa quvnoq sakraydi. Tarbiyachi B.Giyenkonig «Chumchuq» ashulasini aytadi. «Chiriq-chiriq, chirq-chiriq, bog‘otda sayrar chumchuq».

Musiqa mashg‘ulotlarining tarbiyaviy vazifa va maqsadlari	Musiqa mashg‘ulotlarining ta’limiy vazifa va maqsadlari
Bolalarda harakat uyg‘unligini oshirish, ritmgaga mos qadam tashlash, yengil yugurish, oyoq to‘pillatish va qo‘llar bilan mashqlar bajarishga o‘rgatish.	Bolalarning musiqiy-ritmik ko‘nikmalarini rivojlantirish.
Asarni mazmuniga ko‘ra qismlarga ajrata olish hamda harakatda ifodalash	Musiqa ohangini his etish va musiqa tinglash madaniyatini

malakalarini oshirish.	shakllantirish.
Quvnoq va g'amgin musiqa ohanglarini farqlashga, ketma-ket tovushlarni kuylashga o'rgatish.	Bolalarda musiqani his etish, kuylash va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirish.
Davr bilan hamohang, faslga mos qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish.	Musiqa jo'rligida ovozning sof va jarangdorligini rivojlantirish.
O'zbek xalq raqs elementlarini musiqa jo'rligida o'rgatish va ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash.	Raqs san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish.
Bolalarni milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirish. Zarbli va torli asboblarda ijroga o'rgatish.	O'zbek milliy cholg'ulariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.
O'yin davomida harakat ijodkorligini oshirish.	Bolalar faolligi hamda jamoaviyligini oshirish.

Musiqa mashg'ulotlari  
o'rta guruhda – 20-25;  
katta guruhda –25-30;  
tayyorlov guruhida – 30-35 daqiqa davomida olib boriladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Turli yosh guruhlarida o'tiladigan bayramlarni farqlab bering?
2. Bayramlarda ishtirok etishda tarbiyachining o'rni qanday?
3. Bolalar bog'chalarida nishonlanadigan asosiy bayramlarga qaysi bayramlar kiradi?
4. Dastur tuzilayotganda nimalarga etibor qaratish kerak

## **BOLALAR UCHUN ASARLAR YOZGAN KOMPOZITORLARI VA BASTAKORLAR.**

### **Mutal Burhonov (1916—2002)**



O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi musiqa sining muallifi, O‘zbekiston xalq artisti, Hamza va berdaq nomidagi Davlat mukofotlari sovrindori Mutal (Muta vakkil) burhonov hayoti va ijodiy faoliyati zamonaviy o‘zbek professional san’atining rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mutal Burhonov 1916-yil 5-mayda Buxoro shahrida tug‘ildi. bolaligidan musiqaga qiziqdi va mehr qo‘ydi. Bolalik davrida oldin eski diniy maktabda, so‘ngra yangi maktablarda o‘qidi. tanbur chalishni avval amakisidan, so‘ngra Ota g‘iyos abduq‘anidan o‘rgandi. 1928—1932-yillarda samarqandda O‘zbekiston musiqa va xoreografiya institutida ta’lim oldi. O‘qishni bitirgach, 1932—1935-yillarda toshkentda Hamza va Dushanbeda. Loxutiy nomidagi drama teatrlarida sozanda va musiqa rahbari lavozimlarida ishladi, musiqa bastalashga intildi. 1935-yilda Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan «O‘zbek opera studiyasi»da tahsil oldi. 1938-yilda moskva konservatoriyasida professor s.n.vasilenko sinfida o‘qishni davom ettirdi. ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko‘ngil lilar armiyasi safida moskva shahri himoyasiga otladi. 1942-yili qattiq betob bo‘lib, toshkentga qaytib davolandi, ijod bilan shug‘ullandi. 1946-yildan o‘qishini davom ettirib, 1949-yili moskva konservatoriyasi kompozitorlik fakultetini muvaffaqiyatli tugalladi. utalabalik davridayoq ilk ijodini atoqli shoir a.Loxutiy she’rlariga bastalagan «Ey bulbul» romansi va «buti nozaninam» (Mening go‘zalim) qo‘shig‘idan boshladi. mutal burhonov «Maftuningman», «Samolyotlar Qo‘nolmaydi», «Surayyo», «Boy ila xizmatchi», «abu ali ibn sino» kinofilmlariga qo‘shiqlar yozdi.

ubirinchilardan bo‘lib romans janrini respublikamiz musiqiy hayotiga joriy etdi. ulug‘ shoir alisher navoiy g‘azallariga bastalagan «tabassum qilmading» va Hofiz g‘azaliga yakkaxon va simfonik orkestr uchun «namedonam chi nom dorad» (isingni bilmayman) romans-poemasi alohida o‘rin tutadi. yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «gullagay O‘zbekiston» kantatasi, «bahor qo‘shiqlari» vokal-simfonik poemasi, «Oq oltin» vals-qo‘shiq poemasini yaratdi. alisher navoiyning 525 yilik yubileyiga bag‘ishlab abdulla Oripov bilan hamkorlikda «alisher navoiyga qasida» vokal-simfonik poemasini yaratdi. m. burhonov birinchilardan bo‘lib, o‘zbek, tojik, uyg‘ur, afg‘on va eron xalq qo‘shiqlarini: «go‘zal qizga», «sari kuxi baland», «gulli gandum», «bibigul» asarlarini xor uchun moslashtirdi. «alisher navoiy», «Hikmat», «Oygul va baxtiyor» spektakllari uchun musiqalar yaratdi. bolalar xori uchun «vatan bizga mehribon», «buxoroyi sharif», «Ochil paxtaron», «ey ulug‘ ustoz» kabi qo‘shiqlarga kuy bastaladi. yakkaxon xor va simfoniya orkestr uchun besh qisimli «abadiy xotira» nomli «Rekviyem» yaratgan. bu asar qatag‘on yillarda qurbon bo‘lgan o‘zbek xalqining ulug‘ farzandlari xotirasiga bag‘ishlangan. kompozitor mutal burhonov O‘zbekiston musiqa madaniyati rivojlanishida buyuk xizmatlari uchun O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazavor bo‘ldi. «mehnat shuhrati» medali, O‘zbekiston, Tojikiston va Beloruss hukumatlari faxriy yorliqlari bilan mukofotlandi.

### **Muxtor Ashrafiy (1912—1975)**



Muxtor ashrafiy, O‘zbekiston xalq artisti, xalqaro va Respublika mukofotlari sovrindori, kompozitor, dirijor, muallim, yirik jamoat

arbobi.muxtor ashrafiy 1912-yil 11-iyunda Buxoroda tug'ildi, juda yoshligidan boshlab musiqaga qiziqdi. ashrafiy bolaligida madrasada, so'ngra yangi tipdagi boshlang'ich maktabda ta'lim oldi. 1924-yilda musiqa texnikumida va maorif institutida o'qidi. 1928-yilda samarqanddagi O'zbek musiqa va xoreografiya institutiga o'qishga kirdi. mana shu yillarda uning dastlabki ijodiy ishlari — bir ovozli xorlar va qo'shiqlari yaratilgan edi. 1929-yilda u Sh. Ra mazonov va T.Sodiqov bilan birgalikda «sadrash» marshini yaratdi va o'zi talabalar simfonik orkestriga dirijorlik qildi. 1930-yilda muxtor ashrafiy O'zbek Davlat musiqali drama teatrining bosh dirijori qilib tayinlandi. 1934—1937-yillar davomida u Moskva konservatoriyasi qoshidagi opera studiyasida taniqli bastakor n.vasilenkodan musiqa ijodi nazariyasi bo'yicha ta'lim oldi. 1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan O'zbek san'ati dekadasiga dirijor qilib tayinlandi. Toshkentga qaytib kelgach, o'zbek opera va balet teatrining bosh dirijori va badiiy rahbari lavozimiga tayinlandi. 1939-yil muxtor ashrafiy s.vasilenko bilan birga «bo'ron» operasini yozdi (k.yashin librettosi), oradan bir yil o'tgandan keyin esa, bu ikkala bastakorning boshqa bir asari — «ulug' kanal» operasi yaratildi (k.yashin va m. Rahmonov librettosi). ulug' vatan urushi yillarida muxtor ashrafiy «Jangga boraman», «Qasam», «sevgilimga salom», «Jangda botir bo'l» kabi vatanparvarlik ruhida qo'shiqlar, «turon», «ulug' kanal» va «sherali» asarlaridagi ayrim nomerlar asosida skripka bilan fortepiano uchun kichik pyesalar yaratdi. 1958-yil fevral oyida Toshkentda ashrafiyning «Dilorom» operasi (k.yashin va m.muhammedov librettosi) sahnaga qo'yildi. so'ngra 1962-yilda uning boshqa bir operasi — «shoir qalbi» (izzat sulton librettosi) yaratildi. m.ashrafiy 1964-yilda b.bargi pyesasi asosida «mirzo izzat Hindistonda» sahna asarini yozdi. 1963—1964-yillarda sadriddin ayniy xotirasiga bag'ishlab «temur malik» simfonik poema ropsodiyasini, «bayram uverturasi»ni, «sadoqat» (Habibiy she'ri), «ajoyib tun» (ya. Qurbon she'ri) va «ko'zlari ofatijon» (t.to'la she'ri) qo'shiqlarini yozdi. bastakor 1965—1970-yillar mobaynida «sevgi tumori» baletini, simfonik orkestr va ovoz uchun «Ona mehri» romansini, «Jangovar kunlarda» vokal simfonik poemasini, simfonik orkestr uchun «subhidamda» xoreografik manzaralarini yaratdi. «Dilorom» va «shoir qalbi» operalari musiqalari asosida simfonik orkestr uchun ikkita suita yozdi. bundan tashqari kompozitor «momaqaldiraqda tug'ilganlar», «koniyyuta g'orining siri», «Dilorom» (film-balet) va «Qadimgi qal'a afsonasi» kinofilmlariga musiqalar bastaladi. 1964—1966-yillarda yangi tashkil topgan samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari

va bosh dirijori, 1966—1971-yillarda alisher navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatri badiiy rahbari va bosh dirijori, 1971-yildan umrining oxirigacha toshkent Davlat konservatoriyasi rektori vazifalarini bajardi. m.ashrafiy O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo‘lgan. u«shuhrat» ordeni, ikki marta Davlat mukofoti, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti, J.neru nomidagi Hindiston Davlat mukofoti, Jamol Abdul Nosir nomidagi Misr Davlat mukofoti sovrindori.

### **To‘xtasin Jalilov(1896—1966)**

O‘zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor, sozanda To‘xtasin Jalilov



xxasr o‘zbek musiqa tarixida katta o‘rin egallaydi. u, lirik ashula va raqs kuylar, qirqqa yaqin musiqali drama va komediya, «Tohir va Zuhra» operasini yaratib, respublikamizda mazkur janrlarning taraqqiy etishiga ulkan hissa qo‘shdi. ustoz ijodiy izlandi, tinmay mehnat qildi, rahbarlik va jamoatchilik faoliyati bilan musiqa san‘atida chuqur iz qoldirdi. uyetichtirgan yuzlab shogirdlar ham O‘zbekiston

musiqa san‘ati ravnaqi yo‘lida faoliyat ko‘rsatmoqdalar. To‘xtasin Jalilov 1896-yilda andijon shahrida tug‘ildi. bolaligidan musiqaga qiziqib, 10 yoshligidayoq butun farg‘ona vodiysida «Ovozi yoqimli ashulachi» sifatida mashhur edi. to‘xtasin Jalilov Qo‘qonga borib, eshon g‘ijjakchi, madamin doirachi, yusufjon changchilardan ko‘pgina cholg‘u asboblarni chalishni o‘rgandi, 1919-yilda andijon shahri milliy cholg‘u ansamblida sozanda bo‘lib ishladi. keyinchalik ijrochilik, bastakorlik pedagogik faoliyati yanada keng quloch yozdi. uyaratgan musiqali spektakllar teatr sahnalarida bir necha yillar davomida muvaffaqiyat bilan ijro etildi. to‘xtasin Jalilov toshkentdagi musiqali teatrga musiqa rahbari bo‘lib tayinlandi, keyinchalik bu teatr alisher navoiy nomidagi opera va balet teatriga aylandi. 1935-yilda londonda bo‘lib o‘tgan butundunyo

raqs festivalida qatnashib, katta muvaffaqiyat qozondi. u toshkent, fargʻona, andijon, Qoʻqon teatr sahnalarida koʻplab musiqali dramalar yaratilishiga asos soldi. toʻxtasin Jalilov toshkentdagi muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida bir necha yillar (1940—1949) badiiy rahbar boʻlib ishladi. muqimiy teatrida sahnaga qoʻyilgan eng sara durdona asarlarning yaratilishida T. Jalilovning xizmatlari katta boʻldi. muqimiy teatriga shon-shuhrat keltirgan «Qurbon umarov», «Àlpomish», «Muqimiy», «Nurxon», «Tohir va Zuhra» musiqali dramalari xalq olqishiga sazovor boʻldi. uʻndan ortiq dramalarga musiqa yozdi: «asrlar», «nurxon», «tohir va zuhra», «Ravshan va zulxumor», «muqimiy», keyinchalik «tohir va zuhra» operasini yaratdi. bolalar uchun esa konsertlar, qoʻshiqlar, oʻzbek xalq kuylari, pyesalar, suitalar yozdi. bastakor oʻttizinchi yillarda «gulsara» musiqali dramasi uchun kuy bastaladi. «gʻunchalar», «alpomish», «surnaychi», «Ravshan va zulxumor» spektakllariga kuy bastaladi. «Ona vatan», «Oldinga bos, bolam», «farhod qahramonlari» qoʻshiqlarini yaratdi. toʻxtasin Jalilov 200 dan ortiq xalq sevib tinglaydigan dilbar qoʻshiqlar muallifi hamdir. uʻz asarlarida oʻzbek xalq musiqasi uslubining oʻziga xosligini, tabiiyigini, qochirimlarini saqlagan holda, xalq qoʻshiqlari kuylariga yangi ohang, yangi mazmun baxsh etdi. bastakor yaratgan qoʻshiqlar bugungi kunda ham oʻz qadr-qiyamatini yoʻqotmay, xalqimizni mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmodqa. Toʻxtasin Jalilov Oʻzbekiston xalq artisti, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi unvonlariga sazovor boʻldi va bir qator orden va medallar bilan mukofotlandi.

## **MUHAMMADJON MIRZAYEV (1913—1999)**

Oʻzbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda muhammadjon mirzayev ajoyib qoʻshiq, ashula va kuylari bilan el-yurt hurmateʼtiboriga



sazovor boʻldi. uning yaratgan asarlari hayotni, sevgimuhabbatni, vafo va sadoqatni, mardlik va jasoratni aks ettiradi. muhammadjon mirzayev 1913-yil 13-avgustda toshkent shahrida ishchi oilasida tugʻildi. 1920-yildan umum taʼlim maktabida oʻqidi. 1932-yilda toshkent toʻqima chilik kombinatiga ishga kirdi va boʻsh vaqtlarida temir yoʻlchilar klubida tashkil etilgan havaskorlik toʻgaragiga qatnab, mandolina chalishni oʻrgandi.

1936-yili O‘zbek filarmoniyasi qoshida to‘xtasin Jalilov rahbarligida tashkil topgan «O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli»ga ishga qabul qilindi. bu yerda m.mirzayevga rubobchi Yusuf Oxun qashqar rubobida kuylar chalishni o‘rgatdi. yosh sozanda tez orada ansamblida ishtirok etish bilan birga, musiqa ijrochiligi va ijodkorligi sirlarini o‘rgandi hamda hayotiy maktabni shu ansamblida o‘tadi. ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbek filarmoniyasi qoshida bir nechta «front konsert brigadalari» tuzildi. shulardan biri 1942-yilda tashkil etilgan bo‘lib, m.mirzayev ham ular bilan birgalikda, frontda jangchilarga konsertlar berib xizmat qildi. 1943-yili «farhod ges»i qurilishi munosabati bilan ishchilarga madaniy xizmat qilish maqsadida boshqarma qoshida «musiqali drama teatri» tashkil topdi. O‘zbekiston san‘at bosh boshqarmasi muhammadjon mirzayevni ushbu teatrga musiqa rahbari lavozimiga tayinladi. uning mustaqil bastakorlik faoliyati shu jamoada boshlandi. sozanda va bastakor muhammadjon mirzayev zamonaviy mavzularda yangi-yangi jozibali qo‘shiq va raqslarni yaratdi va ansambl ijro repertuarini boyitdi. 1948-yili toshkent Davlat konservatoriyasida «O‘zbek xalq cholg‘ulari» kafedrasida tashkil topdi. Bu dargohga m.mirzayev birinchi talabalar qatorida o‘qishga kirdi va 1953-yili bitirdi. shu yildan boshlab to umrining oxirigacha filarmoniya qoshidagi «musiqa bo‘limi»da rubobchi-yakkanavoz vazifasida ishlab, xalqimizga xizmat qildi. uning ijrochilik mahoratiga barcha tan berdi, yuqori malakali ijrochilik san‘atini sevimli o‘g‘li shavkat mirzayevga meros qilib qoldirdi. u 1950—1980-yillarda o‘z ustida ko‘p ishladi, tinimsiz ijodiy mehnat qildi. uning ashula va yallalari O‘zbekiston xalq hofizi ma‘murjon uzoqov ijrosida ilk bor yangradi, jumladan, «Qachon bo‘lg‘ay», «sho‘xi jononim mening», «yor istab», «yo‘lingda», «ko‘zlaring», «surating», «yolg‘iz», «yana», «shaydo bo‘libman», «zor etding», «parvoz etib ket». tojikiston xalq artisti xanifa mavlonova ijrosida quyidagi ashulalari mashhur bo‘lib ketdi: «parvona bo‘ldim», «yuragingni o‘ynatdimi», «gulchehra yor», «Husningga bu shaydoni», «tong otguncha». bastakor ko‘p yillar davomida mukarramaturg‘unboyeva nomidagi «bahor» raqs ansambli, O‘zbekiston Davlat filarmoniyasining «shodlik», «lazgi» ashula va raqs ansamblari repertuarini kuy va qo‘shiqlar bilan boyitdi. u 300 dan ortiq kuy va qo‘shiqlar, yalla va raqslar kuylarini yaratdi. bulardan: «bahor valsii», «Dildor i va ii», «intizor etma», «gulnoz», «ey gul», «uch dugona», «ko‘zlarimga ziyo ayla», «chavandoz qizlar», «assalom, kelin salom», «toshkent nahori», «Dil kuylasin», «go‘zal vatanim», «marg‘ilon qizlari», «shodlik» kabi kuylari

keng qanot yozdi. shuni aytish joizki, moskvada o‘tkazilgan «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» dekadalarida, «katta fargona kanali», «farhod ges», «kattaqo‘rg‘on suv ombori», «toshkent kanali» kabi yirik qurilishlarda ijrochiligi va bastakorligi bilan faol qatnashdi. O‘zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlandi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari bilan mukofotlandi.

## **TOLIBJON SODIQOV(1907—1957)**



O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor va dirijor tolibjon sodiqov zamonaviy o‘zbek professional musiqa san’atiga mohir ijrochi sifatida kirib keldi. O‘zining yaratgan qo‘shiq, romans, simfoniya va vokal-simfonik asarlari, ayniqsa, musiqali drama va operalari yakkaxon, konsert va teatr jamoalari repertuarini boyitdi. tolibjon sodiqov 1907-yil 20-sentabrda samarqand shahrida ziyolilar oilasida tavallud topdi. u eski maktabda 7 yoshidan boshlab o‘qidi, 1920-yildan yangi maktabda o‘qishni davom ettirdi. shu yerda tashkil topgan musiqa to‘garagiga qatnashdi. Tug‘ma iste’dod sohibi tinimsiz dutor va tanburda mashq qilib, tez orada hammani hayratda qoldiradigan ijrochi sifatida tanildi. 1927-yil samarqand dagi mashhur yosh havaskor san’atkorlardan tuzilgan «ko‘k ko‘ylaklar ansambli» ga tolibjon sodiqov taklif etildi. 1928-yildan boshlab naychi bo‘lib teatrda ishladi. 1930-yili Sobir Abdulla pyesasi asosida «bog‘bon qiz» spektakli uchun musiqa bastaladi. 1928-yil samarqanddagi musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutiga o‘qishga kirdi. Xoja Abdulaziz Abdurasulov, levi boboxonov, yunus Rajabiy, Ota Jaloliddin nazirov, Hoji Abdurahmon Umarov, Nikolay Mironov kabi musiqa san’atining bilimdonlaridan ta’lim oldi va milliy xalq qo‘shiqlari va «shashmaqom» bilan tanishdi. shu bilan birga dutor va tanbur chalish mahoratini egalladi. tez orada o‘zi ham boshqa musiqa to‘garaklariga rahbarlik qila boshladi. 1927-yilda esa panjikent shahridagi viloyat teatrida musiqa rahbari bo‘lib ishladi. 1930-yili t.sodiqov Hamza nomidagi o‘zbek drama teatrining sozandalar

ansambliga rahbarlikka taklif qilindi. komil yashinning «yondiramiz» dramasiqa musiqa bastaladi. 1933-yil alishernavoiiy nomidagi opera va balet teatrida dirijor lavozimida ishladi. t.sodiqov 1939—1941-yillarda moskva konservatoriyasi qoshidagi o‘zbek studiyasida R.m.glier sinfida o‘qidi va urush yillarida o‘qishni to‘xtatib, toshkentga qaytdi hamda musiqa teatrida faoliyatini davom ettirdi. A. ç.Kozlovskiy bilan birgalikda «O‘zbekiston qilichi» hamda «Davron ota» drammalariga musiqa bastaladi.1951—1954-yillarda O‘zbekiston radiosida badiiy rahbar bo‘lib ishlash bilan birgalikda, musiqa jamoasi hayotida faol qatnashdi. O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasi raisi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Alisher navoiy opera va balet teatrida dirijorlik qilish bilan birgalikda «layli va majnun», «Hujum» va «po‘rtana» spektakllariga musiqa bastaladi. komil yashin librettosi asosida tolibjon sodiqov R.m.Glier bilan hamkorlikda 1950-yilda mashhur «gulsara» operasini yaratdi hamda bu operaga o‘zi dirijorlik qildi. 1955-yilda «gulsara» operasi yuzinchi marta ijro etildi. Hayotining so‘nggi kunlarida Boris Zeydman bilan hamkorlikda zulfiya librettosi asosida «zaynab va Omon» operasini yarata boshlab, biroq oxiriga yetkaza olmaydi. Opera yu. Rajabiy va D.zokirov tomonidan 1958-yilda yozib tugallandi.tolibjonsodiqov simfonik orkestr uchun «ulug‘ bayram», «Hur vatan», «baxtiyor yoshlik» asarlarini hamda «bulbul», «bahor», «sarvigul», «Jonon ko‘rinur» kabi o‘nlab romanslarni yaratdi.tolibjon sodiqov O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston hukumatining faxriy yorliqlari, orden va medallari bilan taqdirlangan, yaqinda «buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.



### **FATTOH NAZAROV(1919—1982)**

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida xizmat ko‘rsatgan artist, dirijor, kompozitor, professor fattoh nazarov o‘z ijodkorlik, dirijorlik, o‘qituvchilik va jamoatchilik faoliyati bilan xx asr o‘zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. uning yaratgan turli janrdagi kuy-qo‘shiqlari bolalar bog‘chalari, o‘rta ta’lim va musiqa maktablarida keng qo‘llanib kelinmoqda.fattoh nazarov 1919-yil 1-

yanvarda bishkek shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. fattohning musiqaga havasi juda erta uyg'ondi. uonasining allalari, dutor chalib, qo'shiq aytishlarini va baytlarini tinglab o'sdi. mahallaning o'zbek va qirg'iz ahli to'ylarida yangragan musiqa sadolari uni o'ziga maftun qilar edi. uning baxtiga umumta'lim maktabini bitirgan yili shahar musiqa studiyasi ochildi. fattoh nazarov birinchilardan bo'lib klarnet chalishni o'rgana boshladi. uning musiqiy qobiliyati va a'lo o'qishini nazarga olib, 1935-yil ippolitov-Ivanov nomidagi Moskva musiqa bilim yurtiga o'qishga tavsiya etildi. mazkur o'quv yurtida klarnet va violonchel mutaxassisliklari bo'yicha o'qidi. O'quv yurtini bitirish arafasida 1939-yili harbiy xizmatga chaqirildi. uharbiy qism damli orkestrida klarnetchi bo'lib xizmat qildi, bu unga o'qishni bitirish imkonini berdi. Ikkinchi jahon urushi harbiy xizmatdan qaytishga yo'l qo'ymadi. 1941—1944-yillarda f.nazarov oddiy askar bo'lib xizmat qildi.moskva konservatoriyasi qoshidagi harbiy dirijorlik fakultetida o'qigach, u 1945-yili ona shahriga qaytdi. bishkek drama teatri musiqa rahbari va Qirg'iziston Davlat filarmoniyasining xalq cholg'ulari orkestri dirijori lavozimlariga tayinlandi. 1947-yili f.nazarov toshkent Davlat konservatoriyasining opera simfonik dirijorligi mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 1949—1950-o'quv yilidan boshlab georgiy mushel sinfida kompozitsiyadan dars ola boshladi. 1951-yili konservatoriyani dirijorlik sinfi bo'yicha bitirib, O'zbekiston radiosi qoshidagi simfonik orkestr dirijori lavozimiga tayinlandi, so'ngra O'zbek filarmoniyasining simfonik orkestriga ishga o'tkazildi. 1955-yili yozgan iv qismli simfoniyasiga o'zi dirijorlik qilib, konservatoriyani bitirdi va ikkinchi marta diplom olishga muvaffaq bo'ldi.1952—1958-yillarda muqimiy nomidagi musiqali teatrda dirijor bo'lib ishladi.1952—1982-yillarda konservatoriyaning o'zbek xalq cholg'ulari fakultetida o'qituv chi, katta o'qituvchi, dotsent va professor lavozimlarida ishladi.f.nazarov 1948-yilda skripka va fortepiano uchun bastalagan «Qo'shiq va raqs» kuyi, g'ijjak va fortepiano hamda skripka va fortepiano uchun poema, fortepiano uchun «noktyurn», «marsh», «fuga», «Raqs», «vals» kabi pyesalari, skripka va fortepiano uchun «konsertino», g'ijjak va fortepiano, dutor va fortepiano, violonchel va fortepiano uchun pyesalar, bolalar simfonik orkestri uchun ivqismli suite, rubob uchun «amudaryo» vals-konserti kabi asarlarni yaratdi. f.nazarov «Ravshan», «kuychelek kozli yar», «aldangan qiz», «afsonaviy shaxs», «Harflar jangi» musiqali dramalari, «Oygul va baxtiyor» nomli radiopostanovkalari uchun musiqalar bastalagan.kompozitor simfonik orkestr, o'zbek cholg'ulari orkestri, damli orkestr, klarnet va estrada orkestri uchun 20 ga yaqin

suita va pyesalar yaratdi. f.nazarovning ijodiy faoliyatida ommaviy qo‘shiq, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan qo‘shiqlar ustivor turadi. kattalar uchun «O‘zbekiston», «vatan mehri», «terimchi qiz», «Qaydasan», «Qirg‘i ziston», «kel, bu oqshom», «to‘y taronasi», «Qaldirg‘och», bolalar uchun «sayra, bul bul», «paxtaoy», «bo‘z to‘rg‘ay», «Oyijon», «Qish chog‘lari», «O‘quvchilar saroyi», «mehribonim oyijon», «Dadajon» kabi qo‘shiqlarni yaratdi. kompozitor bolalar va kattalar uchun 150 dan ortiq turli mavzuda qo‘shiqlar bastaladi.f.nazarov O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida xizmat ko‘rsatgan artist faxriy unvoni bilan taqdirlandi. toshkent shahridagi 23-bolalar musiqa maktabiga uning nomi berilgan.

### **SOBIR BOBOYEV(1920—2004)**



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, atoqli kompozitor sobir boboyev ijodiy va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamiz musiqa madaniyatiga katta hissa qo‘shdi. Sobir Boboyevning opera, musiqali drama va komediyalari, simfonik, vokal-simfonik va xor asarlari, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun asarlari, qo‘shiq va romanslari ma‘naviy mulkimizga aylandi.sobir boboyev 1920-yil 30-dekabrda toshkent shahrida tug‘ildi. Otasi vafot etgandan so‘ng, onasi 4 o‘g‘il bilan qoldi. moddiy qiyinchiliklar sababli sobir va ukasi

nosir bolalar uyida tarbiyalandi. bu yerda sobir havaskorlik to‘garagiga qatnashib, dutor va tanbur chalishni o‘zlashtira bosh ladi. 7-sinfni bitirgach, toshkent industrial texni kumida, keyin pedagogika institutining tayyorlov kursida o‘qidi. 1943-yili s.boboyev hayotida burilish sodir bo‘ldi, toshkent Davlat konservatoriyasining tayyorlov bo‘limiga o‘qishga kirdi, professor boris nadejdin sinfida tahsil oldi. 1949-yilda turob to‘la librettosi asosida

«zumrad» nomli bir pardali operasi bilan konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi.1948—1955-yillarda O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasi raisi lavozimida uzoq muddat faoliyat yuritdi. samarqand opera va balet teatrida direktor, 1972—1976-yillarda Muhiddin Qoriyoqubov nomidagi O‘zbek Davlat filarmoniyasi badiiy rahbari, 1969—1978-yillarda

konservatoriya muallimi vazifalarida ishladi. kompozitor fortepiano uchun pyesa, sonatina, raqs, klarnet va fortepiano uchun «Rapsodiya», simfonik orkestr uchun suite, xor jamoasi uchun: «navbahor», «alla», «fizkulturachilar qo‘shig‘i», «xalqimga», «O‘zbekiston» «go‘zal vodi», «Do‘stimga», «sening qo‘shig‘ing» kabi romanslarga kuy bastaladi. S.Boboyev faqat sahnaviy musiqa asarlari yaratish bilan chegaralanib qolmay, qator simfonik, vokal-simfonik, lirik romanslar va qo‘shiqlar, xorlar uchun asarlar yozdi. musiqa tilining originalligi va yangiligi bilan, yorqin hamda qisqaligi bilan ajralib turardi. «yor ketdi», «Qalb», «meros» romanslari, «tanovar i», «bog‘ sayliga» o‘xshash qator xalq qo‘shiqlari tinglovchilarda katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. sobir boboyev «paxta bayrami» nomli iv qismdan iborat kantata, simfonik orkestr uchun ii suite, k.yashin asari bo‘yicha «fidokor», «Hamza» operalarini yaratdi. 1988-yilda shukur sa‘dulla asari asosida bolalar uchun birinchi «yoriltosh» operasini yaratdi. «mayna Hasanova», «ikki bilaguzuk», «Dalada bayram», «Oltin kamar» kabi musiqali dramalarni yozdi. Xorlar uchun bir qancha asarlarni qayta ishladi. U bolalar uchun «Dastyor qiz», «xush kelibsiz», «aziz ustozlar», «mehnat qo‘shig‘i», «yomg‘irjon» «yoshlar vals», «O‘zbekiston» kabi qo‘shiqlarni yaratdi. sobir boboyev O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati. «el-yurt hurmati» ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

## **DONI ZOKIROV (1914—1985)**

O‘zbekiston xalq artisti, sozanda, dirijor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor Doni zokirov ajoyib qo‘shiq, romans, musiqali drama, balet, simfonik va xalq cholg‘ulari orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari bilan o‘zbek musiqa madaniyatini boyitdi. Doni Zokirov 1914-yil 28-dekabrda samarqand shaharida tug‘ildi. u bolaligidan musiqaga qiziqdi. 1926-yil o‘rta ta‘lim maktabiga o‘qishga bordi va maktabdagi musiqa to‘garagiga qatnashdi. nay, dutor, g‘ijjak chalishga qiziqdi. mashhur san‘atkor



muhiddin mavlonovdan o‘zbek va tojik xalq merosini va ijrochilik sirlarini o‘rgandi. 1929-yilda samarqanddagi N.Mironov rahbarligidagi musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutiga o‘qishga kirdi. 1929—1935-yillari Respublika musiqali drama teatrida sozanda bo‘lib ishladi. mazkur teatrni tashkil qilgan ulug‘ san’atkor muhiddin Qoriyoqubov, tamaraxonim, Usta Olim komilovlardan saboq oldi va birga ishladi. 1936-yilda toshkentda O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi ochildi va shu ansamblga konsertmeyster lavozimiga ishga taklif qilindi, keyinchalik musiqa rahbari bo‘lib tayinlandi. 1940—1948-yillari muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida, so‘ngra O‘zbekiston Davlat radioeshittirish qo‘mitasi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestrida dirijor bo‘lib ishladi. 1940—1942-yillari toshkent Davlat konservatoriyasining tayyorlov kursida o‘qidi, lekin urush tufayli o‘qishni 1953-yili bitirdi. O‘zbek ashula va raqs ansamblida badiiy rahbar bo‘lib faoliyat ko‘rsata boshladi. 1957-yili O‘zbekiston radioeshittirish qo‘mitasi qoshida O‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestriga bosh dirijor va badiiy rahbar lavozimiga tayinlandi. 1934-yilda birinchi yirik ijodi z.fatxulinning «g‘unchalar» pyesasi uchun bastalagan musiqasidir. u ilk ijodiy yutug‘idan keyin qo‘shiq va ashulalar yaratdi. Jumladan: «Ona orzusi», «zafar topib», «Ol qasos», «Jangda bardam bo‘l» kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo‘shiqlar yozdi. alishernavoyni «Orazi» va «O‘rtanur» g‘azallariga fortepiano jo‘rligida qo‘shiqlar, simfonik orkestr uchun suite, O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambliga iiiqisimli «mehnat fronti» nomli suite, «Orzigul» va «yoriltosh» spektakllariga musiqa bastaladi. D.zokirov musiqali sahna asarlar yaratishga katta e‘tibor berdi. «so‘nmas chiroqlar», «Dalada bayram», «vatan qirg‘oqlari», «yoshlikda bergan ko‘ngil», «Hayot mash‘ali», «mening jannatim», «shahzoda va yetim qiz» musiqali dramalarini yaratdi. alishernavoyni nomidagi opera va balet teatri sahnasida «Oynisa» baleti, «zaynab va Omon» operasi tomoshabinlarga havola etildi. Quyidagi «amirlikning yemirilishi», «Qutlug‘ qon», «yor-yor» kinofilmlariga musiqalar, simfonik orkestr uchun «Hamza» nomli poema yaratdi. alishernavoyni g‘azallariga bastalagan «ko‘rmadim», «ey sabo», «bo‘lmasa», «ayb etmangiz», turob to‘la she‘riga «bulbul» nomli romanslari simfonik orkestr jo‘rligida mashhur bo‘lib ketdi. yuzdan ortiq ashula, ommaviy xor qo‘shiqlarini yaratdi. bularga «O‘zbekistonim», «tinchlik qo‘shig‘i», «paxtakor diyor», «Hayot gulshani» kabilar misol bo‘la oladi. O‘zbek mumtoz musiqa namunalarini qayta ishlab, o‘zbek xalq cholg‘ulari

orkestri, yakka cholg'ular va orkestrga moslashtirdi. bular orkestr uchun: «yovvoyi chorgoh», «fig'on», «Qaytarma», «cho'li iroq», «farg'onacha», «savti navo», «mirzadavlat», «nasrullovi», «tasnifi dugoh», «ufori navo», «Rajabiy», «Jazoir». bolalar uchun «sayohat — rohat» «kungaboqar», «Oppoq otim, «kapalak va handalak», «bog'da pishdi, uzumlar», «yangi yilim — yaxshi yilim», «kitob mening do'stimsan», «ko'ylagim», «bolalar valsi», «baxtiyorlar qo'shig'i», «Olma» qo'shiqlariga kuy bastaladi. Doni zokirov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo'ldi. Orden, medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi

### **G'OFUR QODIROV(1917—1985)**



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, dotsent, kompozitor g'ofur Qodirov ijodi, o'qituvchilik va jamoat faoliyati bilan o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. u yaratgan jozibali qo'shiqlar, simfonik va sahna musiqasi, ayniqsa, bolalar uchun yaratgan asarlari zamonaviy musiqa san'atimizni boyitdi. g'ofur Qodirov 1917-yil

1-fevralda Toshkent shahrida bog'bon-dehqon oilasida tug'ildi. yetti yoshidan mahalladagi eski maktabda o'qidi. 1928-yili 54-umumta'lim maktabining 6-sinfini bitirdi. 1933-yilda O'rta Osiyo san'at maktabiga o'qishga kirib, 1936-yil bitirdi. ta'lim olgan yillarida badiiy havaskorlik to'garaklari, xor jamoasiga qatnashdi va o'zbek xalq cholg'ulari ansamblida dutor va tanbur chertishni o'rgandi. 1936-yili u Toshkent Davlat to'qimachilik institutiga o'qishga kirdi. mazkur institutning badiiy havaskorlik xori bilan 1937-yilda o'tkazilgan olimpiadada ishtirok etdi. shundan keyin g'ofur Qodirov musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qaror qildi. O'sha yili uning musiqa qobiliyatini sezgan kompozitor Nikolay Mironov maslahati bilan Toshkent Davlat konservatoriyasining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirdi 1940-yili kompozitorlik mutaxassisligi va

cholgʻulashtirish boʻyicha taʼlim olib, 1945-yil konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi. Oʻsha yili Hamza nomidagi Toshkent Davlat bilim yurtiga musiqa nazariyasidan dars berishga yoʻllanma bilan yuborildi. 1959-yili u cholgʻulashtirishdan dars berishga konservatoriyaga taklif qilindi va 1969-yili dotsent ilmiy unvoniga sazovor boʻldi. 1971—1975-yillarda Oʻzbekiston bastakorlar uyushmasi xayʼatining masʼul kotibi lavozimida ishladi. Yillar davomida Gʻ. Qodirov pedagogik va jamoatchilik faoliyatining birligida ijod qilib, turli shakl va janrlarda fortepiano uchun pyesalar: «Rondo», «Raqs», «suita», «sonata», «preludiya va opera», violonchel va fortepiano hamda klarnet va fortepiano uchun pyesalar, torli kvartet, simfonik orkestr uchun «marsh», «suita», «simfoniya», fortepiano joʻrligida navoiy gʻazallari asosida «gʻazal» romansi, «mard yigit» qoʻshigʻi kabi asarlarni yaratdi. Bolalar teatrlarida sahna yuzini koʻrgan «Qari chol va boʻri» nomli spektakliga 1944-yil musiqa bastaladi. Oʻziga xos uslubda koʻproq ovoz uchun simfonik, vokal-simfonik, estrada, xalq cholgʻulari orkestri, ayniqsa, bolalar uchun turli shakl va janrlarda koʻplab asarlar yaratdi. Shuni aytish joizki, u oʻz ijodiy faoliyatining hamma davrlarida yakkaxon, xor jamoalari va estrada guruhlariga goʻshiqlar bastalashga koʻproq eʼtibor berdi. Uning qoʻshiqlari ohangdorligi, dilkashligi, hayotiyliigi, sevgi-muhabbatni keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi va davr nafasi yaqqol sezilib turadi. Masalan: «Oʻzbekistonim», «Oʻlkamga», «yoshlar marshi», «mirzachoʻl», «Oq oltin taronasi», «Doʻstlik festivali», «paxta», lirik estrada qoʻshiqlaridan: «mirzachoʻl yor-yori», «koyimang, oyijon», «goʻzal Toshkent» va boshqalar. Shuningdek, bolalar uchun yaratgan qoʻshiqlari nota toʻplamlarida chop etildi: «pillachi qiz» «maktabjon — oftobjon», «baxtli avlod», «Oʻynab ber», fortepiano uchun pyesalar va «Oʻzbek raqslari» toʻplamlari nashrdan chiqdi. Kompozitor turli cholgʻu ansambli, orkestr, yakkaxon, ansambl va xor uchun «maktabjon — oftobjon» iv qismli vokal-simfonik suita, «biz yosh oʻqituvchilar» iv qismli kantata, «Oq oltin», «biz istiqloq egasimiz» v qismli vokal-simfonik suitasi, «Dangasalik — kasallik», «Ota-onalarga», «bobomlar bogʻbon», «Ona qoʻllari», «gunafsha», «laylak» kabi qator qoʻshiqlarni yaratdi. Kompozitor Gʻofur Qodirov Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi faxriy unvoniga sazovor boʻlgan.



## **ABDURAHIM MUHAMEDOV(1923—1980)**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor abdurahim muhamedov xxasr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. uo'ziga xos ovozi bilan musiqa ijodkorligiga 50-yillarda kirib keldi. uning yaratgan ajoyib lirik, ommabop xor qo'shiqlari, milliy uslubda yozgan simfonik va musiqiy sahna asarlari musiqa mada niyatimizni boyitdi.abdurahim muhamedov 1923-yil 10-dekabrda Toshkent

shahrida novvoy oilasida tug'ildi. tug'ma iste'dod egasi tasviriy san'at va musiqa bilan qiziqdi, qalam va moybo'yoqda har xil rasmlar chizdi. Havaskorlik to'garagida mandolina, doira, damli cholg'ulardan alt, bariton chalishni o'rganib, orkestrda ishtirok etdi. 1938-yilda 7-sinfni bitirib, toshkent sanoat texnikumiga o'qishga kirdi. O'qishni bitirgach, harbiy xizmatga chaqirildi, urushda qatnashib og'ir yarador bo'ldi. 1944-yili toshkentga qaytdi. bir yildan so'ng O'zbek Davlat filarmoniyasi qoshidagi O'zbek xalq cholg'ulari orkestriga ishga qabul etildi, keyinchalik O'zbekiston radiosi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga ishga o'tdi.1950-yili toshkent musiqa texnikumining o'zbek xalq cholg'ulari bo'limida o'qidi va musiqa bastalashga quziqdi. toshkent Davlat konserva toriyasining tayyorlov bo'limida kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. «yoshlik» simfonik poemasi bilan o'qishni bitirdi. yo'llanma bilan O'zbekiston madaniyat vazirligi san'at bosh boshqarmasida inspektor vazifasida ish boshladi. 1956—1957-yillarda toshkent Davlat xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida musiqa o'qituvchisi, 1958—1960-yillarda toshkent telestudiyasida musiqa muharriri bo'lib ishladi. 1974—1975-o'quv yilida nizomiy nomidagi toshkent Davlat pedagogika institutining musiqa fakultetida musiqa nazariyasidan dars berdi.a.muhamedov ijodiy faoliyatining ilk davridan boshlab, zamon ruhiga mos

qo‘shiqlar yaratishga e‘tiborini qaratdi. muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida «Jon qizlar». «gavhari shamchiroq», «Olifita» musiqali komediyalarini yaratdi. yakkaxon va xor uchun ko‘plab qo‘shiqlar bastaladi. bular: «Jon qizlar», «yetti qiz», «shohi so‘zana», «Qirg‘iz qiziga» «seni eslayman», «go‘zal farg‘ona», «Jon, O‘zbekiston», «sportchilar qo‘shig‘i» kabi ommaviy asarlardir. a.muhamedov bolalar uchun ham jozibali, original qo‘shiqlar yaratdi.

«yulduzcha», «archa qo‘shig‘i», «Qo‘g‘irchog‘im allayo», «kapalak», «tantiq qiz» kabi qo‘shiqlari jajji ijrochi va tinglovchilar qalbidan joy olgan. simfonik orkestr uchun poema va vals, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari va fortepiano uchun o‘zbek xalq qo‘shiqlarini qayta ishladi. uning qo‘shiqlari kuyining mayinligi va milliy koloriti bilan ajralib turadi.abdurahim muhamedov O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi va O‘zbekis tonda xizmat ko‘rsatgan artist unvonlari bilan taqdirlangan.



### **TO‘LQIN TOSHMATOV (1934)**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, g‘ijjakchi, dotsent, kompozitor to‘lqin toshmatov 200 dan ortiq qo‘shiqlar hamda boshqa janr va shakllarda musiqa asarlari yaratib, ijro jamoalarining repertuarlarini boyitib, muxlis

larning olqishlariga sazovor bo‘lmoqda.to‘lqin toshmatov 1934-yil 30-dekabrda toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ildi. u bolalik chog‘idan o‘zbek xalq cholg‘u asboblari chalishga qiziqdi. 1949-yili R.glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatida o‘qidi. mazkur maktabni g‘ijjak sinfi bo‘yicha bitirdi. 1955-yili toshkent Davlat konservatoriyasida o‘zbek xalq cholg‘u asboblari fakultetining g‘ijjak sinfida ya.sabzanovdan tahsil oldi. 1969-yili o‘qishni muvaffaqiyatli bitirdi. konservatoriyada o‘qib yurgan paytlarida musiqa bas talashga ham qiziqdi va 1961-yili kompozitorlik fakultetining professori boriszeydman sinfida tahsil olib, 1966-yili o‘qishni ikkinchi marotaba bitirdi.to‘lqin toshmatov mehnat faoliyatini talabalik davridan boshladi. u1957—1958-yillarda «bahor»

raqs ansamblida, 1958—1978-yillarda O‘zteleradio qo‘mitasida o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida g‘ijjakchi, 1976—1982-yillarda a. Qodiriy nomidagi toshkent Davlat madaniyat institutining xalq cholg‘ulari kafedrasida katta o‘qituvchi, dotsent lavozimida va R.Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatida o‘qituvchi bo‘lib ishladi. t. toshmatov turli janr va shakllarda rang-barang asarlar yaratdi. ular qatoridan: ikkita simfoniya, simfonik uvertura, to‘rt qismli vokal-simfonik turkum, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun: «bayramona uvertura», «assalom O‘zbekiston», «yangi toshkent» kantatasi, «samarqand» suitasi, rubob va orkestr uchun suite, «Qo‘shiq va raqs», nay va orkestr uchun ikki qismli «nay yallasi», chang va orkestr uchun «Rondo», orkestr uchun «shohimardon marshi». «Oltin diyori» uverturasi, to‘rtta preludiya, 10 ta variatsiya, bolalar uchun «pyesa», «O‘yna, dilbar» asarlari va boshqalar o‘rin olgan. kompozitor ijodida qo‘shiq janri muhim o‘rin tutadi. «to‘y yallasi», «Ona vatanga», «ishon», «gullar sochay yo‘llingga», «Quyosh o‘lkasi», «toshkentim», «chaman aylab kel», bolalar uchun «ayiq polvonlar bog‘chasi», «baxti erka toy», «bilim yurtimiz», «mashinam», «bahor», «Quloqsiz», «tut», «A‘lochi o‘quvchi». «bir chigitdan ming chigit», «gullola», «gulshan diyori», «mening vatanim» shular jum lasidandir. sahna asarlari: «inbuzarlar» musiqali dramasi, «ur, to‘qmoq», «muzaffar quyosh farzandi», «g‘oyibdan paydo bo‘lgan shahar» spektakllariga musiqalar bastaladi. to‘lqin toshmatov O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoni va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

### **KOMIL KENJAYEV (1939)**



Ko‘p qirrali kompozitor komil kenjayev musiqaning turli janr va shakllarida rang-barang jozibali asarlar yaratdi. uning simfonik orkestr uchun, turli cholg‘u ansambllar uchun, teatr, va ayniqsa, estrada orkestri va vokal-cholg‘u ansambllari uchun musiqalari, qo‘shiqlari musiqa shinavan dalarining olqishlariga sazovor bo‘ldi. u pedagoglik va

jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o‘zbek professional musiqa

san'atiga ulkan hissa qo'shdi. Komil Kenjayev 1939-yil 21-dekabrda Dushanbe shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Komil bolaligidan musiqa qiziqdi. 1947-yili o'rta ta'lim maktabiga o'qishga kirdi. 1953-yili bolalar musiqa maktabining fortepiano sinfida saboq o'qib boshladi va Dushanbe musiqa bilim yurtida o'qishni davom ettirdi. 1960-yili Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirib, professor Boris Zeydman sinfida tahsil oldi. Uturli janr va shakllarda musiqa bastaladi. 1965-yili «Lirik simfoniya» asarini taqdim etib, konservatoriyaning muvaffaqiyatli bitirdi va mustaqil ijodga yo'llanma oldi. Kompozitor K. Kenjayev mehnat faoliyatini 1957-yilda Dushanbe shahridagi 24-bolalar bog'chasida sozandalikdan boshladi.

1960—1961-yillarda Toshkentdagi maktablarda musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi. Konservatoriyaning bitirgach, Tojikiston Respublikasining «Xo'jand» musiqa bilim yurtida musiqa nazariyasidan dars berdi. 1966—1972-yillari O'zbekiston madaniyat vazirligining san'at bosh boshqarmasidagi repertuar kollegiyasida musiqa muharriri lavozimida ishladi. 1972—1973-yillari Mannon uyg'ur nomidagi teatr va rassomchilik institutida musiqa nazariyasi fanidan dars berdi. 1973—1984-yillarda R. M. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internat direktori lavozimida ishladi. 1984—1986-yillari M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida rektor lavozimida ishladi. Kompozitorning mustaqil ijodiy faoliyati konservatoriyaning bitirgandan so'ng, 1965—1980-yillarda jo'sh urdi va barakali ijod qildi. 1965-yili simfonik orkestr uchun «Yoshlik» uverturasi, 1966-yili torli cholg'u orkestr uchun «Simfoniya», 1967-yili violonchel va orkestr uchun «Konsert», o'zbek xalq cholg'u asboblari uchun 2 ta suita va «Konsertino», 1969-yili «Olmos otin», «Umirxo'janing nayrangi», 1982-yili «Oq buloq parizodasi» kabi musiqali dramalarni yaratdi. Respublika Davlat Qo'g'ir choq teatrida «Ovdagi hodisa», «Kenja qiz» asarlarini yozdi. Bolalar xor jamoasi uchun «Kelajak bizniki», «Biz tinchlikni istaymiz», «Kichkintoyimiz — gijingtoymiz», «Yerga dovrug' solamiz», «Sen bilan do'stlashdim», «Paxtaoy», «O'zbek qizlari», «Kimki bo'lsa yig'loqi», «Ba'diylar qo'shig'i», «Bir jahon bolalarmiz», «Ikkisiz, ikki yilsiz», «Beshga teng birinchi», «O't yozaman do'stinga», «Pa'dajonim» kabi bolalar uchun 100 ga yaqin qo'shiqlar yaratdi. U 1982—1984-yillar O'zbekiston bastakorlar uyushmasining bolalar musiqa komissiyasi raisi, 1982—1987-yillari taftish komissiyasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Komil Kenjayev

O‘zbekiston va estoniya hukumatlarining faxriy yorliqlari va O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi nishoni bilan mukofotlangan.

### **SHERMAT YORMATOV (1939)**



O‘zbekiston xalq artisti, xor dirijori va murabbiy, bas takor shermat yormatovning mehnat faoliyati ko‘p ovozli bolalar xor ijrochiligini rivojlantirishda alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston teleradiosi huzurida 1967-yilda o‘zi tashkil qilgan «bulbulcha» bolalar jamoasi respublikamiz madaniy hayotida katta rol o‘ynab kelmoqda. sh.yormatov o‘ttiz yildan ortiq davr ichida xor repertuarini boyitishda kompozitor va shoirlar bilan hamkorlik qildi. shermat yormatov 1939-yil 17-oktabrda farg‘ona viloyati log‘on qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. 1947-yilda umumta’lim maktabiga o‘qishga bordi va havaskorlar to‘garagiga qatnashdi. U tez orada maktabda ajoyib ovozi bilan mashhur bo‘lib qoldi, tuman va viloyat festivallari hamda ko‘rik-tanlovlarida mukofotlar egasi bo‘ldi. sh.yormatov maktabni bitirib, 1959-yili toshkent madaniyat texnikumiga o‘qishga kirdi. 1962-yilda sh.yormatov istisno tariqasida kirish imtihonlarisiz toshkent Davlat konservatoriyasiga qabul qilindi. utalabalik yillari musiqa bastalash sirlarini o‘zlashtirish maqsadida kompozitor pak endindan saboq oldi. konservatoriyaning xor dirijorligi fakultetini tugatib, O‘zbekiston teleradiosi huzuridagi botir umidjonov rahbarlik qilgan xor jamoasiga dirijor vazifasiga tayinlandi. mohir xormeystr sh.yormatov o‘z tajribasini talabalarga tatbiq etish maqsadida o‘quv yurtlarida ustoz-murabbiy sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1990-yildan buyon A. Qodiriy nomidagi toshkent madaniyat institutida dotsent vazifasida ishlab kelmoqda. U 1996—1999-yillarda Respublika «ma’naviyat va ma’rifat» markazi

raisining birinchi o'rinbosari lavozimida, 2000—2002-yillarda yu. Rajabiy nomidagi Toshkent musiqa-pedagogika bilim yurti direktori

lavozimida ham ishladi. 1961-yili Toshkentdagi 99-maktab qoshida respublikada ilk bor o'zbek bolalar o'z jamoasini yaratdi. Bu o'z jamoasi tobora rivojlanib, Respublika bolalar ijodiy markazining «boychechak» o'z studiyasiga aylandi. 1970-yili Davlatimizning respublikada qo'shiq va o'z san'atini rivojlantirish haqidagi qaroriga asoslanib, O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshida namunalik bolalar o'z jamoasi tashkil qilindi. Bu jamoaga Shermat Yormatov badiiy rahbar va bosh dirijor qilib tayinlandi. Keyinchalik bu o'z jamoasini Sh.Yormatov «bulbulcha» ashula va raqs ansambliga aylantirdi. Hozirgi kunda bu ansamblning shuhrati butun olamga mashhur. Unda 700 dan ziyod turli yoshdagi bolalar ishtirok etadi. Kompozitor Sh.Yormatovning ijodida qo'shiq janri ustivor turadi. Jumladan: «g'ildiragim» «islom bobo», «Oymomajon rom bo'ldi», «bu go'zal o'lka», «Dadamlarga o'xshasam», «Qor», «sumalak», «Oy vata nim» kabi qo'shiqlar, «maysa», «boychechak», «Qari chumchuq chaqimchi», «yalpiz», «Dorboz», «keldi navro'z» kabi o'zbek xalq qo'shiqlarini bolalar xori uchun qayta ishladi. O'smirlar uchun «assalom hayot» nomli vqisimli kantata, bolalar xalq termalari asosida vokal-xoreografik suitasini yaratdi. Uning qo'shiqlari turli nota to'plamlari va «musiqa» darsliklariga kiritilgan. Sh.Yormatov hammualliflikda umum ta'lim maktablari uchun musiqa darsliklarini yaratdi va nashrdan chiqardi. Shermat Yormatov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, «sog'lom avlod uchun» ordeni, O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

### **RUSTAM ABDULLAYEV(1947)**



O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor Rustam Abdullayev zamonaviy o‘zbek musiqa san’atining zabardast ijodkorlaridan biridir. Sharq va g‘arb mumtoz musiqiy san’atlarining an‘analari izidan borib, turli janr va shakl larda musiqiy asar yaratib, vatanimiz musiqiy madaniya tining rivojlanish jarayoniga samarali hissa qo‘shib kelmoqda. Rustam Abdullayev 1947-yil 12-fevralda Xorazm viloyati Xiva shahrida ziyolilar oilasida tug‘ildi. Otasi Abdulla Otajonov va onasi Gavhar Matyoqubovalar farzandlarining musiqaga qiziqishini sezib, musiqa maktabiga olib borishdi. Rustam Abdullayev o‘rta ta’lim maktabida o‘qib yurgan yillari, musiqa maktabiga qatnab, rubob chalishni o‘rgandi. 1962-yil Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga o‘qishga kirdi. O‘quv yurtida Rustam musiqiy qobiliyati, mehnatkashligi bilan boshqalardan ajralib turar edi. O‘quv yurtining nazariy bo‘limida Rumil Vildanovdan kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. 1965-yili Toshkent Davlat konservatoriyasiga o‘qishga kirib, taniqli kompozitorlar Rumil Vildanov va Boris Giyenkadan tahsil olib, 1972-yili fortepiano uchun konsert bilan muvaffaqiyatli bitirdi. R. Abdullayev konservatoriyada o‘qib yurgan yillaridayoq iqtidorli kompozitor va mohir pioninochi sifatida tanila boshladi. Qozog‘istonda o‘tgan «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» kunlarida qatnashib, o‘zining fortepiano konsertini simfonik orkestr bilan ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi. Shuningdek, Gruziyada, Moskva shahrida o‘tkazilgan yirik anjumanlarda «Xirosima faryodi» va «Hijron» nomli asarlari bilan ishtirok etib, laureat unvoniga sazovor bo‘ldi. R. Abdullayev 1974-yil Toshkent Davlat konservatoriyasi asistentura-stajirovka o‘qishiga kirdi. Professor Boris Zeydmandan saboq oldi. 1976-yildan boshlab, Toshkent Davlat konservatoriyasida bastakorlik kafedrasida, 1995-yildan buyon O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi raisi lavozimlarida ishlab kelmoqda. Rustam Abdullayev turli janrlarda qator musiqiy asarlar yaratdi. Bular orasida uchta yirik asari sahna yuzini ko‘rib, shina vandalar olqishiga sazovor bo‘ldi. Jumladan: «Sadoqat» nomli operasi, «Shoshma quyosh» nomli balet oratoriyasi va «Xiva ordeni» nomli operasi. Kompozitor R. Abdullayevning ijodida simfonik, vokal-simfonik, fortepiano musiqalari asosiy o‘rin egallaydi. 3 ta simfonik poema, fortepiano uchun 10 ga yaqin asarlar shular jumlasidandir. Ubutun dunyo bo‘yicha o‘tkazilgan «yosh kompozitorlar»ning ko‘rik-tanlovlari va festivallarida ishtirok etib,

ko‘p marotaba imukofot va laureatlik unvoniga sazovor bo‘ldi.20 ga yaqin davlatlarda asarlari ijro etilib, Respublika va xalqaro ko‘rik-tanlovlar laureati bo‘lib, olqishlarga sazovor bo‘lmoqda. O‘zi ham kompozitor va ijrochi sifatida ishtirok etib, musiqa muxlislari e‘tiborini qozonmoqda.so‘nggi yillar ichida R.abdullayev romans va qo‘shiq janrlarida barakali ijod qilib kelmoqda. uning qo‘shiqlari xalq hofizlari, dutorchilar ansambli, estrada qo‘shiqchilari ijrosida ommalashib ketmoqda. Bular: «to‘ylaring muborak», «turon turnalari», «go‘zal vatanim», «piyola» kabi asarlardir. O‘zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi «bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun mazmundor, jozibali qo‘shiqlar yaratib kelmoqda. Jumladan: «Olam gulga to‘laversin», «charxpalak», «parvozdagi qushchalar», «mustaqillik lolalarimiz», «Do‘stlik qo‘shig‘i», «shodlik va tinchlik», «Qoshiq-qoshiq», «gullola» kabi juda ko‘p qo‘shiqlarni yaratdi.kompozitor Rustam abdullayev O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi fao‘riy unvoniga va Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

### **HABIBULLA RAHIMOV(1946)**



Zamonaviy o‘zbek professional musiqa san‘atining namoyandalaridan biri Habibulla Rahimov turli mavzu, shakl va janrlarda xilma-xil, barkamol asarlar yaratib, musiqa shonavdalarini xushnud etib kelmoqda.Habibulla Rahimov 1946-yil 31-oktabrda tojikiston Respublikasi xo‘jand viloyati ning nav tumanida taniqli sozanda g‘aybulla Rahimov oilasida tug‘ildi.

to'ng'ich farzand bo'lgan Habibulla ota kasbini bolaligidan egallay boshladi. sadirxon Hofiz nomidagi xo'jand Davlat musiqa bilim yurtida tahsil oldi. g'ijjak chalish bilan bir qatorda, unda kuy bastalashga ishtiyoq tug'iladi. musiqa bilim yurtini bitirgach ustozlarining maslahatiga binoan, 1964-yili m.ashrafiy nomidagi toshkent Davlat konservatoriyasi kompozitorlik fakultetining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirib, boris giyenko sinfida tahsil oladi. 1974-yili Davlat imtihoniga shoir to'lqin so'ziga yakkaxonlar, xor va simfonik orkestr uchun «Osvensim» nomli oratoriyasini taqdim etdi. 1974—1976-yillarda konservatoriyada asissentura-stajorlikda professor boris zeydman sinfida kasb malakasini oshirdi.

H. Rahimov konservatoriyada o'qish bilan bir paytda 1969—1974-yillarda Respublika damli cholg'ular maktab-internatida musiqa nazariyasi fanidan o'qituvchilik qildi. 1977—1989-yillarda a. Qodiriy nomidagi toshkent Davlat madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi. «partitura o'qish va cholg'ulashtirish» fanidan dars berdi. 1989-yildan boshlab O'zbekiston Davlat konservatoriyasida ushbu fan bo'yicha talabalarga saboq berib kelmoqda. H. Rahimov yaratgan simfonik va vokal-simfonik asarlar O'zbekiston milliy simfonik orkestri repertuarini yanada boyitdi. simfonik orkestr uchun: «simfonik poema», ibn sino she'rlariga «beshta ruboiy», ovoz va simfonik orkestr uchun uvaysiy g'azallariga «beshta» romans, «sayil bayram» uverturasi, «segoh» simfoniyasi, «Rost», «Raqs» va «tong» kuylari, ud va kamer orkestri uchun «fantaziya», dutor va kamer orkestr uchun «Qo'shtor», rubob va orkestr uchun «arabcha poema»larni yaratdi. H. Rahimov o'zbek cholg'u orkestri uchun ham bir qator asarlar yaratdi. Jumladan: «Qo'shiq va raqs», «armug'on», «naqsh va tarona», «tarona va ufor» pyesalari, «muborakbod» uverturasi, «yoshlik bayrami» konsertinosi, «noma'lum askar xotirasi» poemasi, «yaponcha raqs» va navoiy g'azallariga «poema» kabi qator musiqiy asarlarni yaratdi. kompozitor damli cholg'ular uchun ham 10 dan ziyod asarlarni yozdi. 1975-yili uyg'un bilan hamkorlikda «parvona» nomli ilk musiqali dramasini yaratdi. «kelin tanlov», «mushkul savdo» musiqali komediyalari 1997-yili sahna yuzini ko'rdi. «Ona qalbi», «alpomish va barchinoy» operalarini yaratdi. H. Rahimov ijodida qo'shiq va romanslar alohida o'rin tutadi. Jumladan: «sog'inganda» «uzoqda», «bo'ron», «mening sevgim», «yulduzlar» kabi romanslar. fortepiano uchun 18 ta xalq kuylarini moslashtirdi, 16

ta asardan iborat «albom», g'ijjak va fortepiano uchun «ballada» va sonatalar yaratdi. H. Rahimov respublikamizda o'tkazilgan eng yaxshi qo'shiq tanlovining ko'p yillar sovrindori. Kompozitor bolalar uchun «Do'mboqchalar qo'shig'i», «Oy bo'lamiz — toy bo'lamiz», «buñoro», «samarqand» «sho'x bolaman», «muchal qo'shig'i», «men g'unchaman», «tilla qo'ng'iz» va «bolalar» kabi qo'shiqlarga kuy bastaladi. Habibulla Rahimov «shuhrat» medali bilan mukofotlandi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi unvoniga sazovor bo'ldi.

### **Abramova Sonya Pinkxasovna (1930-2019)**



Abramova Sonya Pinkxasovna ko'plab taniqli shaxslar qatoriga kirgan - ko'p qirrali bastakor, o'qimishli va juda mulohazali inson, barkamol shaxs. U Bastakorlar uyushmasining a'zosi (1963), ushbu Ittifoq bolalar musiqasi ijodiy qo'mitasining a'zosi bo'lgan. Oliy maktab

o'qituvchisi - Toshkent davlat pedagogika instituti musiqi nazariyasi va tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi (1961-1976), O'zbekiston ta'limi a'lochisi (1980); bolalar uchun bir qator musiqiy spektakllarning muallifi, asarlar to'plamining muallifi.

Soniya Abramova 1930 yilda Toshkentda tug'ilgan. U taniqli o'qituvchi, "Tojikiston SSRda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" Pinkxasova Frida va Abramov Pinkxasning qizi, jurnalist va tarjimon. Musiqi maktabini tugatgandan so'ng, 1949 yilda u Toshkent davlat konservatoriyasida kompozitsiya bo'limiga kirib, musiqiy bilimni davom ettiradi. Talaba yillarida Sonya Abramova musiqani

bastalashda o'zini sinab ko'rmoqda - u asosan kamerali janrlarda asarlar yozadi: lirik qo'shiqlar, romanslar, fortepiano, skripka, xorlar, variatsiyalar uchun asarlar.

U birinchi yilidayoq eng yaxshi musiqa asari uchun talabalar tanlovida qatnashadi va II o'rinni egallaydi. Uning tanlovida goboy va pianino uchun ikkita qismi namoyish etildi. Ikki yil o'tgach, bu asarlar Moskvada nashr etildi. Uchinchi kursda o'qiyotganda Sonya klarnet va orkestr uchun kontsert yozdi. Abramova uchun konservatoriyada o'qigan yillari o'zining ijodiy uslubini, musiqa mavzusini izlash vaqti edi. Diplom ishi M.Yu.ning "Tamara" operasi edi. Konservatoriyaning tugatgandan so'ng (1954) S.P.Abramova. O'zbekistonning ijodiy musiqiy, ijtimoiy va pedagogik hayotida faol ishtirok etmoqda. Bolalar uchun yaratilgan asarlar bastakor asarlarining muhim qismini tashkil etadi. U bolalar va yoshlar uchun qo'shiqlar, spektakllar, romanslar va xorlar yaratish bo'yicha samarali ishlaydi. Uning ko'pgina asarlari O'zbekiston va Tojikiston musiqa ta'limi muassasalarining o'quv-pedagogik repertuaridan joy oldi. Sonya Pinkxasovna bolalar uchun ikkita musiqiy spektakl yozgan - "Do'stlik Yashi" ("Do'stlik yaxshi") va "Buri va Kuyon" ("Xare va bo'ri"), birinchisi Bolgariyada Tolbuxino shahridagi bolalar teatrida namoyish etilgan. Abramova Sonya ikkita mualliflik to'plamiga ega: "Buvizhonim, buvizhon" ("Buvi, buvi") va "Dadilroq yur, raqsga yanada quvnoq".

Bastakorning fortepiano, musiqiy o'yinlar va dumaloq raqslar uchun bir nechta polifonik asarlarni yozishda o'ziga xos mahorati to'liq namoyon bo'ldi. Bastakorlar ittifoqining a'zosi sifatida S.P. 1963 yildan beri Abramova ushbu ijodiy tashkilotda ko'plab ijtimoiy ishlarni amalga oshirmoqda - u Ittifoq bolalar musiqasi ijodiy komissiyasining a'zosi. O'sha paytdan boshlab u juda ko'p musiqiy, ma'rifiy va pedagogik ishlarni amalga oshirdi. Bastakor yoshlar va bolalarning estetik tarbiyasi uchun juda ko'p ishlaydi. Bu ko'pincha bolalar bog'chalarida, musiqa va umumta'lim maktablarida, uylar va madaniyat saroylarida, badiiy havaskorlik jamoalarida, kashshoflar uylarida sodir bo'ladi.

Ko'p yillar davomida S.P. Abramova Toshkent davlat pedagogika institutining musiqiy-pedagogika fakulteti ilmiy kotibi va dekan muovini bo'lgan (1961-1966). U O'zbekiston musiqa madaniyati rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Bastakorning doimiy takomillashuvi, yuksak madaniyati asosida kamdan-kam uchraydigan professionallik Sonya Abramova ning ijodiy uzoq umrini belgilab berdi.

Shaxsiy hayot haqida. Birinchi turmushida Sonya Abramova uzoq yashamadi; uning yolg'iz o'zi o'stirgan o'g'li bor va u 29 yil birga yashab, Mixail Yoqubov bilan ikkinchi turmushida baxtli edi. 1990 yilda Sofya Pinkxasovna oilasi, singlisi va onasi bilan Isroilga ko'chib keldi, u erda yangi yashash joyiga ko'chib o'tishda qiyinchiliklarga qaramay, u o'zini qo'llab-quvvatlashga muhtoj o'g'li, onasi va singlisiga g'amxo'rlik qilishga bag'ishladi. U juda iqtisodiy, g'amxo'r, diqqatli, mehribon, qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lgan va boshqalar edi.

Sofya Pinkxasovna Abramovaning yorqin xotirasi uning oilasi va do'stlari, do'stlari, shuningdek u bilan tasodifan suhbatdoshlarning qalbida hech qachon o'chmaydi.

### **QO'LDOSH MAMIROV(1941)**



Pedagogika fanlari nomzodi, xor dirijori, bastakor Qo'ldosh Mamirov, milliy bas takorlik an'analarini davom ettirib, zamondosh shoirlar bilan hamkorlikda jozibali qo'shiqlar yaratmoqda. Qo'ldosh mamirov 1941-yil 23-martda toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani suvchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. Ota-onasi Qo'ldoshning musiqaga qiziqishini sezib, qishloqdagi naychi yigit Rahmatjon

abdurayimovga shogirdlikka berishdi. 1958-yili u Hamza nomidagi toshkent musiqa bilim yurtining xor dirijorligi bo'limiga qabul qilindi. 1962-yil toshkent Davlat konservatoriyasi xor dirijorligi fakultetiga o'qishga kirdi. 1964—1968-yillarda Qo'ldosh mamirov toshkent harbiy garnizoni qoshidagi ikromjon bo'ronov rahbarlik qilgan o'zbek ashula va raqs ansamblida naychi bo'lib harbiy xizmatni ado etdi. Bastakor va xor dirijori Qo'ldosh mamirov mehnat faoliyatini talabalik davridan boshlab, umumta'lim maktablarida musiqadan dars berdi. 1964-yili toshkent o'quvchilar saroyida o'zbek xalq cholg'u ansambliga, 1968—1970-yillarda a.gagarin nomidagi O'quvchilar saroyidagi o'zbek xalq cholg'ulari ansambliga rahbarlik qildi. 1970-yildan buyon nizomiy nomidagi toshkent Davlat pedagogika universitetining musiqa fakultetida xor dirijorligi kafedrasini mudiridan dekan, professorlikka bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1987-yili moskvada «boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarning a'loqiy hislarini tarbiyalash» mavzusida yozgan dissertatsiyasini yoqladi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Qo'ldosh mamirov navoiy g'azallari bilan kuylanadigan 40 ta ashulani notaga yozdi. 80 ta xalq qo'shig'i va maqom shu'balarini o'z ichiga olgan «O'zbek xalq qo'shiqchiligi majmuasi»ni tuzdi. O'z asarlaridan qo'llanmalar tayyorladi. «Quyosh yurtim», «Ohanglarda hayot nafasi», «Ona allasi» kabi to'plamlarni chop etdi. yakka xonanda va vokal ansambli bilan orkestr jo'rligida quyidagi asarlarni yaratdi: «yo'lim boshlar», «sevinch yoshlarim», «go'zalim madhiyasi», vokal-cholg'u ansambli ijrosida «bahor», «nigohimni uzolmayman», «Qo'shiqqa navbat», «Ona yurt qo'shig'i» asarlarini yaratdi. ular asosida xor akapella (jo'rsiz xor) uchun «lahza-lahza», «miltiraydi bir mitti yulduz», «O'zbekiston — ona yurt», «O'zbekiston taronasi» asarlari ko'rik-tanlovlarida sovrinli o'rinlarni egalladi. xor va o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun «istiqlol», «yor qani», «go'zal toshkent qizlari», «Dugona kelibdur», yakka xonanda va orkestr uchun «bahor sarvinoz», «anhor labida» va boshqalar. Dramaturg n. Qurbonov bilan «O, meni qora ko'zlarim» nomli musiqali drama va kino rejissor zulfiqor musoqov bilan hamkorlikda «Qaldirg'och» kinofilmiga musiqa bastaladi. u 100 dan ortiq kattalar va bolalar uchun qo'shiqlar yaratdi. bulardan tashqari 6 ta she'riy poema, 200 ga yaqin she'rlar, to'rtliklar, «payg'ambarnoma» nomli she'riy roman muallifi. Q.mamirov talabalar va maktab o'quvchilari nafosatini a'loqiy jihatdan

tarbiyalash muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda. ilmiy izlanishlar samarasi sifatida 20 ga yaqin maqola, dastur, tavsiya, qo'llanmalar yaratishga erishdi. besh qismili «O'rdirijorligi» o'restomatiyasini yozdi. turli ilmiy-amaliy va ilmiy-uslubiy anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan qatnashib kelmoqda.

### **FARHOD ALIMOV(1947)**



Kompozitor Farhod Alimov hozirgi zamon o'zbek musiqa san'atining zabardast vakillaridan biri. uyorqin ijodiy faoliyati bilan rang-barang, jo'shqin va jozibali qo'shiqlari, o'zbek xalq cholg'u orkestriga va teatr uchun yozgan asarlari bilan shinavandalari qalbidan joy olib, zamonaviy milliy musiqa san'ati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.farhod alimov 1947-yil 23-oktabrda toshkentda muhandis

oilasida tug'ildi. 1954-yili maktabga bordi. farhodning musiqaga qiziqishini ko'rgan ota-onasi uni 1959-yil R.Glier nomidagi respublika musiqa maktab-internatiga o'tkazdilar. bu yerda u g'ijjak chalishni taniqli o'qituvchi O.Xolmuhamedovdan o'rgandi. 1965-yil maktabni imtiyozli tugatib, toshkent Davlat konservatoriyasining o'zbek xalq cholg'ulari fakultetiga imtihonsiz qabul qilindi. konservatoriyaning 1970-yilda g'ijjak bo'yicha bitirib, O'zbekiston radiosi qoshidagi O'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrida sozanda bo'lib ishladi. Orkestrda ishlab yurgan paytlarida musiqa bastalashga intilib, qo'shiq va kuylar yoza boshladi. kompozitorlik malakasiga ega bo'lish uchun 1972-yili konservatoriyaning tayyorlov kurslarida, so'ngra asosiy bosqichda boris giyenkoda ta'lim oldi. 1975-yildan boshlab a. Qodiriy nomidagi madaniyat institutida katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi. 1995-yildan boshlab toshkent Davlat konservatoriyasida orkestr dirijorligi kafedrasida dotsent lavozimida ishlab kelmoqda.f.alimov musiqa san'atining deyarli barcha janrlarida samarali ijod qilmoqda. uning bastalagan asarlari simfoniya, ovoz va simfonik orkestr uchun «maftuningman toshkent» vokal-simfonik poemasi,

«Ona sayyorani asrang» kantatasi, «ibn sino hayotidan lavhalar» simfonik poemasi, «shodiyona», «tabriknoma», «to‘yona» uverturalari, jo‘rsiz xor uchun navoiy ruboiylariga «muhabbatnoma turkumi», bobur ruboiylariga «Dil sadosi» turkumi milliy ruhi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. 1990-yillarda «muhabbatnoma», «baxshida» nomli baletlarni, quyidagi musiqali dramalarni yaratdi: «yusuf va zulayxo», «fotima va zuhra», «nodirabegim», «Devona», «soyibxo‘ja operasi», «super qaynona», «checha», «super qaynona — 2», «na falakman, na malak», «muhabbat tuyg‘usi», «Oq kabutarlar» musiqali komediyalari muqimiy nomidagi musiqali teatrda sahna yuzini ko‘rgan.f.alimov «mehrobdan chayon» filmiga, «samarqand obidalari va muzeylari», «vatan bizniki», «san‘at maktabi» hujjatli filmlariga musiqa bastalagan.shuningdek, «navro‘z», «sharq taronalari», amir temur va ulug‘bek yubileylariga bag‘ishlangan anjumanlarda o‘z asarlari bilan faol qatnashdi. uning asarlari germaniya, ispaniya, misr, fransiya mamlakatlarida ijro etilib, olqish va hurmatga sazovor bo‘ldi.kompozitor bolalar uchun «sariq jo‘jalarim», «Oyijonim allasi», «yoz fasli», «yashasin do‘stlik», «chaqqon bola», «Oppoq qayin», «ahillik — do‘stlik» kabi juda ko‘p qo‘shiqlarga kuy bastaladi.

### **NADIM NORXO‘JAYEV (1947)**



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston Davlat konserva toriyasi professori, kompozitor nadimnorxo‘jayev o‘zining jozibali musiqiy asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldi.nadim norxo‘jayev 1947-yil 24-dekabrda toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ildi. nadimning ota-onalari

o‘g‘illarining musiqaga qiziqishini sezib, umumta’lim maktabining 5-sinfidan R.glier nomidagi maxsus musiqa maktab-internatiga berdilar va u bu yerda tanbur chalishni o‘rgana boshladi. nadimning musiqa nazariyasi va bastakorlikka qiziqishini inobatga olgan holda, uni 1963-yili Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga

o'tkazishadi. mashhur kompozitor Rumil vildanovdan musiqa sirlarini o'rgandi. 1967-yili simfonik orkestr uchun bastalagan «suitsa»si bilan a'lo baholarga o'qishni bitirdi. O'sha yili Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirdi. bu oliy dargohda kompozitorlik bo'yicha georgiy musheldan, cholg'ulashtirishdan aleksandr kozlovskiydan saboq oldi. n.Norxo'jayev konservato riyani imtiyozli diplom bilan bitirib, bekobod musiqa bilim yurtiga ishga yo'llanma oldi. Harbiy xizmatni o'tab yurgan davrda vokal-cholg'u estrada ansamblini tashkil etib, konsertlar bera boshladi. U o'z faoliyatida qo'shiq janriga ko'proq ahamiyat berdi. 1968—1972-yillarda musiqa maktabida, 1972—1975-yillari bekobod musiqa bilim yurtida, musiqa maktabida o'qituvchi va bo'lim mudiri bo'lib ishladi. 1975—1976-yillarda «melodiya» firmasining ovoz yozish studiyasida bosh muharrir vazifasida ishladi.

a. Qodiriy nomidagi toshkent Davlat madaniyat institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent bo'lib, ayni paytda yu. Rajabiy nomidagi toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, 1998-yildan buyon toshkent Davlat konservatoriyasi estrada ijrochilik kafedrasini mudiri, 2003-yildan professor lavozimida ishlab kelmoqda. n.norxo'jayev fortepiano uchun 3 ta pyesa, 4 ta preludiya, 2 ta variatsiya, sonatina, «luqmalar» nomli miniatyuralar turkumi, so'zsiz qo'shiq, fortepiano uchun 2 ta sonata, skripka va fortepiano uchun pyesa, torli kvartet, fortepiano va simfonik orkestri uchun «konsertino», ivqisimli simfonik suitsa, iqisimli simfoniya va ko'pgina qo'shiqlar yaratdi. n.norxo'jayev ijodida qo'shiq ustuvor ahamiyat kasb etadi. uzamondosh shoirlar bilan hamkorlikda 00 dan ortiq estrada va bog'cha bolalari hamda maktab o'quvchilariga atab qo'shiqlar yaratdi. yosh bastakorning bolalar uchun 1975-yilda yozgan «Hakkalar» ilk estrada qo'shig'i «paxtaoy» nomli vokal cholg'u ansambli ijrosida mashhur bo'lib ketdi. Jumladan, «yaxshi bola», «Dangasa», «eh, orzular», «antiqa musobaqa», «Diyor madhi», «balig'im», «salom bergan bolalar», «sayyoraxon», «chamandagi gullarmiz», «boboxo'roz», «Dono bola» kabi qo'shiqlari «bulbulcha» bolalar xori ijrosida omma lashib ketgan. bolalar xori uchun «Hafta» kantatasi, «Daraxtlar suhbatini» dor suitasi, o'zbek xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishladi. «Osmondagi oy», «chori chamber», «kavushim», «chuchvara qaynaydi» qo'shiqlari shular jumlasidan. nadim norxo'jayev O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Respublika «Ofarin — 2000» ko'rik-tanlovi sovrindori,

O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi qo‘shiq sho‘basi raisi, respublikamizda o‘tkazilayotgan turli ko‘rik-tanlovlarda jyuri hay’atlarining faol ishtirokchisi.

### **AVAZ MANSUROV(1957)**

O‘zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori, toshkent Davlat



konservatoriyasi kompozitsiya va cholg‘ulashtirish kafedrasini professori, kompozitor avaz mansurov o‘zining uslubi bilan alohida ajralib turadi. kompozitor turli janr larda, ayniqsa, qo‘shiqchilikda barakali ijod qilib kelmoqda. avaz mansurov 1957-yil 2-noyabrda Qo‘qon shahrida tug‘ildi. avazning bolalik

yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalarning musiqa va she‘riyat davralarida o‘tdi. Dastlab musiqa maktabida, so‘ngra Qo‘qondagi musiqa bilim yurtining «musiqa nazariyasi» bo‘limida a’lo baholar bilan o‘qidi. 1982-yilda m.ashrafiy nomidagi toshkent Davlat konservatoriyasining «kompozitsiya va cholg‘ulashtirish» kafedrasini boris zeydman sinfida, 1986-yili asisstenturani professor feliks yanov-yanovskiy rahbarligida bitirdi. kompozitor a.mansurov ish faoliyatini 1973-yilda farg‘ona viloyati musiqali drama teatrining orkestrida sozandalikdan boshladi. 1981—1983-yillarda o‘qish bilan bir qatorda Respublika o‘quvchilar saroyi qoshidagi bolalar musiqa maktabida ishladi. 1982-yili konservatoriyada o‘qishni bitirgach, kompozitsiya va cholg‘ulashtirish kafedrasida pedagog lavozimida asisstenturada qoldirildi. mazkur kafedrada katta o‘qituvchi, dotsent, «sharq fakulteti» dekani, «kompozitsiya va cholg‘ulashtirish kafedra»si mudiri va 2000-yildan boshlab konservatoriya o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor lavozimida ishlamoqda. a.mansurov birinchi ijodiy qalamini fortepiano uchun «Qizcha va tulki», «Qo‘rqinchli tush» ertaklariga musiqa bastalashdan boshladi. skripkachilar ansambli uchun «so‘zsiz qo‘shiq», fortepiano uchun «tokkata-preludiya» va bir

necha qo‘shiqlar yaratdi. a.mansurovning ijodiy faoliyatida kamer vokal janrlar ustunlik qiladi. uning ovoz skripka va fortepiano uchun yozgan «muhabbat» lirik turkumi, 10 dan ortiq romanslari musiqiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. ayniqsa, bolalar qo‘shiqlarini yaratishda a.mansurov yuqori natijalarga erishdi. O‘zteleradiokompaniyasi qoshidagi «bulbulcha» bolalar xor jamoasi ijrosida yangragan «Quyosh bilan suhbat», «kel, baxt kuyin kuylaylik», «Oq kabutar parvozi», «Hur respublikam», «muz qaymoq», «tomchilar qo‘shig‘i», «Dakan ðo‘roz», «Quvnoq bolalar», «Qo‘shig‘im, jon qo‘shig‘im», «O‘zbekiston onajon» kabi 100 dan ortiq qo‘shiqlari mashhur bo‘lib, kompozitorga shuhrat keltirdi. kompozitor estrada janrida ham unumli ijod qilib kelmoqda. «navro‘z», «chimyon», «chamanchamanim», «talabalar qo‘shig‘i», «Oydin yo‘l» kabi estrada qo‘shiqlari shular jumlasidandir. kompozitor a.mansurovning ijodiy faoliyatida teatr sahna asarlariga musiqa bastalash ham ustivor turadi. Jumladan: «Hayvonlar sultoni», «sharq afsonasi», «Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi», «xo‘ja nasriddinning 41-pashshasi», «ur, to‘qmoq» musiqali komediyalarni yaratdi. simfonik orkestr uchun ikkita simfoniya, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun uvertura, damli cholg‘ular orkestri uchun «karnay sadosi» va «askarlar marshi», «sug‘diyona», kamer cholg‘u asarlari, fortepiano uchun «Hayvonot bog‘ida sayr» kabi musiqali asarlarni yaratdi. avazmansurov O‘zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori, O‘zbekiston Respublikasi faxriy yorlig‘i, xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklarining fa’riy yorliqlari bilan taqdirlangan.

## **Dilorom**

### **Omonullayeva(1959)**



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, kompozitor Dilorom Omonullayeva O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi safiga estrada qo‘shiqlari va boshqa asarlari bilan kirib keldi. uo‘zining ijodiy faoliyati bilan respublika musiqa san’atining rivojlanishiga samarali hissa qo‘shib kelmoqda. Dilorom Omonullayeva 1959-yil 1-oktabrda Toshkent da musiqachilar oilasida tug‘ildi. Diloromning qalbiga ona allalari bilan birga musiqiy mo‘jizalar kirib keldi. Qobiliyatli qizcha v.uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida fortepiano sinfi bo‘yicha o‘qiy boshladi. 12 yoshida esa professor Boris Zeydman sinfida kompozitsiyadan ham qo‘shimcha saboq oldi. ilk asarlari orasida turli orkestr, urma cholg‘ular va fortepiano uchun 5 qismli suitasini milliy simfonik orkestri ijro etdi va muvaffaqiyat qozondi. Dilorom Omonullayeva 1978-yili maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent Davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida professor Boris Zeydman sinfida o‘qishni davom ettirdi, kompozitor Rumil Vildanov sinfida o‘qishni imtiyozli diplom bilan bitirdi. yosh mutaxassis talabalik davridayoq Hamza xotirasiga bag‘ishlangan fortepiano uchun «sonata i», «samarqand manzaralari» vqismi suitasi, «sonata ii», bir necha romanslar va iiiqismli kvartet, fortepiano va fleyta uchun «pomir eskizlari» polifonik pyesalarni yaratdi. D. Omonullayeva 1984—1986-yillarda yo‘llanma bilan Guliston san’at bilim yurtida musiqa fanlaridan dars bera boshladi. 1986—1990-yillarda D. Omonullayeva konservatoriyada professor To‘lqin Qurbonov sinfida asistenturani bitirdi, so‘ngra 1990—1993-yillarda konservatoriyada «bastakorlik va cholg‘ulashtirish kafedrasida» o‘qituvchi, 1993-yildan v.uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida o‘qituvchi bo‘lib ishladi. D. Omonullayevaning ijodiy faoliyatida zamonaviy estrada qo‘shiqchilik san’ati ustuvor turadi. u zamondosh shoirlardan u.azimov, e. Obidov, n.narzullayev, z.mo‘minova, x.xudoyberdiyeva va boshqalarning she’rlariga, turli mavzularda 100 dan ortiq qo‘shiqlar yaratdi. ular «siz yoqqansiz menga hamisha», «yomg‘ir yog‘di» «saron», «sen qaydasan», «ikki daraxt», «azizim», «yig‘lama», «yolg‘on dunyo» va boshqalar. kompozitor turli yoshdagi bolalar uchun ham ko‘p qo‘shiqlar bastaladi. uning qo‘shiqlari teleradio to‘lqinlarida doimo yangrab kelmoqda. 1984-yil shoira nodira g‘azallariga 2 ta romans yozdi. D. Omonullayeva musiqa san’atining boshqa janr va shakllarida ham asarlar yaratdi: fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, xor va orkestr

uchun suita, kamer cholg'ular uchun musiqiy asarlar, jumladan, «baxtimiz taronasi», «istiqlol madhiyasi», fortepiano uchun sonata, fortepiano uchun «bolalar albomi», 5 ta kichik pyesa, «kichkintoylar uchun musiqa» to'plamiga 20 ta qo'shiq va 30 ta raqs kuylari kiritilgan, «topishmoq aytishuv», «topishmoq qo'shiqlar», «alifbe qo'shiqlari» va boshqalarni teleradiokompaniyaning «bulbulcha» xor jamoasi simfonik estrada jo'rlig'ida ijro etib kelmoqda. shuningdek, 1997-yil usmonazim she'riga «sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali madhiyasini yaratdi. O'zbek milliy teatri ochilishi munosabati bilan «milliy teatr madhiyasi» va vatanparvarlik mavzusida 30 ga yaqin qo'shiqlar yaratgan. Dilorom Omonullayeva «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni, «Ofarin» mukofoti sohibi, «O'zbekiston — vatanim manim» va boshqa tanlovlar sovrindori.

### **Xurshida Hasanova Tursunova**



O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga yosh kompozitor Xurshida Hasanova Tursunova) 2000 yil qabul qilindi. U musiqa maktabida o'qib yurgan paytlarida yaratgan ilk “Pilla qurtim “ qo'shig'i “Bulbulcha” xor jamoasi ijrosida yangraganida musiqa san'atimizga yana bir yorqin iste'dod sohib, bo'lg'usi kompozitor kirib kelayotganidan nishona bo'lgan edi. Uning fortepiano, skripka, fleyta, goboy, klarnet, torli cholg'u asboblar ansambllariga, simfonik orkestrga, xor jamoalari uchun yaratgan musiqa asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar qo'shiqlari rang-barangligi, dilkashligi, hayotbaxshligi bilan ajralib turadi. Kompozitor har bir estrada va bolalar qo'shiqlarini mazmundor va jozibali bo'lishiga intilib, tinglovchining yuragiga yaqin bo'lgan ta'sirli vositalarni izlab topishga harakat qilib, inson qalbidagi xilma-xil kechinmalarni lirik holda ifodalay olmoqda. Xurshida Otaboyevna Hasanova (Tursunova) san'atkor oilasida 1967 yilning 7 sentyabrida tug'ildi. U bolaligidan musiqaga muhabbat qo'ydi. 1974 yili umumta'lim maktabiga o'qishga

bordi. Bir yildan so'ng T. Sodiqov nomidagi Toshkent shahar bolalar musiqa maktabining fortepiano hamda A.Mansurov sinfida kompozitorlik mutaxassisligidan ham tahsil oldi. 1982 yili maktabni a'lo baholarga bitirib, Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtining musiqa nazariyasi bo'limiga o'qishga qabul qilinadi. Kompozitorlik mutaxassisligidan ham saboq oladi. 1986 yili mazkur o'quv yurtini imtiyozli diplom bilan bitirdi va M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga kirib dotsent M.Mahmudov sinfida mutaxassislikdan saboq oladi. Ustoz rahbarligida turli janr va shakllarda asarlar bastaladi. U 1991 yili konservatoriyani imtiyozli diplom bilan tugatdi. Yo'llanma bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining musiqa fakultetida musiqa nazariyasidan 1998 yilga qadar dars berdi. 1998-99 yillarda konservatoriyaning musiqa nazariyasi kafedrasida o'qituvchi lavozimida ishladi. 1999 yildan buyon Toshkent shahar qo'shimcha ta'lim majmuasi qoshidagi "Sevinch" vokal studiyasida musiqa rahbari lavozimida ishlamoqda. 2000 yildan konservatoriyaning musiqa nazariyasi kafedrasida o'qituvchiligini davom ettirmoqda. Kompozitor X.Hasanova 1991-2001 yillarda fortepiano uchun "Variasiyalar", "Pyesalar", "Sonatino", fortepiano va simfonik orkestr uchun bir qismli "Konsert", simfonik poema, torli orkestr uchun 4 qismli syuita, jo'rsiz xor uchun E.Vohidov so'ziga "Iltijo" ikki qismli turkum xor, skripka, fleyta, goboy, klarnet, fagot kabi cholg'ular, fortepiano jo'rliqida yozilgan pyesalar, yog'ochli-damli cholg'ular kvartetiga "Kvartet" larni yaratdi. X.Hasanova 1998 yildan buyon zamonaviy estrada va bolalar qo'shiqchilik san'atiga e'tibor qaratib, 30 dan ortiq turli mavzularda zamondosh shoirlarning so'zlariga estrada qo'shiqlari va bolalar uchun qo'shiqlar yaratdi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, estrada xonandasi K.Razzoqova repertuaridan quyidagilar; "Chinni gullar", "Sog'inaman", (N.Narzullaev so'zi), "Yetolmayman" (M.Yo'ldoshev so'zi), "Kuz gullari" (Humoyun so'zi), "Rostini ayting" (E.Oxunova so'zi), "Alangadan nido" (M.Yo'ldoshev so'zi), "Sevinch" bolalar vokal guruhining repertuarida esa quyidagi qo'shiqlar o'rin olgan;

“O'zbekiston jannat” (D.Rajab so'zi), “Tabassum qil” (N.Narzullaev so'zi), “Sevinch” (S.Muzaffarov so'zi), “Turnalar” va “Vatan” (H.Rahmat so'zi), “Kamalak” (P.Mo'min so'zi), “Humo qushi” (O'.Hoshimov so'zi), “Sog'lom avlod” (U.Qo'chqor so'zi), “Lola” (I.Muslim so'zi), “Majnuntol” (I.Jiyanov so'zi) va boshqalar. Kompozitor X.Hasanova 2000 yilda Navro'zga bag'ishlangan qo'shiq ko'rik-tanlovida “Turnalar” qo'shig'i uchun 2-darajali mukofotga sazovor bo'ldi. 2000- 01 yillarda Navro'z va Mustaqillik bayram dasturlarida uning “Turnalar” “Sog'lom avlod” va “Lola” qo'shiqlari yangradi. 2000 yilda chegara qo'shinlari tomonidan uyushtirilgan askar qo'shiqlari ko'rik-tanlovida “Chegaramiz harbiylari” uchun eng yaxshi bastakor nomini olishga sazovor bo'ldi. U “Zumrasha” kinojurnaliga va “Archa, archa, archajon” videofilmiga musiqa va 9 dan ortiq qo'shiqlar bastaladi.

**13. Musiqqa san’atning bir turi bo‘lib, bu...**

A). insonni kechinmalari, hissiyotlari orqali birlashtiradi.

B). insonga madaniy hordiq bag‘ishlab, dam oldiradi.

C). Musiqiy bilim beradi, estetik tarbiyani rivojlantiradi

D). Ma’naviy dunyoqarashini shakllantirib, ezgulikka yetaklaydi.

**14. Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o‘zaro uzviy bog‘langan nechta metod bor?**

A).2ta

B).3ta

C).4ta

D).7ta

**15. Solist – kim?**

A). yakkaxon sozanda

B). yakkaxon xonanda

C). boshqaruchi

D). A va B

**16. Bolalarda musiqiy jarayon rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat?**

A).Hissiy munosabat,musiqani eshitish qobiliyati,ijrochilikning ilk shakllanishi.

B).Musiqqa tinglashi,uni kuylashi,ijro usulini o'rganishi.

C).Qo'shiq so'zlarini o'rganishi,nutq ravonligini ta'minlashi.

D).Musiqiy qobiliyatlarni aniqlashi, ,nutq va tafakkurini rivojlantirilishi.

**17.Bolalarning musiqaga oid egallashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari nimalardan iborat?**

A).Kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish

B).Biror cholg'u asbobida mukammal ijro uslubiga ega bo'lish

C).Fortepiano asbobida chalishni o'rganish

D).Kuy bastalashni o'rganish

**18.Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchida qanday ko'nikma hosil bo'ladi?**

A).O'z ovoz ijrosini boshqarish, jo'r bo'lib kuylash

B).Ritmik va raqs harakatlarini bajarish

C).Jo'rnavozlik qilish

D).Dirijyorlik qilish

**19.Musiq madaniyati darsida barcha faoliyatlar o'zaro qanday bog'lanadi?**

A).Mavzu asosida mantiqan bog'lanadi

B).Har bir faoliyat turi mustaqil tarzda

C).O'zaro bog'liq yo'q

D).Ketma-ketlik tarzda

**20.Jamoa bo'lib kuylash faoliyati qay tarzda tashkil etiladi?**

A).Asar tinglanadi, qo'shiq mazmuni va muallifi haqida tushuncha beriladi, so'ng o'rganishga kirishiladi

B).Asar sinf jamoasi ijrosida kuylanadi, qo'shiq mazmuni va muallifi haqida tushuncha beriladi

C).Qo'shiq o'rganiladi, so'ng kuy tavsiflari anglab olinadi

D).Avval o'qituvchi ijrosida tinglanadi, so'ng raqs harakatlari orqali ijro etiladi

**21.Ilk marotaba musiq savodidan qanday bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish ko'zda tutilgan?**

A).Yetti tovush nomi, ketma-ketligi, nota chizig'ida joylashuvi

B).Major va minor tonalliklarida uchtovushlikni kuylash

C).Alterasiya belgilari (diyez, bemol, bekar)ni bilish

D).Asosiy uchtovushliklar va interval-larning aylanishini bilis

**22.MTMda musiqiy mashg'ulotlar qanday reja asosida tuziladi?**

A).Maxsus reja

B).Yillik reja

C).Taqvim reja

D).Haftalik reja.

**23.MTMda musiqa mashg'ulotlari haftasiga necha marta o'tkaziladi?**

A).2 marta

B).3.marta

C).6.marta

D).4.marta

**24.MTMda haftasiga necha marotaba ko'ngil ochar o'yinlar tashkil etiladi?**

A).1 marta

B).2 marta

C).4 marta

D).3 marta

**1 . .... - yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida foydalaniladi?**

A). Tushuntirish

B).Ko'rsatma berish

C).Izohlash

D).To'g'ri javob yo'q

**25. .... - izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi?**

A). Tushuntirish

B).Ko'rsatma berish

C).Izohlash

D).To'g'ri javob yo'q

**26. ... - bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi?**

A). Tushuntirish

B).Ko'rsatma berish

C).Izohlash

D).To'g'ri javob yo'q

**27. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan nechta metodi bor?**

A). 3

B).7

C).4

D).To'g'ri javob yo'q

**28. Nota chizig'i nechta chiziqdan iborat?**

A).5 ta.

B).6 ta.

C).7 ta.

D).3ta

**29.Musiqaning ulkan manbayi nima?**

A).Qobiliyat

B).Iroda

C).Xotira

D).Tafakkur

**30.Musiqa mashg'ulotining asosiy elementi.**

A).Tinglash

B).Ashula

C).Raqs.

D).Kuylash

**31.Kuylash faoliyatini amalga oshirish chog'ida o'qituvchi tomonidan musiqiy asarning tonalligini o'zgartirishiga sabab nima?**

A).O'quvchilarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda

B).O'qituvchining ijodkorligini belgilash uchun

C).O'qituvchining izlanuvchanligini namoyon qilish uchun

D).O'quvchilarning talablari asosida

**32.Qo'shiq kuylashda nimalarga e'tiborni qaratish lozim?**

A).To'g'ri nafas olish, to'g'ri talaffuz qilish, dinamik belgilarga rioya qilish

B).Alterasiya belgilarini bilish, kalit oldi belgilariga rioya qilish

C).Kuyni tavsiflab bera olish, asar muallifi haqida so'zlab berish

D).Staccato va legatoda kuylay olish

**33. Ijro madaniyati deb nimani tushunamiz?**

A). Qo'shiqlarning so'z ma'nolarini jarangdor va ifodali kuylash

B). Xalq va ustozona musiqani shakl va mazmuniga qarab ajratish

C). Jiddiy va yengil musiqaning ifoda vositalarini ajratish

D). Ta'sis etilgan ko'rik-tanlovlarni farqini anglash

**34.«Ritm harakatlar asosida yashamoq kerak»-jumlasini kimga tegishli?**

A).E.Jak-Dolkros

B).Beruniy

C).Farobiy

D).To'g'ri javob yo'q

**35.Qaysi qatorda xalq orasida ommalashgan raqs ko'rsatilgan?**

A)."Lazgi"

B)."Chag'alloq "

C)."Yel pozalandi"

D)." Andijon polkasi"

**36.Taniqli raqqosa M.Turg'unboeva qaysi ijodiy dastani tashkil qilgan?**

A).Bahor

B).SHodlik

C) Qizlar.

D).Barega javoblar to'g'ri

**37. Harakat turlari nechtaga bo'linadi?**

A).3ta

B).4ta

C).7ta

D).2ta

**38. Yurish, yugurish, sakrash qaysi harakatga kiradi?**

A).Gimnastika

B).Raqs

C).Asosiy

D).B va C

**39.«O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik» nomli kitobi?**

A).M.Burxonov

B).S.Vasilenko

C).M.Ashrafiy

D). A.Leviyev

**40.Urib chalinadigan cholg'ularga qaysilar kiradi?**

A). Dutor,nog'orachalar, doira

B). Dutor,nog'orachalar, nay

C). Doyra, nog'orachalar, kayrok

D). Dutor,kayrok, g'ijjak

**41. «Yallama yorim» kuyi bastakori kim?**

A). O'zbek xalq kuyi

B). S.Vasilenko

C).M.Ashrafiy

D). A.Leviyev

**42.Safoil qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?**

- A).Urrib chalinadigan cholg'ular
- B).Puflab chalinadigan cholg'ular
- C).Chertib chalinadigan cholg'ular
- D).Kamonchali cholg'ular

**43.Uchburchak (Triugolnik) qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?**

- A).Urrib chalinadigan cholg'ular
- B).Puflab chalinadigan cholg'ular
- C).Chertib chalinadigan cholg'ular
- D).Kamonchali cholg'ular

**44.MTMda musiqiy mashg'ulotlar qanday reja asosida tuziladi?**

- A).Maxsus reja
- B).Yillik reja
- C).Taqvim reja
- D).Haftalik reja.

**45.MTMda musiqa mashg'ulotlari haftasiga necha marta o'tkaziladi?**

- A).2 marta
- B).3.marta
- C).6.marta
- D).4.marta

**46.MTMda haftasiga necha marotaba ko'ngil ochar o'yinlar tashkil etiladi?**

- A).1 marta
- B).2 marta
- C).4 marta
- D).3 marta

**47.MTM larda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar qayerdan boshlanadi?**

- A).Bog'chadan.
- B).Uydan.
- C).Maktabdan
- D).mahalladan

**48.Musuqaviy tovushlar va ularning xususiyati.**

- A).Shovqinli, musiqali, tovushli
- B).Tovushli, musiqali, shovqinli.
- C).Musiqali va shovqinli.
- D).musiqali

**49. ... - musiqa mazmunining moddiy ifodasidir?**

- A). Shakl
- B). Ritm
- C). Hissa
- D). B va C

**50. «Hissiyotini o‘stirish lozim, Aks holda, musiqa tarbiyaviy vazifani bajarmaydi».**

- A). N.A.Vetlugina
- B). Rudakiy
- C). Farobiy
- D). B va C

**51. Musiqa darsi boshqa qanday fanlar bilan aloqador?**

- A). Pedagogika, psixologiya, tasviriy san‘at, adabiyot, fizika
- B). Faqat matematika va geometriya bilan bog‘liq
- C). Barcha fanlar bilan bog‘liq
- D). Algebra, ximiya, astronomiya

**52. Musiqa ijodkorligi faoliyati bolalarda nimani o‘stiradi?**

- A). Musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini
- B). Ritmik harakatlarni o‘zlashtirishini o‘stiradi
- C). Asar badiyatini ifodalash malakasini
- D). Musiqa shakllari va janrlari haqidagi tushunchasini o‘stiradi

**53. O‘qituvchining darsga ijodiy yondashuvini qanday izohlaysiz?**

- A). Musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash
- B). Tushuntirish maqsadida aniq hodisalar va misollardan foydalanish
- C). Kasbiy mahoratini oshirish
- D). Yangi dars ishlanmalarini o‘ylab topish

**54. Jamoa bo‘lib kuylash faoliyati qay tarzda tashkil etiladi?**

- A). Asar tinglanadi, qo‘shiq mazmuni va muallifi haqida tushuncha beriladi, so‘ng o‘rganishga kirishiladi
- B). Asar sinf jamoasi ijrosida kuylanadi, qo‘shiq mazmuni va muallifi haqida tushuncha beriladi
- C). Qo‘shiq o‘rganiladi, so‘ng kuy tavsiflari anglab olinadi
- D). Avval o‘qituvchi ijrosida tinglanadi, so‘ng raqs harakatlari orqali ijro etiladi

**55. Ilk marotaba musiqa savodidan qanday bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish ko‘zda tutilgan?**

- A). Yetti tovush nomi, ketma-ketligi, nota chizig‘ida joylashuvi
- B). Major va minor tonalliklarida uchtovushlikni kuylash
- C). Alterasiya belgilari (diyez, bemol, bekar)ni bilish

D).Asosiy uchtovushliklar va interval-larning aylanishini bilis

**56.Registrllar necha turdan iborat?**

- A).Pastki, o‘rta, yuqori.
- B).Pastki, o‘rta, ingichka
- C).Yo‘g‘on, orta, ingichka
- D). O‘rta, ingichka

**57.Nota chizig‘i nechta chiziqdan iborat?**

- A).5 ta.
- B).6 ta.
- C).7 ta.
- D).3ta

**58.Musiqa ta’limidagi ko‘rgazmalilik turlari:**

- A). Tabiiy ko‘rgazmalar (tabiatdan olingan). Eshittirishga doir ko‘rgazmalar (grammplastinkalar, magnit lentalar, kompyuterning eshittirish moslamalari).
- B). Grafik ko‘rgazmali qo‘llanmalar (chizma,sxema, jadvallar). Tasviriy ko‘rgazmalar (suratlar, fotosurat, videofilg‘mlar).
- C). Barcha javoblar to‘g‘ri
- D). Muayyan belgilarni ifodalaydigan ramziy ko‘rgazmalar.

**59. Differentsial guruh deganda qanday guruh tushuniladi.**

- A). Ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar kiradi.
- B). Ovozi, musiqiy qobiliyati o‘rtacha bo‘lgan, ya’ni musiqa rahbarining ovozigacha ergashib, tayanib kuylaydigan bolalar kiradi.
- C). Ovozi uncha yaxshi bo‘lmagan, musiqiy qobiliyati bo‘sh bo‘lgan bolalar kiradi.
- D).Barcha javoblar to‘g‘ri

**60.Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida musiqali o‘yin metodining asosan necha turi tavsiya etiladi.**

- A.) 2ta
- B.)4ta
- C.)3ta
- D.)6ta

**61. Bog‘chadagi musiqali tarbiya metodikasida mo‘siqali o‘yin necha turga bo‘linadi?**

- A. ) 2
- B. ) 5
- C. ) 3

D.)4

**62. Musiqa madaniyati darslarida bajariladigan o'yinlar necha turga bo'linadi?**

A.)2

B.)3

C.)4

D.)5

**63. Vatanni sevish va e'zozlash, unga munosib farzand bo'lib yetishish, yutuqlaridan faxrlanish hissi ro'hida tarbiyalaydigan bayramni toping.**

A.)Mustaqillik bayrami

B.)Murabbiylar kuni

C.)Mehrjon bayrami

D.)Yangi yil bayrami

**64. "Baxtli erkato'y" qo'shig'I mualliflarini toping.**

A.)T. Toshmatov, X. Muhammad

B.)M. Ikromova, X. Muhammad

C.)Mo'min, S.Akramova

D.)D. Omonullayeva, T.Toshmatov.

**65. Tabiat uyg'onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat go'zalligidan zavqlanish va uni asray bilish, mehnatni ulug'lash kabi g'oyalarni o'zida mujassam etgan bayramni toping.**

A.)Navro'z

B.)Mustqillik

C.)8-mart

D.)Yangi yil

**66. "Musiqiy alifbo" kitobining muallifi kim.**

A.)N. A. Vetlugina

B.)N.Q. Konanova

C.)A. Leviyev

D.)I. Akbarov

**67. "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik" kitobining muallifi kim.**

A.)A. Leviyev

B.)N. A. Vetlugina

C.)I. Akbarov

D.)N.Q. Konanova

**68. Bolalar cholg'ulari necha turga bo'linadi?**

- A. )2
- B. )3
- C. )4
- D. )5

**69. Klaves qanday asbob?**

- A. )Palisandr daraxtidan tayyorlangan 2 ta tayoqcha, bir-biriga urib ovoz chiqariladi.
- B. )Ikki tarafi teri bilan qoplangan aylana asbob.
- C. )Ikki plasmassa shar va ularning ichida toshchalar bor.
- D. )Xuddi doiraga uxshaydi.

**70. Maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulot necha daqiqa o'tkaziladi?**

- A. )5-10
- B. )10-15
- C. )15-20
- D. )20-25

**71. Retmikaning asoschisi kim?**

- A.)E.Jak-Dolkros
- B.)A. Leviyev
- C.)N.Q. Konanova
- D.)N. A. Vetlugina

**72. Harakat turlari nechchiga bo'linadi?**

- A.)3
- B.)4
- C.)5
- D.)6

**73. "Retmik harakatlar asosida yashamoq kerak" deb kim aytgan.**

- A.)E.Jak-Dolkros
- B.)N.Q. Konanova
- C.)N. A. Vetlugina
- D.)A. Leviyev

**74. E.Jak-Dolkros qayerlik ijodkor bo'lgan?**

- A. )Shvetsariya

- B. )Angliya
- C. )Amerika
- D. )Rossiya

**75. O'quv yili davomida o'quvchilar qancha asar tinglaydilar?**

- A.)12-14
- B.)14-16
- C.)16-18
- D.)18-20

**76. Tarbiyalanuvchilar bir asarni necha martta tinglashlari lozim?**

- A. )2-3 mashg'ulot
- B. )3-4
- C. )4-5
- D. )5-6

**77. Tarbiyalanuvchilarda musiqaga qiziqish qanday rivojlanadi?**

- A. )Sevimli asarini takror-takror tinglash orqali
- B. )Gendan o'tadi
- C. )Mashq qilish orqali
- D. )Kichik yoshdagi bolalarda rivojlanmaydi.

**78. Bolani musiqa madaniyatini rivojlantirish necha bosqichdan iborat?**

- A. )3
- B. )4
- C. )5
- D. )6

**79. MTM gacha yoshdagi bolalarga tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan nechta metodi bor?**

- A.)3
- B.)4
- C.)5
- D.)6

**80. Ko'rgazmali metodning necha turi bor?**

- A.)2
- B.)3
- C.)4
- D.)5

**81. Tushuntirish bu qanday metod?**

- A.)Yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida foydalaniladi.
- B.)Izohlar, ijro, raqs, mashq harakatlarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi
- C.)Bunda bolaga o'rgatishda bevosita musiqa bilan bog'lanadi
- D.)Bolalar o'yin, raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi.

**82. Amaliy metod necha bosqich bo'ladi?**

- A. )3
- B. )4
- C. )5
- D. )6

**83. Musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi- deya kim ta'kidlagan.**

- A.)V. Vetlugina
- B.)E.Jak-Dolkros
- C.)N.Q. Konanova
- D.)A. Leviyev

**84. Talant nima?**

- A.)Qobiliyatning eng yuqori darajasi
- B.)Mavhum bir turdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish
- C.)Loqaydlikning aksi
- D.)Eng kuchli bilim egasi

**85. Musiqiy qobiliyat bolada boshida qanday bo'ladi?**

- A.)Qo'pol
- B.)Nozik
- C.)Mukammal
- D.)Bo'lmaydi.

**86." Kelajak yuksak intellektual salohiyat, bilim va tafakkurga ega bo'lgan yoshlarniki" deya kim ta'kidlagan?**

- A. )I.Karimov
- B. )Sh. Mirziyoyev
- C. )A.Temur

D. )A. Navoiy

**87. Bola mustaqil faoliyatni qayerdan o'rganadi**

- A. )Maktab, oila, tashqi muhit
- B. )Internet, televezor, radio.
- C. )Kutubxona, ko'cha, oila
- D. )Maktab, internet, televezor.

**88. "Ishning natijaviyligini ta'minlash bu har bir rahbar xodimning burchi va majburiyatidir" deya kim ta'kidlab o'tgan?**

- A. )Sh. Mirziyoyev
- B. )I.Karimov.
- C. )A. Temur
- D. )To'g'ri javob yo'q

**89. Plomasterlar metodi nimaga yordam beradi?**

- A. )Bolalarning tasavvur va tafakkurlarini rivojlantiradi
- B. )So'zlashish nutqini rivojlantiradi
- C. )Rasm chizishini rivojlantiradi
- D. )Qo'shiq kuyalashni rivojlantiradi

**90. Kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar yoshi to'g'ri berilgan qatorni toping?**

- A. )3-4
- B. )4-5
- C. )5-6
- D. )6-7

**91. O'rta yosh tarbiyalanuvchilarning yoshini aniqlang.**

- A. )4-5
- B. )5-6
- C. )6-7
- D. )3-4

**92. Katta yosh tarbiyalanuvchilarining yoshini aniqlang.**

- A. )5-6
- B. )6-7
- C. )4-5
- D. )3-4

**93. Maktabga tayyorlov tarbiyalanuvchilari yoshini aniqlang.**

- A. ) 6-7
- B. ) 5-6
- C. ) 4-5
- D. ) 3-4

**94. 4 yoshli bolaning lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakasini aniqlang.**

- A. )Turli xil mazmun va kayfiyatdagi musiqani eslab qolish.
- B. )Bolalar cholg'ularida ijro etish usullarini bilish
- C. )Musika asarining shaklini mustqil aniqlay olish
- D. )Kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay olish.

**95. 5 yoshli bolaning lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakasini aniqlang**

- A. ) Bolalar cholg'ularini ovoz tembridan farqlay olish.
- B. ) Turli xil mazmun va kayfiyatdagi musiqani eslab qolish.
- C. ) Musika asarining shaklini mustqil aniqlay olish
- D. ) Kuylash va harakatlanishni musiqaga moslay olish.

**96. 6 yoshli bolaning lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakasini aniqlang.**

- A. ) Qo'shiq nomi va bastakorini bilish.
- B. ) Xor bo'lib, ansamblda va yakka kuylay olish
- C. ) Harakatli o'yinlarda faol ishtirok etish.
- D. ) Birgalikda kuylay olish.

**97. “Bu ta’lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog’chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi”. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to’g’risidagi qonunning nechanchi moddasi.**

- A. )11-modda
- B. )12-modda
- C. )13-modda
- D. )14-modda

**98. O'rta guruhlarda musiqashg'uloti vaqti qancha vaqt davom etadi?**

- A. )20-25
- B. )30-35
- C. )25-30
- D. )15-20

**99. Katta guruhlarda musiqa mashg'uloti vaqti qancha vaqt davom etadi?**

- A. )25-30
- B. )30-35
- C. )35-40
- D. )40-45

**100. Katta guruhlarda musiqa mashg'uloti vaqti qancha vaqt davom etadi?**

- A. )30-35
- B. )35-40
- C. )20-25
- D. )25-30

**101. Komplus mashg'ulot nima?**

- A. )Musika, adabiyot, tasviriy san'at bilan birdek shug'ullanish.
- B. )Faqat musiqa bilan shug'ullanish
- C. )Adabiyot bilan shug'ullanish
- D. )Tasviriy san'at bilan shug'ullanish

**102. "Musika odam ruhining yo'ldoshidir" deb kim aytgan?**

- A. )Shayx Sa'diy
- B. )Farobiy
- C. )Ibn Sino
- D. )Navoiy

**103. Ixtiyoriy diqqat bolada necha yoshda shakllanadi?**

- A. )5-6
- B. )6-7
- C. )7-8
- D. )8-9

**104. Inson didini nima shakllantiradi?**

- A. )Musika
- B. )Jismoniy tarbiya
- C. )Kiyinish
- D. )Oila

**105. Bolalarning rivojlanish xaritasi necha yoshlar oralog'ini qamrab oladi?**

- A. )3-7
- B. )4-8
- C. )2-6
- D. )1-5

## GLOSSARIY

**Mashq** –talab qilingan hatti–harakatlarni ko’p martalab qaytarish,ularni avtomatik bajarilish darajasiga yetkazilishdan iborat amaliy tarbiya metodi; biron hatti–harakatning ( aqliy yoki amaliy) yaxshi o’zlashtirib olish maqsadida reja asosida tashkillashtirilgan qayta bajarilishi. U yoki bu ko’nikmalarni egallash asosida mashq yotadi. Turlari: davriy mashqlar (muayan hatti–harakatlarning izchil ketma–ketlikda uzluksiz qaytarish); davriy bo’lmagan mashqlar (takrorlanmaydigan hatti–harakatlar qatorini bajarish).

**Musiq**a – turli-tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi, g’oyaviy emosional mazmunga ega bo’lgan san’atning turi.

**Musiq**a **estetikasi**-musiq

**tarixi** - musiq

**asboblari**– musiq

**zali**- musiq

narsalar va kostyumlar bo'ladi. Eshtishda kamchiligi bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus maktabgacha taolim muassasasidagi musiqa zali yuqoridagilardan tashqari yana tovushni kuchaytirib beruvchi apparatura uchun indukasiya ilgagi bilan taominlangan bo'lishi kerak.

**Musiqa zinapoyasi-** musiqali tovush qatorlariga ega bo'lgan sakkiz pillapoyali zinapoya, yog'och yoki plastmassa asosdan va metall plastinalar mahkamlangan olinadigan zinachilardan iborat. Metall plastinalarga bolg'acha bilan urilganda, ma'lum balandlikdagi tovush xosil bo'ladi. MTMda o'tqaziladigan didaktik musiqa o'yinlarida qo'llanadi.

**Musiqa mashg'ulotlari-** musiqiy nutq va musiqa tilining o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan mashg'ulotlar turi. Mavzulari: «Qattiq- sekin», «Baland-past», «Musiqaning uchta janri», «Musiqa nima haqda hikoya qiladi?» va h.q.

**Musiqa rahbari-** MTM jamoasi tarkibiga kiradigan pedagogik xodim, musiqa faoliyatining tashkil etishning turli shakllari va ko'rinishlaridan foydalanib, tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo'lgan iqtidorlarini rivojlantirish, estetik ta'bini shakllantirish ishlari bilan shug'ullanadi. Musiqa rahbari bitta yoki bir nechta musiqa asboblari chalishni bilishi, amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat yo'nalishlarini tarbiyalanuvchilarning individual va yosh xususiyatlarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda belgilashi lozim.

**Musiqa ritmini sezish-** musiqadan chuqur ta'sirlanish va buning natijasida musiqaning ritmik ifodaligini his etish qobiliyati.

**Musiqa tarbiyasi-** estetik tarbiya sohalaridan biri; MTM va maktablarda amalga oshiriladi. Bolada ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida uning musiqa madaniyatini tarbiyalash va musiqaviy mayllarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon. Musiqa tarbiyasining vazifalari: bolaga musiqani sevish va tushunishni o'rgatish, uning musiqani eshitish qobiliyatini va musiqaga havasini rivojlantirish, unga eng sodda ijrochilik ko'nikmalarini singdirish (kuylash, hirgoyi qilish).

**Musiqa terapiyasi-** psixoterapevtik metodlardan biri, musiqaning o'ziga xos xususiyatlaridan davolash vositasi sifatida foydalanishga asoslangan Musiqashunoslarning musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqa estetikasi, musiqa tanqidi, musiqa folg'klorshunosligi kabi sohalarining yutuqlariga tayanadi.

**Musiqqa tovushi-** musiqqa birligi, u o'zining ma'lum balandligi, qattiqdigi, davomiyligi va tembri bilan ajralib turadi.

**Musiqqa faoliyati-** musiqqa vositasida rivojlatirish jarayonida musiqqa faoliyatining barcha turlarini qo'llash. Bolalar musiqqa faoliyati turlari: musiqqani, uning harakati, o'ziga xos ohanglari, obrazlilik va betakror musiqqa san'tini «kuzatish», ya'ni idrok etish; musiqqani tinglash, faol musiqqa amaliyoti (qo'shiq aytish, musiqqa asboblarini chalishdan foydalangan holda); musiqqani yaratish, ya'ni musiqqani tinglash va ijro etishdan bilan bog'liq bo'lgan bolalar ijodiyoti. MTMda musiqqa faoliyatini tashkil etish turlari: frontal musiqqa mashg'ulatlari (kompleks, mavzu bo'yicha, yetakchi (dominant), an'anaviy); guruxiy individual musiqqa mashg'ulatlari (ijodiy, musiqqani eshtish iqtidori va ovozni rivojlantirish, raqs harakatlari ni o'zlashtirish, bolalarga musiqqa asboblarini chalishni o'rgatish); musiqqa zalidan tashqarida tashkil etilgan musiqqa muhiti (mustaqil musiqqa faoliyati, musiqqa sadolari ostida uyg'onish, musiqqali xordiq, ertalabki badantarbiya, fizkultura mashg'ulatlari); bayram va ko'ngilxushliklar (mavsumiy, mavzuviy, folklor, o'yinga asoslangan).

**Musiqqa shakli-** 1) musiqqa asarida muayan g'oyaviy- badiy mazmunni o'zida mujassamlashtirgan ifoda vositalari majmui. 2) Musiqqa asrining tuzilishi. Har bir asarda musiqqa shakli o'ziga xos, individual xarakteriga ega, biroq uning turli ko'lamdagi nisbatan turg'un mavjud- davr, oddiy va murakab ikki qisimli shakli, uch qisimli shakli, variatsiyalar shakli, rondo, sonata shakli va h.q.. Musiqqa shaklining mazmun va tuzilishi jihatidan eng kichik shakli bu ohangdir, bitta va undan ortiq ohanglar musiqqaviy birikmani hosil qiladi, birikmalardan jumlar hosil bo'ladi, ikkita jumla ko'p hollarda dani (u odatda 8 yoki 12 taktdan iborat bo'ladi) tashkil qiladi. Davr shaklida odatda musiqqa asarining mavzusi bayon etiladi. Shunday qilib, musiqqa shaklining tarkibiy qisimlari o'zaro chambarchas bog'liq.

**Musiqqaga bo'lgan qobiliyatni rivojlantirish-** bolaning tabiiy qobiliyatiga tayangan holda. Unda musiqqa madaniyatining asoslarini, ijodiy faollikni shakllantirish orqali qobiliyatini rivojlantirish jarayoni.

**Musiqqaga layoqatlilik-** aynan musiqqa faoliyati bilan shug'ullanish uchun talab qilinadigan individual-psixologik xususiyatlar majmui. Musiqqaga layoqatlilikning bosh belgisi - musiqqani xis qilish, undan ta'sirlanish, musiqqaga dilini ocha bilish, musiqqa ohangini nozik va chuqur idrok etish.

**Musiqani eshtish qobiliyati-** musiqa tovushlarning ayrim sifatlarini idrok etish va ular o'rtasidagi funksional aloqalarni sezish qobiliyati. Musiqani eshtish qobiliyati baland va past tovushlarni idrok etish, musiqa ohangini to'g'ri eslab qolish va qaytarish kabi xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Musiqaning eshtish qobiliyati musiqadagi qobiliyatning tarkibiy qismidir.

**Mustahkamlash-** esda qoldirilgan muayan materialni turli usullar bilan ongimizda yanada mustahkamlashga qaratilgan xotira jarayoni.

**Dinamika** –tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi.

**Ohangdoshlik**-bir necha tovushlarning bir yo'lga solib kuylanishi.

**Cholg'uchi**-musiqachi, sozanda cholg'uasboblarda ijro etuvchi.

**Tafakkur** – kishi ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini tahminlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir.

**Sensor** (bilish) – hissiy jihatdan bilishdir.

**O'spirinlik davri** – yosh davri bo'lib, yigitlarda 17-21 yosh, qizlarda esa 16-20 yoshlarga to'g'ri keladi.

**Adoptasiya** - (optatio - xoxish, tanlov), kishi tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishi.

**Idrok** - predmet va hodisalarning sezgi organlariga bevosita tahsir etishi jarayonidir.

**Idrok konstantligi** – olam biz tomonimizdan nisbatan doimiy, o'zgarmas sifatida idrok etiladi.

**Mustahkamlash-** esda qoldirilgan muayan materialni turli usullar bilan ongimizda yanada mustahkamlashga qaratilgan xotira jarayoni.

**Dinamika** –tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi.

**Ohangdoshlik**-birnechatovushlarningbiryog'asolibkuylanishi.

**Cholg'uchi**-musiqachi.sozandacholg'uasboblardaijro etuvchi.

**Akkord**(it. Accordo, fr. Accord - birdamlik)– turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo'shilib, yaxlit holda yangrashi. Akkord odatda tersiya intervali bo'yicha taqsimlanadigan tovushlardan hosil bo'ladi. To'rt tovushli akkord – septakkord, besh tovushli akkord – nonakkord, olti tovushli akkord – undesimakkord deyiladi.

**Ansambl** (fr. Ensemble - birgalikda)- 1. Vokal yoki cholg'u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to'da san'atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo'lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi

– duet, uch ijrochi – trio yoki terset, to'rt ijrochi – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, yetti ijrochi – septet, sakkiz ijrochi – oktet va h.k. Ba'zan ansambl so'zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

**Applikatura** (nem. Applicatur - qo'yimoq, bosmoq) – musiqa cholg'u asboblari ijro qilganda barmoqlarni to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda kўrsatilishi ham applikator deyiladi. Applikator arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo'yiladi.

**Diapazon** (yun. Diapason – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg'u asbobining tovush uajmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig'i.

**Diatonika**(yun. Diatonikos – bir tondan ikkinchi tonga o'tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy mador, minor va o'rta asr lادلari uchun asos bo'lgan asosiy yetti pog'onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

**Diatonik gamma** – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To'liq diatonik gammada yettita tovush bo'ladi.

**Dinamika** (yun. Dinamikos - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya'ni bir yo'la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta'kidlab eshittirish v.b. bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: forte - qattiq, kuchli; piano – sekin; crescendo – tovushni asta-sekin kuchaytirish; diminuendo – tovushni asta-sekin pasaytirish.

**Interval** (lot. Intervallum – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o'rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa garmonik interval, birin-ketin yangrasa – melodik interval deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava.

**Lad**– turg'un va noturg'un musiqiy tovush pog'onalarining o'zaro bog'liqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada yetti pog'onali major va minor lادلari asosiy ladlar hisoblanadi.

**Orkestr** (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholg'u asboblarda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholg'u asboblarning tarkibiga ko'ra orkestrlarning turlari: simfonik – to'liq tarkibdan iborat, torli – kamonli cholg'ular, damli - yog'och va mis damli cholg'ular, shovqinli - urma-

zarbli cholg'ular, yoki estrada-simfonik – yuqorida sanab o'tilgan cholularga elektr-cholgular, ya'ni gitaralar, sintezatorlar kabilarning qo'shilishi asnosida .

**Partitura**(it. partitura – bo'lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko'p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholg'u asboblari bo'yicha keladi. O'z navbatida, bir turdagi cholg'ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo'yicha pastki satrlarda yoziladi.

**Partiya** (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

**Registr** (lot. Registrum – ro'yxat, yozib, qo'yish) – musiqiy matoning oshangini yuqori, o'rta va pastki qismlarga mansubligi bo'yicha ajratish.

**Rekonstruksiya** (lot. Re – «yangilanish» ma'nosini bildiruvchi so'z yasovchi qo'shimcha, va constructio - tuzilma) - qadimiy musiqiy cholg'ularni qayta tiklash. Ushbu atama zamonaviy musiqiy cholg'ushunoslikda xalq cholg'u asboblari tiklash va orkestrga mansub turlari (pikkolo, alt, bas va b.)ni yaratish ma'nosida qo'llaniladi.

**Soz**– 1. Tovushlarning balandlik holati va munosabati. Cholg'u asboblariidagi soz ularning tovushqatori tuzilishi va baland-pastligini aniqlaydi. Orkestr va ansambllar sozi shu jamoadagi cholg'u asboblarning bir-biriga bo'lgan balandlik munosabatlariga ko'ra sozlanadi. 2. Torli cholg'u asbob.

**Tembr** (fr. tembre - qo'ng'iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg'u yoki xonanda ovozinin o'ziga xos tovush xarakteri. Cholg'u asbobining tuzilishi va shakliga ko'ra uning tembri turlicha bo'ladi.

**Temperasiya** (lot. Temperatio – to'g'ri munosabatda, bir o'lchamda) – musiqiy pog'onalar oralig'idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig'ining teng 12 yarim tonga bo'linishi bir tekis temperasiya bo'ladi.

**Tovushqator** – cholg'u asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo'lgan tovushqator. U yuqori ko'tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

**Transpozisiya** (lot. *Transponere* – joyini o'zgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko'chirish. Transpozisiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovozigga noqulay bo'lsa; bir cholg'u asbobdan ikkinchisiga ko'chirish zarurati bo'lsa; yozilgan notalar o'qish uchun noqulay bo'lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozisiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o'zgarmaydi.

**Transpozisiyalanuvchi cholg'ular** – kuy ijro etilganida nota yozuvida yozilganiga ko'ra past yoki baland tovush bilan yangraydigan cholg'ular. Masalan, qashqar rubobi, afg'on rubobi yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Nay pikkolo esa yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi.

**Unison** (it. *unisono* – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

**Xromatizm** (yun. *Chroma* -rang) – diatonik laddagi pog'onalarning yarim tondan o'zgarishi. Ular alterasiya belgilari – diyez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, «do» va «do-diyez».

**Xromatik gamma** – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

**Ad libitum** – xoxishga ko'ra, istalgancha

**A2, A3** – ikkala, uchchala (cholg'u)

**Archi** – torli cholg'ular guruhining belgilanishi

**Arco** – kamon

**Arpa** – arfa

**Attacca** – keyingi asarni tanaffussiz chalish

**Bachetta** – tayoqcha (zarbli cholg'ularda chalish uchun)

**Bassklarinet** (nemischa) – bas-klarnet

**Basso, bassi** – bas, baslar; kontrabas

**Batterie** (fransuzcha) – zarbli cholg'ular guruhining belgilanishi

**Becken** (nemischa) – tarelkalar

**Bratsche** (nemischa) – alt

**Campana** – qo'ng'iroq

**Campanelli** – qo'ng'iroqchalar  
**Cassa** – katta baraban  
**Castagnetti** – kastanyettalar  
**Celesta** – chelesta  
**Cello** – violonchel  
**Cembalo** – klavesin  
**Chitarra** – gitara  
**Corno inglese** – ingliz surnayi  
**Clarinetto** – klarnet  
**Clavicembalo** – klavesin  
**Cloche** (fransuzcha) – qo'ng'iroq  
**Col** – bilan  
**Col legno** – kamonning taxta tomoni bilan chalish  
**Con** – bilan  
**Con sordini** – surd  
 ina bilan

<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Sozandalik</b>	Ma'lum bir sozni (rubob, tanbur, doyra, nay va x.k) mukammal egallagan, ham jo'rnavoz, solist va jamoaviy ijrolarda qatnashib, mumtoz san'atni targ'ibotchisidir.	This is player of Uzbek national instruments like rubob, tanbur, doyra, nay and ets. He can play with solists, he solo player and play with other instruments.
<b>An'anaviy ijrochilik</b>	Milliy musiqalarimizni asosini o'rganuvchi soha	Traditional performing arts learning basic of nationale music of Uzbekistan.
<b>Vohaga mansub janrlar</b>	Katta ashula Farg'ona-Toshkent vohasi, Mavrigiy va Buxorcha Samarqand-Buxoro vohasi, Suvoriylar Xorazm vohasi. Bundan tashqari dostonchilik, jirovchilik, halfachilik, yallachilik, laparchilik va boshqalar.	Janrs from Fergana-Tashkent Katta ashula (Big song), from Samarkand and Bukhara Mavrigi and Bukhorcha, from Khorezm Suvoriy and also janrs like doston (play epos), jirov (play epos an another stile), khalfa (womans epos players), yalla (melodies for the dans), lapar (sing a song in competition) and

		ets.
<b>Uch voha mumtoz musiqa i</b>	Bular Xorazm mumtoz musiqa lari, Shashmumtoz musiqa va Farg'ona-Toshkent mumtoz musiqa yo'llaridir.	That is Khorezm's makom, Shashmakom and Fergana-Tashken's makom ways.
<b>Ustoz-shogird tizimi</b>	Ustoz shogird tizimi an'anaviy ijrochilik sohasida eng sermahsul dars berish uslubi.	From teacher to student systems effect way for learning traditionale performing arts.
<b>Mukammal ijro</b>	Barcha jihatlari to'liq, chiroyli, behato ijro mukammal hisoblanadi.	All parameters is full and beutefull plays is the original perform.
<b>Nomukammal ijro</b>	Kamchiliklari mavjud bo'lgan ijro nomukammal ijro deyiladi.	Perfom with the mistakes we call unoriginal perform.
<b>Ijrochilik maktablari</b>	Ma'lum bir ustoz ijrochi tomonidan yaratilgan ijro maktabi deyiladi. Hozirgi kunda bunday maktablarning juda ko'p namunalari mavjud.	Performing schools belded from one of masters. Now in our contry many of performing schools

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. –Toshkent, 2008.
2. Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desangiz. D.Sharipova va boshqalar (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) Metodik qo‘llanma. –T., 2006.
3. G‘aybullaeva M. Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi. –Toshkent, 2006.
4. Maktab ta‘limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi asosida malaka oshirish va qayta tayyorlash sifat va samaradorligini ta‘minlashning ilmiy-pedagogik asoslari. (tezislar to‘plami) 2006-yil 26-27-may. – Toshkent, 2006.
5. Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida. Tuzuvchi: D.J.Sharipova. – T.: Ilm Ziyo, 2007.
6. Qoraboyeva D., Ibrohimova Z. va boshqalar. Uchinchi ming yillikning bolasi. Tayanch dasturi va o‘quv qo‘llanmasi uchun badiiy to‘plam. (she‘r, hikoya, qo‘shiq, ertak va topishmoqlar)–Toshkent, 2006.
7. Raximova N. Kuyla, oftobim. – Toshkent, 2006.
8. Tayyorlov guruh tarbiyachilari uchun nutq o‘stirish mashg‘uloti ishlanmalari. (Metodik qo‘llanma) Tuzuvchilar: F.R.Qodirova, M.Fayzullaeva, M. Rustamova. – T., 2010.
9. Fayzieva U. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ta‘limi. –T., 2006
10. G‘aybullaeva M. Farzandlarimizni allalab, erkalab o‘stiramiz.. –T., 2006
11. Nazarova F. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida psixologik xizmat va mehyoriy hujjatlar. T., 2007.
12. Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari. II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanining tezis va maqolalar to‘plami. –T., 2008.
13. Karimov M., Ikromova M. Raqs elementlari orqali bolalarni jismoniy rivojlantirish. Metodik qo‘llanma. –T., 2008.
14. Mirdjalilova S., To‘laganova R. Ta‘limda innovatsiya. Ta‘lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. – T., 2008.
15. Rustamova M., Djumanova D. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda metodik birlashmalarning o‘rni. Metodik tavsiyanoma. –T., 2008.

16. Maktabgacha ta'lim tizimiga doir huquqiy-mehyoriy hujjatlar to'plami. – T., 2009.
17. Djumanova D., Prusakova Yu.K. Quvnoq logoritmika. Metodik qo'llanma. – T., 2009.
18. Raxmonqulova Z., Qurbonova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarini shakllantirish. Metodik qo'llanma. – T., 2009.
19. «O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash – yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2009.
20. Jalolova G.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. Metodik tavsiya. – Toshkent, 2004.
21. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2004.

### **I. Elektron ta'lim resurslar**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:  
[www.mdo.uz](http://www.mdo.uz).

7. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz).

14. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.

15. <http://www.istedod.uz> – “Iste'dod” jamg'armasi sayti.

16. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

17. <http://www.mtmmarkaz.uz>

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	<b>3</b>
<b>I BOB. Ma’ruza fanlarida utiladigan mavzular</b>	
1.1 Musiqa san’atining hayotdagi o‘rni va roli. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi musiqa ta’lim-tarbiyasining maqsad va vazifalarining ahamiyati .....	<b>6</b>
1.2“Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturining mazmun -mohiyati .....	15
1.3. Musiqa mashg’ulotini o’tkazish metodikasi, zamonaviy konsepsiyalari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar.....	24
1.4. Tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan yillik (kunlik, oylik) mashg’ulot rejasini ishlab chiqishda qo’yiladigan talablar.....	32
1.5. Musiqa mashg’ulotlarida integrallashgan mashg’ulotlarni tashkil etish metodikasi .....	39
1.6. Musiqa mashg’ulotlarini tashkil etish hamda hamkorlik faoliyatlarida yuzaga keladigan kasbiy muammolarni bartaraf etish strategiyalari .....	49
1.7.Musiqa mashg’ulotlarida tarbiyalanuvchilarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilish.....	55
1.8.Musiqa mashg’ulotlarida qo’shiq o’rgatish metodikasi, yangi ashulani o’rgatishdagi asosiy jarayonlar (vokal, jamoa bo‘lib ijro malakalarini o‘stirish) .....	61
1.9. Musiqa mashg’ulotlarida musiqa tinglashning ahamiyati.	65
1.10.Musiqa mashg’ulotlarida bolalarga musiqalar xarakteriga xos harakatlar, o‘zbek xalq raqs elementlari va ritmik harakatlar ustida ishlash.....	70
1.11. O‘zbek xalq milliy cholg‘u asboblari va bolalar cholg‘u asboblari tasnifi .....	75
1.12. Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy tarbiya mashg’ulotlari, bayram tadbirlarini rejalashtirish (tadbir	84

senariysi)	
<b>III-BOB. BOLALAR UCHUN ASARLAR YOZGAN KOMPOZITORLARI VA BASTAKORLAR.</b>	108
Mutal Burhonov hayoti va ijodi.....	
Muxtor Ashrafiy hayoti va ijodi.....	109
To‘xtasin Jalilov hayoti va ijodi.....	111
Muhammadjon Mirzayev hayoti va ijodi.....	112
Tolibjon Sodiqov hayoti va ijodi.....	114
Fattoh Nazarov hayoti va ijodi.....	116
Sobir Boboyev hayoti va ijodi.....	118
Doni Zokirov hayoti va ijodi.....	119
G‘ofur Qodirov hayoti va ijodi.....	121
Abdurahim Muhamedov hayoti va ijodi.....	123
To‘lqin Toshmatov hayoti va ijodi.....	124
Komil Kenjayev hayoti va ijodi.....	126
Shermat Yormatov hayoti va ijodi.....	127
Rustam Abdullayev hayoti va ijodi.....	129
Habibulla Rahimov hayoti va ijodi.....	131
Abramova Sonya hayoti va ijodi.....	133
Qo‘ldosh Mamirov hayoti va ijodi.....	135
Farhod Alimov hayoti va ijodi.....	136
Nadim Norxo‘jayev hayoti va ijodi.....	138
Avaz Mansurov hayoti va ijodi.....	138

Dilorom Omonullayeva hayoti va ijodi.....	139
Xurshida Hasanova hayoti va ijodi.....	141
<b>III-BOB. Amaliy darslarda foydalaniladigan asarlar</b>	145
Musiqa mashg'ulotlarida foydalaniladigan asarlar.....	
Mavzu yuzasidan testlar .....	221
Glossariy .....	238
Foydalanilgan adabiyotlar .....	247

**B. . BOLTAYEV, J. A. XODJAYEV**

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA MUSIQA TARBIYASI**

**(DARSLIK)**

Muharrir  
Musahhih  
Texnik muharrir

O. Sharapova  
N. Isroilov  
B. Egamberdiyev

**ISBN 978-9943-6647-4-6**

2021-yil 17 dekabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.

2021-yil 23 dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84.1/16. "Times New Roman" garniturasini.

Offset qog'ozini. Shartli bosma tabog'i – 15,75.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 610

---

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.

